

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

1918-yil dekabrdan chiqa boshlagan

Jurnal O'zMAA tomonidan
2013-yil 4-martda qaytadan
ro'yxatga olinib, 0104-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bosh muharrir:

Sarvar MAHMUDOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Aliyor ORIPOV

Mas'ul kotib:

Nurbek TASHXANOV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Risboy JO'RAYEV
Hikmatilla RASHIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Yo'ldosh ASADOV
Fayzulla AHMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Maqsudjon YULDASHEV
Islom ZOKIROV
Alisher ZOKIROV
Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV
Abdug'ani XOLBEKOV
Ulug'bek ABRUYEV
Erkin ISKANDAROV
Bahodir SHAMSIYEV
Norbek TAYLAQOV
Abdusamat RAHIMOV
Muhammadjon QURONOV

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2014.

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

5-son (sentabr-oktabr)

2014

**Badiiy muharrir:**

Akbarali Mamasoliyev

Sahifalovchi: Muqaddas Xafizova

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (8 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan olingan parchalar "Xalq ta'limi" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi
shart. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar javobgardir.
Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Kelajakka qadam" xususiy korxona bosmaxonasi hamda G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi hamkorligida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi,
X. Raxmatulayev tor ko'chasi, 1-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 08.07.2014-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma
usuli. Shartli b.t. 12,0. Adadi 21090 nusxa. 510-buyurtma.

TAHRIRIYAT

Til o'rganish – jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini egallashning bosh omili..... 4

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Nigora ERGASHEVA. Ingliz tilining Amerika varianti va uning grammatik xususiyatlari	6
Gulnora ESHCHANOVA. Badiiy adabiyot orqali o'quvchilarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish asoslari	12
Mashhura ISABAYEVA. O'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda biologiya fanining ahamiyati.....	16
Gulnoz ERMATOVA, Dilafroz SAFAROVA. Amir Temur xarakteridagi ibratli jihatlardan foydalanishning samaradorligi	19

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Otabek IRGASHEV. O'quvchi-yoshlarning ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish orqali ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash	22
Xurshida RIXSIBOYEVA. Chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi.....	26
Shavkat DJUMANIYAZOV. Iqtisodiy fanlarni matematik misollar orqali o'qitish metodikasi	31
O'ktam ABDURAZZOQOV. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ota-onaning roli	38
Ravshan JOMONOV. Kirill yozuvidagi е, ё, ю, я harfli so'zlarning o'zbek alifbosidagi transliteratsiyasi	42
Marg'uba MUQADOVA. Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalangan holda samaradorlikka erishish yo'llari.....	47
Qo'ysintosh ABDIYEVA. Boshlang'ich sinf husnixat darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari	52
Jo'rabek TURSUNOV. V-VII sinflar mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish modeli	56

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Rahima KARAYEVA. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos usullari	61
Rohila JALOLOVA. Ona tili darslarida interaktiv metodlarni tizimli tatbiq etish imkoniyatlari	65

TA'LIMDA MENEJMENT

Raxmatilla MUSURMONOV. Zamonaviy rahbar va pedagoglar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning ilmiy-metodik asosi.....	70
Nasibaxon AHMEDOVA. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshqaruv tizimi yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablar	74

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Jalgas UTEGENOV. Jismoniy mashqlar orqali o'quvchilarda ijtimoiy zarur
sifatlarni shakllantirish asoslari 80

MUSIQA VA SAN'AT

Umida RAHMONOVA. Musiqiy ta'lim orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga
oid qarashlarni rivojlantirish 84

MAKTABGACHA TA'LIM

Sobitxon TURG'UNOV, Go'zal NAZIROVA. Oliy ta'lim muassasalaridagi
maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash modeli ... 87

Muxabbat XALILOVA. Sog'lom bolani shakllantirishda oila, maktabgacha
ta'lim muassasasi, mahalla hamkorligi 92

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

Zamira QO'ZIYEVA. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida kompyuter
texnologiyasidan foydalanishga oid tavsiyalar 95

TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

Nulufar ABDULLAYEVA. Sinfdan tashqari o'qish darslarida bolalar
adabiyotidan foydalanishning o'ziga xosligi 100

PSIXOLOGIYA

Dilorom SALIYEVA. O'quvchilarda o'zini o'zi anglash orqali o'quv
mustaqilligini ta'minlash 106

Dilorom YETMISHEVA. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasbiy
faoliyatga ma'naviy-axloqiy va psixologik tayyorlash omillari 110

KORREKSION PEDAGOGIKA

Xayitgul MUZAFFAROVA, Dildora MUSTAFAQULOVA. Imkoniyati cheklangan
bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish omillari 114

TA'LIM TARIXI

Nargiz NISHONOVA. Farzand tarbiyasida mutafakkirlarimiz merosidan
foydalanish yo'llari (Sharq uyg'onish davridagi ma'naviy-axloqiy asarlar misolida) 118

Dilnoza ZUPAROVA. Dizayn ta'limi tarixi orqali yosh avlodga loyihalash
madaniyatini singdirish 121

МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Гулбахар АБЫЛОВА. Педагогические и психологические требования к
личности современного учителя 126

Гулнора ИБРОХИМОВА. Методические рекомендации по подготовке и
оформлению курсовых и дипломных работ по педагогике 130

ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Елена НАУМОВА. Формирование духовно-нравственной мотивации
у ребенка как ключевой компонент готовности к обучению в школе 140

TIL O'RGANISH – JAHON ILM-FANI VA MADANIYATI YUTUQLARINI EGALLASHNING BOSH OMILI

Dunyoda integratsiyalashuv jarayoni jadal sur'atlarda davom etayotgan bugungi kunda, tabiiyki, chet tillarni mukammal biladigan mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortib boryapti. Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishda "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Qonunlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etayotir.

Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida ta'lim olayotgan yoshlar bugun nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosda ham qator yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda. Buning asosiy va eng muhim omili yurtimizda chet tillarni o'rganishga qaratilayotgan e'tibordir.

Prezidentimizning "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida:

"Ilgari xorijlik mehmonlarga ekzotika namunalarini ko'rsatardik. Bugun esa ularga bolalarimiz qanday o'qiyotgani, ularga qanday zamonaviy sharoitlarda bilim berayotganimizni, qanday avlod voyaga yetayotganini ko'ring, deymiz. Yana shuni ta'kidlamoqchimanki, ushbu kollejlarda tahsil olayotgan yoshlarimiz ikki-uch mutaxassislikka ega bo'lish bilan birga, xorijiy tillarni, aksariyat hollarda ingliz tilini o'rganmoqda", deya ta'kidlangan.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan. U ushbu tillarda bema'lol so'zlashgan, o'qigan va irod qilgan. Bunday imkoniyat allomaga buyuk kashfiyotlar qilish, o'lmas asarlar yozishga turtki bergan.

So'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning "Til bilgan – el biladi", degan hikmatli so'zlari asrlar osha dunyodagi barcha millatlarni o'zaro ahil-inoqlikda, hamjihatlikda yashashga da'vat etib kelayotgandek, go'yo.

Dunyo ilm-fani va tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarning qonlari bugun yurtimizda kamol topayotgan yosh avlod tomirlarida oqmoqda. Ular shonli o'tmishdan o'rnak olib, buyuk kelajak sari dadil odimlamodalar. Ayni paytda yurtimizda yaratilgan barcha shart-sharoit farzandlarimizni ulkan marralarga chorlamodda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 12-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2013 – 2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatish joriy etildi.

Yosh avlodga xorijiy tillarni o'qitishda qo'shimcha manbalardan samarali foydalanish, ko'rgazmali vositalar ko'magida o'quvchilarning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, darslarni interfaol usulda olib borish, o'quvchilarni qo'shimcha mashg'ulotlarga jalb etish va bu jarayonda noan'anaviy uslublardan keng foydalanish yaxshi samara beradi.

Har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlarini tasdiqlash, umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinfidan boshlab chet tillar ta'limini uzluksiz joriy etish, barcha ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari, rejalari va darsliklar ishlab chiqish yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ularning yorug' istiqbolini belgilaydi.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1 – 9-sinf o'quvchilari uchun yangi davlat ta'lim standartlari loyihasi ishlab chiqilgan. Birinchi sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratish bo'yicha ham izlanishlar olib borilmoqda. 5 – 9-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturlari takomillashtirilib, darsliklar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari bilan uzluksizligi va uzviyligi ta'minlangan holda qayta ishlab chiqilmoqda. Ushbu adabiyotlarni o'quvchilarga bepul yetkazish barobarida ularga elektron ilovalar ham taqdim etilyapti.

Eng muhimi, birinchi sinflar uchun yaratiladigan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning bolalar yoshiga mosligi ta'minlandi. Bola xorijiy til olamiga ilk qadamni tanishuv, salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshlaydi.

Mutaxassislarining fikricha, 6-7 yoshda bola ikkinchi til o'rganishga fiziologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ammo bu davrda ta'limiy o'yinlar orqali mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, harakatli materiallar yordamida hayvon nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari va ayrim kichik detallarni eslab qolish yetarli. Unutmaslik kerakki, chet tilini o'rganish borasidagi dastlabki qadamdanoq bolani ortiqcha zo'riqtirish aks natija berishi ham mumkin.

Xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish bugun har qachongidan ham ortgani rost. Mustaqillik tufayli chet davlatlar bilan muloqot qilishga yo'l ochildi. Bugun umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari talabalari yurtimizda yaratilgan sharoitdan unumli foydalanib, xorijiy tillarni o'rganishmoqda. Ayni paytda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog-xodimlar nafaqat ona tilida, balki xorijiy tillarda ham erkin muloqotga kirisha olishlari yurtimizda raqobatbardosh kadrlar safi kengayotganidan dalolat.

Til o'rganish har doim muhim sanalgan. Avvallari faqat yaqin atrofdagi xalqlarning tillarini o'rganish keng yoyilgan bo'lsa, hozir iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish yaxshi yo'lga qo'yildi. Buning o'ziga yarasha sababi bor, albatta. Chunonchi, tobora taraqqiy etib, o'zining iqtisodiy salohiyati, harbiy qudrati bilan dunyoda tenglar ichra teng bo'lib borayotgan mamlakatimizda fan, ta'lim, madaniyat va sport, tibbiyot, ishlab chiqarish kabi ko'plab sohalarda mehnat qilayotgan xodimlarning chet ellarda tajriba orttirishi yaxshi an'anaga aylangan. Shuningdek, xorijlik mutaxassislarning yurtimizga jalb etilishi ham bevosita tegishli soha xodimlaridan chet tilini yaxshi o'zlashtirishni talab etadi.

Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, til o'rganishga qiziquvchi jurnalxonlarning xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi, chet tillarning grammatikasi, imloviy va uslubiy qoidalarini o'rganishlariga munosib hissa qo'shish maqsadida "Xalq ta'limi" jurnali sahifalarida ushbu yo'nalishda turkum maqolalar berib borilmoqda.

Tabiiyki, o'quvchi-jurnalxonlar orasida chet tillarni puxta o'zlashtirgan, hatto xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ish qilayotganlar ham topiladi. Chet tillarga doir barcha ilmiy maqolalarni jurnal sahifalarida ko'rsatilgan elektron manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning ushbu ilmiy maqolalaringiz ko'plab yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Nigora ERGASHEVA,
Farg'ona DU chet tillari kafedrası mudiri

INGLIZ TILINING AMERIKA VARIANTI VA UNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ingliz tili Amerika variantining zamonaviy ta'lim tizimidagi grammatik va fonetik xususiyatlari, mazkur variantning shakllanish tarixi, uning Britaniya varianti bilan taqqoslanishi misollar yordamida keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Asos, frazalar, talaffuz, birikma, struktura, sheva, fe'l, artikl, predloglar, xalqaro.

В данной статье раскрываются грамматические и фонетические особенности Американского варианта английского языка в современном процессе обучения. Автор приводит примеры истории формирования американского варианта английского языка, образовавшиеся различия в грамматической структуре, фонетике и лексике Американского варианта языка в сравнении с Британским вариантом.

Ключевые слова. Основа, фразы, структура, диалект, глагол, артикль, предлоги, международный.

This article reveals the features of the American version of the English language within the framework of the modern education process, history of forming the American version of the English language, differences from the British version concerning the grammatic structure, phonetics and vocabulary.

Key words. Base, phrasel verbs combination, structure use, usage, extention, dialect, verb, article, prepositions, international.

Hozirgacha dunyo olimlari o'rtasida ingliz tilining Amerika va Britaniya variantidan Amerika variantining turli shevalardagi fonologik farqlari xususida bahslashuv haligacha davom etmoqda. Bu bahslashuv uzoq tarixga ega bo'lib, bundan yuz yillar avval U.Uitning amerikaliklar tili mustamlaka davridagi adabiy ingliz tili bilan o'xshashligini aytgan. Afsuski, U.Uit o'z fikrini dalillar bilan tasdiqlay olmadi. A. Ellis va G. Suit Amerika variantining ajralib turuvchi belgilarini qadimgi davrdan saqlanib qolgan, deb tushuntiradi. Bunda ular island yoki irland ingliz tillaridagi arxaik hodisalarning saqlanib qolganliklarini ko'rsatishadi.

Dj. P. Krepp o'z nuqtayi nazarini quyidagicha ifodalaydi: Amerika variantining ajralib turuvchi belgilari fonologik sistemaning mustaqil rivojlanishi oqibatidir. U bunday o'zgarishning asosiy sababi shevalarning ajralib ketishi, ya'ni Shotlandiya, Shimoliy va Janubiy Angliyaning hududlarida yashagan ko'chmanchilarning so'zlashuvlaridir,

deydi. Buning natijasida Janubiy Angliya talaffuzidan ko'ra markaziy va Shimoliy Angliya talaffuziga yaqin bo'lgan talaffuz ko'rinishi shakllanadi.

Krepp qarashlari rivojlanishini Amerika shevashunosi G. Kuratning "Zamonaviy ingliz tilida dialektal o'zgarishlarning kelib chiqishi" maqolasida ko'rish mumkin. Uning fikricha, yangi Angliya shtatlari, AQShning janubi-g'arbidagi dialekt farqlarining XVII – XVIII asrdagi yagona gomogen adabiy tilidan kelib chiqqan, deb tushuntirib bo'lmaydi. Amerika variantining farq qiluvchi xususiyatlari va uning hududiy ko'rinishlari, Angliyadan ko'chib kelgan emigrantlar ega bo'lgan hududiy shevalar va turli mahalliy adabiy til variantlaridan kelib chiqqan.

O'z gepotezasini ma'qullash uchun G. Kurat yangi Angliya va AQSh janubidagi hududlarda "r" old undoshining vokallashuviga tayanadi. Uning fikricha, bunga sabab, bu hududlarda yashovchi emigrantlarning ko'pchiligi, "r-siz" talaffuz turi shakllangan Angliyaning janubi-g'arbiy grafliklaridan bo'lganliklaridir.

Boshqa tomondan, o'rta-atlantik shtatlarda, Janubiy Angliya grafliklaridan kelganlardan tashqari Shotlandiyaning shimoliy grafliklaridan kelgan emigrantlar o'zbekcha talaffuz ko'rinishini shakllantirdilarki, u mustamlakachilik mobaynida davlatning g'arbga tarqalib, "umum Amerika hududiy usul", deb ataluvchi talaffuz kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Shimoliy Angliya va umum Amerika talaffuz turlarining o'xshashligi quyidagilarda kuzatiladi:

- "r"ning barcha holatlaridagi artikulyatsiyasi;
- **ei** va **ou** larning kuchsiz diftonglashishi;
- **four** va **for**, **hoarse** va **horse**, **mourning** va **morning** lar orasidagi fonematik kontrastlarning saqlanib qolinishi;
- **hat** va **half** so'zlarida bir xil undoshlarning qo'llanilishi.

Kurat shevali hududiy ko'rinishlar kelib chiqishini Amerika talaffuziga bog'lashi Shimoliy Amerikani mustamlaka etayotgan davrida Angliyada yagona adabiy namuna bo'lmagan, degan taxmindan kelib chiqadi va janubiy ingliz talaffuz ko'rinishiga asoslangan adabiyot standartning XVII asr oxirigacha, hatto ziyoli odamlar o'rtasida ham ko'p tarqalmaganligi asos bo'ldi, deb hisoblaydi.

Bu nazariya haligacha qo'llanib kelinardi. Masalan, amerikalik shevashunos R. Makdevid AQSh ingliz tiliga bag'ishlangan ishlarida Amerika varianti xususiyatlarini aniqlab beruvchi dalillar orasida birinchi o'rinda shevalar aralashuvini aytadi. Zamonaviy Amerika talaffuzida turli shevalar bazasi mavjudligini ko'rsatuvchi dalillarni ko'rib chiqamiz. Bir qarashda umum Amerika talaffuz turini Shimoliy Angliya turi bilan solishtirish o'ta ishonchlidek tuyuladi. Lekin G. Kurat va uning tarafdorlari tomonidan dalillar sinchikovlik bilan ko'rib chiqilganda, bu dalillar asossiz ekanligi aniqlanadi. Haqiqatan G. Kurat umum Amerika talaffuz turini XVII asr Shimoliy Angliya shevasi bilan emas, balki zamonaviy Shimoliy turining ingliz talaffuzi bilan solishtiradi. Shu bilan birga, Shimoliy Angliya va umum Amerika talaffuzining alomatlari XVII – XVIII asrdagi umum Angliya adabiyot tili alomatlari bilan o'xshashi e'tiborga olinmaydi. Haqiqatda esa, qadimgi Angliya davridagi konsonat old **f**-ning talaffuz holati (artikulyatsiyasi) va **ei** hamda **ou**-ning qo'shilgan talaffuzi, [o:] va [e:] monoftonga ko'tarilishi va **four** va **for** o'rtasidagi fonematik qarama-qarshilik (kontrast) mavjudligi bu belgilarning hammasi XVII – XVIII asrdagi Angliya adabiyot tiliga tegishlilikidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda Amerika variantining hududiy farqlanishi borasida soʻz borganda Britaniya variantidan fonologik farqli tomonlarini aniqlab beruvchi divergent hodisalarni koʻrib chiqish zarur. Amerika variantining dastlab shakllanayotgan (XVII – XVIII) bir paytda ingliz adabiyot tilining Britaniya variantining Shimoliy Amerikada yashovchi aholisiga taʼsiri bir tekis kechmadi. Atlantika sohilida joylashgan ingliz aholisining markazi koʻproq taʼsir ostida qoldi. Ammo ularga ham metropoliya bilan doimiy madaniy aloqalarning yoʻqligi taʼsir etdi. Mustamlaka Amerika aholisining “madaniyatidan ortda qolganligi” va uning mahalliy aholiga taʼsiri haqida A. Makvardt oʻzining “Amerikadagi ingliz tili” asarida ishonarli dalillarni keltirib oʻtadi. Uning fikricha, sohildan ancha ichkarida joylashgan hududlar sohildagiga nisbatan metropoliyaning tilga taʼsiridan yiroqda boʻlgan.

Bu munosabatda Amerikadagi ingliz tiliga kirib kelgan yangilik, old konsonant [r] ning vakollashuvini taʼkidlab oʻtish joiz. P. Tradjil taʼkidlashicha, Angliyaning lingvistik xaritasida old konsonant [r] ning konfiguratsiyasi, yangilik mamlakatning markaziy sharqiy hududlarda shakllanganidan dalolat berib turibdi. Keyinchalik, bu innovatsiya toʻlqini hali ham old konsonant [r] ni qoʻllovchi shevalar boʻlgan Farb va Sharqda susayib bordi. Biroq bunday shevalar bilan oʻralgan shahar markazlarida [g] siz shakl asosiy boʻlib kelmoqda. Tradjilning fikricha, til innovatsiyalari avval markazdan markazga va soʻngra chetga tarqaladi.

Britaniya variantidan kirib kelgan va Amerika yerida muqim qolib ketgan innovatsiyalar qatorida, har bir mahalliy Amerika talaffuz tili oʻzida relikht xususiyatlarini saqlab qoldi. Innovatsiya va relikht koʻrinishlarining birlashmasi mahalliy tip spetsifikasini tashkil qiladi. Masalan, [r] sizlar tilida (sharqiy yangi ingliz tili) **for** va **four** ni fonologik qarama-qarshi qoʻyishi saqlanib qolgan.

Agar Amerika variantining farqlanuvchi xususiyatlarini shakllanishiga metropoliya sabab boʻlgan boʻlsa, Amerika variantining ichidagi divergent koʻrinishlarning rivojlanishiga Amerikaning dastlabki mustamlakachilik davridagi koloniya va shaharchalarning turli joylarda tarqalganligi sabab boʻladi. Masalan, G.Kuratning taʼkidlashicha, Massachusetts hududlarining Konnektikut daryosi pastidagi hududlar bilan birikishi uchun bir yarim asr kerak boʻldi. Bu payt mobaynida keltirilgan hududlar aholisi orasida hozirgacha sharqiy va gʻarbiy Yangi Angliyadagi shevalarning differensiyalashuvi oʻzagida yotuvchi bir qator xususiyatlar shakllana oldi.

Umuman olganda, yuqorida koʻrsatilgan ekstralingvistik isbotlar va umumiy ichki lingvist harakatlar ingliz tilining Amerika va Britaniya variantlari, fonologik tarkibining rivojlanishi jarayonida paralellik keltirib chiqardi. Bu tarkibiga taʼsir etgan, koʻplab tovush oʻzgarishlaridagi paralellizm, yuqorida taʼkidlangan ikki tarkibining bir-biri bilan munosabatda va ular oʻrtasidagi oʻxshashliklarga aniqlik kiritdi.

Hozirgi kunga kelib, ingliz tili oʻz ijtimoiy qoʻllanish koʻlamini kengaytirib, koʻpgina mamlakatlarda davlat tili, ikkinchi davlat tili, millatlararo muomala tili vazifasini bajarib kelmoqda. Bu esa, ingliz tili strukturasida ayrim oʻzgarishlarning sodir boʻlishiga olib kelmoqda. Turli variantlar oʻz normalari, standartlariga ega boʻlmoqdaki bu narsa ingliz tili fonetik, grammatik strukturasini hamda lugʻat boyligining kengayishiga olib kelmoqda.

Oʻzgarishlar koʻproq feʼlga xosdir. Hozirgi zamon ingliz tilida, bir tomondan, yordamchi feʼllar **shall** va **will** oʻrtasidagi farq yoʻqolib bormoqda, ikkinchi tomondan,

shall fe'lining **will** tomonidan qisib chiqarilishi sodir bo'lmoqda. Bunga, birinchidan, og'zaki nutqda (**I'll, we'll, they'll**) qisqartma formalarining ko'p ishlatilishi, ikkinchidan, **will** ning (1-shaxsdan boshqa qolgan barcha shaxslar uchun) **shall** (faqat 1-shaxsda) **ga** nisbatan ko'proq qo'llanilishi sabab bo'lyapti. Shuning uchun hozirgi paytda **will** ning neytral kelasi harakat (**I will be there, We will die one day**) kabi gaplarda qo'llanilishi oddiy holdir. Shunday qilib, ko'lga yiqilib tushib: "I will be drowned, no one shall save me", deb baqirgan kishi haqidagi hazilning birinchi qismini ko'plab inglizlar neytral kelgusi harakat formasiga o'z o'rnini bergan. Ikkinchi qismida esa, **shall** ushbu holatda hali ham o'zining modal ma'nosida qabul qilinadi. (I shall be saved=I refuse to be saved.) **We shall** ni qisib chiqarayotgani kabi **would** ham **should** ni qisib chiqarmoqda. Hozirgi paytda ko'p hollarda, oldin **should** qo'llanilgan hollarda **would** qo'llanilmoqda (I would like to know. If we were to. tell you, we would be comitting breach of faith).

To be going to formasi Simple Future qo'llanilishini anchagina qisqartirib qo'ydi. Be going to: a) yaqin kelajakda sodir bo'ladigan harakatni ifodalashda; (Ne is going to: a) yaqin kelajakda sodir bo'ladigan harakatni ifodalashda; (Ne is going to meet Tom at the station at 6); b) maqsadni ifodalashda (What are you going to do when you get your degree?) qo'llaniladi. Fikrimizcha, hozirgi paytda **to be going to** ni ingliz tilining yordamchi fe'llar tarkibini to'ldirgan, yangi yordamchi fe'l sifatida ko'rib chiqish kerak. Bunga tasdiq qilib, bu birikmaning og'zaki nutqidagi fonetik chizmasini keltirish mumkin. Boshqa yordamchi fe'llardagi kabi **to** yuklamasi **be going ga** (bosh fe'lga emas) birikmoqda. Qiyoslang: Ne ought to go; I'm going to do it va He came to see it.

Hozirgi zamon ingliz tilida have fe'lining Simple Present dagi so'roq va inkor formalarini yasashda differensiallash kuzatilmoqda:

a) agar **have** fe'li passess ma'nosini anglatlsa, Simple Present ning so'roq va inkor formaları yordamchi fe'lsiz yasaladi. Ko'pincha, bu ma'noda **having** ekvivalenti **have go** qo'llaniladi: They haven't a garden. (They haven't got a garden). I have three sisters (I have got three sisters).

b) agar have take, get, receive, yexperience ma'nolarida qo'llanilsa, unda do yordamchi fe'li ishlatiladi: Do you have milk and sugar in your tea? He doesn't have a cold. AMMO ikkala variant ham ishlatiladigan chegara holatlar ham uchrab turadi (has she smart dresses? Does she have smart dresses?).

d) ayrim hollarda yordamchi fe'llarning qo'llanilishi have oddiy, takrorlanuvchi (habitual) harakatni (Do you have dances in your village hall?) yoki bir martalik harakatni (Have you (got) a dance tonight?) bildirib kelishiga bog'liq. Berilgan habitual (non-habitual) faqat ingliz tiliga xosdir, hozirgi zamon Amerika variantida **do** yordamchi fe'l have ning qanday ma'noni ifodalashidan farqli barcha hollarda qo'llanadi (Do you have the time?) (Do you have any children? - amer; Have you (got) the time? Have you (g;ot) any children? - ing).

So'nggi yigirma yilda uzoq vaqt ingliz tilida eskirgan, deb hisoblanuvchi Subjunctive ning qisman uyg'ongan formasini tez-tez qo'llanishi kuzatilmoqda.

Hozirgi zamon so'zlashuv nutqida elliptik gaplardan foydalanish xos bo'lib bormoqdaki, uni tashkil qilishda ayrim qonuniyatlarga bo'ysunish lozim:

a) ikkinchi shaxsga berilayotgan maxsus savollarda fe'l tushirib qoldirilishi (What you want that for? Where you think you're going?);

b) ikkinchi shaxsga berilgan umumiy savollarda turli yordamchi fe'llar tushirib qoldirilishi (Like a cigarette? Have a drink?).

Bunday elleptik yasalmalar 2-shaxsga berilgan savollarga xosdir. Berilgan elleptik tuzilmalarni nutqidagi nuqson, deb qarayotgan mutaxassislardan farqli, biz 2-shaxsga berilmayotgan yangi so'roq formasining shakllanayotganligiga guvohmiz.

Get va **want** fe'llari ham ko'pincha, yordamchi fe'l sifatida qo'llaniladi.

Want majbur, shart, talab qilinish ma'nolarida ishlatiladi (You want to be careful about what you're doing), (You want to go to a doctor. You want to take it easy). Bizningcha, **be going to get**, want yuqorida sanab o'tilgan hollarda yordamchi fe'l sifatida qaralishi kerak, bularga yana og'zaki nutqdagidek kabi **to** yuklamasini qo'shish xosdir (qiyoslang: You ought to go; I want to go).

Ingliz tili mutaxassislari 20 yildan buyon og'zaki **whom** o'rniga **who** ishlatilishini ta'kidlab kelishmoqda. Og'zaki nutqda I don't know who to suggest gapi mantiqan to'g'ridir, ammo ko'p inglizlar who ning yozma holatda ishlatilishini ustun qo'yadilar. Lekin predlogdan keyin faqat whom qo'llanilishi mumkin. Masalan: To whom shall I give: I don't know for whom it is intended. Ammo bu variatnlar yozma nutqqa xosdir. Shuning uchun yozma va og'zaki nutqni farqlash lozim.

Hozirgi zamon ingliz tilida **be** fe'lidan keyin **me** ning ishlatilishi tabiiy holga aylangan (It's me). Ammo **It's** me ning **It's I** olmoshi bilan almashtirilishi farqsiz o'tib ketmaganligi diqqatga sazovordir. Hozirgi paytda Ne gave it to my brother and I (and me), va but , like dan keyin (Nobody but me. Nobody but I.) kabi gaplardagi bosh va obyekt kelishiklar o'rtasidagi farqning yo'qolib borish belgilari kuzatilmoqda.

Og'zaki ingliz tilida uzoq vaqtdan buyon ergash gaplarning bog'lovchisiz ishlatilish tendensiyasi kuzatilmoqda (A man I know A man that I know o'rniga). Bu yangi tendentsiya emasligi, oxirgi paytda that bog'lovchisining og'zaki nutqda umuman ishlatilmayotganligini aytib o'tish lozim.

Uzoq yillar davomida puristlar **like** ni bog'lovchi sifatida qo'llanilishiga qarshi chiqib kelganlar (Ne can't do it like I can) va Ikkinchi jahon urushiga qadar bu xuddi til normalarini buzish sifatida qaralgan. Ammo urushdan so'ng, **like** ni bog'lovchi sifatida qo'llash, amerika varianti ta'siri ostida keng yoyilishiga sabab bo'ldi va hozirda bu jarayonni to'xtatish qiyin.

Hozirgi paytda **due to** ning predlog sifatida qo'llanilishi ham amerika varianti ta'sirida sodir bo'lyapti. **Due to** ning predlog sifatida qo'llanilishi oldin ham kuzatilgan, ammo u asosda doim puristlar qarashlari bilan to'qnashgan. **Due to** ning predikativ funksiyada ishlatilishigina asosli, deb hisoblangan (The monay was due to him). Hozirgi vaqtda intellegent ingliz nutqida Due to heat-failure he Suffered an early death kabi gaplarni eshitish mumkin. Puristlarning haligacha bunga qarshi chiqishlariga qaramay, **due to** ning predlogga aylanish jarayoni qaytarilmayotir. Tarixan ingliz tilida, atoqli otga qo'shilganda artiklsiz ishlatiladigan funksiyalarida ayrim ot guruhlari paydo bo'lgan (Professor Smith, Cartain Brown, Mr. Jones, Doctor Black). Zamonaviy ingliz tilida bu guruh ancha to'ldirilgan. Kasb-hunarni bildiruvchi barcha otlar, qo'shimcha funksiyasida artiklsiz qo'llanilishi, masalan: Prime Minister Wilson (Mr. Wilson o'rniga The Prime Minister yoki The Prime Minister, Mr. Wilson); centre-forward John Smith; actress Flora Rodson. Bundan tashqari, ko'pincha, ushbu otlar o'zi bilan birga aniqlovchiga

ega bo'ladi: Birmingham house wife MRS. Smith (Mrs. Smith, a Birmingham house wife o'rniga).

Endilikda, kirish gaplarni keng qo'llashga moyillik kuzatilmoqda. Ba'zi hollarda bu kirish gaplari aniqlovchi ergash gaplari, masalan: Boxer Bill Smith (he will be twenty tomorrow) has signed a controut tonight kabi yoki mustaqil gaplar: Her atomic bomb (There's benn no official statement yet about its size) was denotated... bilan almashtirilishi mumkin.

Yozma nutq ustida yozuvchilarning so'nggi 50 yil davomida o'tkazgan kuzatishlari gaplar ancha qisqargani, ulardagi ergash, ayniqsa, aniqlovchi gaplar sonining qisqarganligidan dalolat beryapti.

Xulosa qilish mumkinki, tilda ro'y berayotgan o'zgarishlarning ko'pchiligi fe'l so'z turkumining turli funksional ko'rinishlariga xos bo'lib, ular ham miqdoriy o'zgarishlar, fe'l formalari til tarkibining turli qatlamlarida ishlatilishi ko'lamiga bog'liq. Boshqa so'z turkumlariga kelsak, ot, olmosh, sifat hamda bog'lovchi, predloglarda ham fe'l so'z turkumidagi kuzatilgan holni ko'rish mumkin.

Ingliz tilining Amerika varianti grammatikasi elementar yig'indisi va ular o'rtasida mavjud bo'lgan aloqalar nuqtayi nazaridan kelib chiqsak, bu variant Britaniya varianti yoki Avstraliya varianti kabi bo'lib, tilda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'lishi kutilayotgan o'zgarishlarning barchasi til tarkibi imkoniyatidan kelib chiqqan funksional kengayish, xolos. Bu hodisalarning tilda ko'p ishlatilishi ularning normaga tegishli ekanligidan emas, balki normaning cheklovchi kuchi Amerika variantida kuchsizligi yoki norma chegarasining nisbatan erkin belgilanishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fries Ch.C. *American English Grammar*. London. London University Press, – P., 1940 – 240.
2. Menshen HrL. *The American Language*. New York. – The Centure Press. 1963 530.
3. Kenyon J.S. *Cultural Levels and Functional varieties of English*. – Tn.: "College English", 1948, 10, Number 1-3, P. 47-52.
4. Whitney W V, *Language and the study of language*, – London, pp170-174,
5. Ellis A. *On early English pronunciation*. – London, pp.19,
6. Sweet H. *New English grammar*. – Oxford, pp.224.
7. Kurath H. *The origin of the dialectal differences in spoken American English*. "Modern Philology", v-25, № 25, rr.285-395.)

Gulnora ESHCHANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi, dotsent

BADIIY ADABIYOT ORQALI O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHI VA TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilar dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishda badiiy asarlar tahlili orqali amalga oshirish mumkinligi yoritilgan. Muallif fikricha, badiiy asardagi voqealar va asar qahramonlarini tahlil qilish hamda tadqiq etish orqali o'quvchilar o'zini o'zi anglaydi, natijada ularning milliy tafakkuri shakllana boradi.

Kalit so'zlar. Badiiy asar, dastur, dunyoqarash, g'oya, milliy tafakkur, innovatsion texnologiya.

В статье рассматривается роль художественной литературы в жизни современной молодежи и формирование у них творческое мировоззрения. Автор отмечает, что активное и продуктивное чтение, особенно художественной литературы, неотъемлемая часть жизни цивилизованного человека, развивающая его образное мышление и творческие возможности в любой сфере деятельности.

Ключевые слова. Художественная литература, программа, мировоззрение, идея, инновационные технологии.

This article discusses the role of literature in the lives of youth and the formation of their creative vision. The author notes that the active and productive reading, especially of fiction, an integral part of the life of a civilized person, developing his creative thinking and creative ability in any field of activity.

Key words. Literature, program, world view, ideas, innovative technologies.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga e'tibor dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki yurtimiz taraqqiyoti va kelajagini yoshlar ta'minlaydi, ular mamlakatni taraqqiy ettirish estafetasining davomchilarigina emas, balki yaratuvchilari va bunyodkorlari sifatida mamlakat kelajagi uchun javobgar bo'ladilar. Shu bois, yosh avlodning milliy ongini va axloqiy sifatlarini kamol toptirish, ularda ilg'or ilmiy dunyoqarash, g'oyaviy e'tiqodni, chuqur bilim va mehnatsevarlikni tarbiyalash lozimdir.

Prezidentimiz Islom Karimov: “Hech kimga sir emaski, bugungi kunda o'zining qadr-qimmatini, g'urur va iftixorini saqlab, o'z kuchi va qudratiga ishongan, o'z mehnati va aql-zakovati bilan o'z kelajagini qurish, o'z yurtini himoya qilishga qodir bo'lgan davlat va jamiyatnigina dunyo ahli tan oladi va hurmat qiladi. Biz o'z oldimizga qo'ygan ana shunday yuksak maqsadni amalga oshirishda, avvalo, jismoniy barkamol, zamonaviy bilim va taraqqiyotni chuqur anglagan, irodasi baquvvat, manaviy yetuk avlodni hal qiluvchi kuch sifatida ko'ramiz”, – deya bejiz ta'kidlamaganlar.

Milliy g'oyamiz haqli ravishda: milliy ongni tarbiyalab, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; milliy axloqni qaror toptirish; inson shaxsining har tomonlama rivojlanishi, jamiyat a'zolarining ongi va xulq-atvoridagi nuqsonlarni yo'qotish va buzg'unchi g'oyalarning har qanday ko'rinishlarini keskin fosh etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda yosh avlodning milliy ongi va ma'naviy dunyoqarashi rivojlangan, milliy mentalitetimizga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim hayotiy ahamiyatga egadir.

Milliy ongning shakllanishi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga ham bog'liqdir. Bizning jamiyatimizda shunday obyektiv sharoitlar mavjudki, bu sharoitlar milliy ongning qaror topishi va rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratmoqda.

Jumladan, yosh avlodni davr talabi ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilishidir. Zamonaviylikka asoslangan ilm-fan yosh avlod ongining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oyaga asoslangan fanlarimizning qudrati shundaki, bu fanlar turli xil siyosiy va diniy uydirmalarga, afsonalarga emas, balki isbot, dalillar, tajribaga suyanadi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, maktablarda o'qitiladigan fanlar tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga yot bo'lgan har qanday qarashlarni keskin rad etadi.

Dunyoviy fanlarning asoslarini o'rganish natijasida tarkib topgan milliy ong yoshlarga jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini to'g'ri ilmiy asosda tushunishlariga imkon beradi. Har bir fan o'ziga xos tarbiyaviy qimmatga egadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rgatilayotgan fanlar majmuasini mukammal o'zlashtirish natijasida o'quvchilarda milliy ong asoslari tarkib topib boradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida ham o'quvchilarda milliy ongni kamol toptirish barobarida ularning dunyoqarashlarini tarbiyalash masalasiga e'tibor ancha kuchayganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda: Milliy ong o'zi nima? – degan savol tug'ulishi tabiiy.

Milliy ong, milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimiz asosida shakllangan, o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga asoslangan, vatan va xalq, millat taqdirini o'z taqdiri bilan chambarchas bog'laydigan komil insonga xos fazilatlar majmuasidir.

Hozirgi kunda yoshlarda milliy ong va dunyoqarashini tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berilishiga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab mamlakatlar o'z investitsiyasini olib kirib, qo'shma korxonalar ish boshladi. Bunday faoliyatlar orqasida yovuz niyatli kimsalarning maqsadlari yashiringan hollar ham uchrab turmoqda.

Ikkinchidan, mustaqillik tufayli mamlakatimizda diniy erkinlikka erishildi. Bu erkinlikdan ham yovuz niyatli kishilar o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilib, yoshlarimiz ongiga o'z g'oyalarni singdirishga intilayotganliklari sir emas. Qolaversa, bugungi kunda axborat texnologiyalari orqali kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat" muammosi kabi yot illatlar o'z xatti-harakatini tanqidiy tahlil qila olmaydigan, xarakteri va dunyoqarashi mukammal shakllanib ulgurmagan, o'z harakatlarini nazorat qilishida beqarorlik hollari mavjud bo'lgan yosh avlodga ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Uchinchidan, har bir yosh yigit va qiz o'ziga xos turmush yo'lini bosib o'tib, ijtimoiy hayotga qadam qo'yadi. Bu paytda ularning har biri o'zicha yo'l tanlaydi.

Bu davrda yoshlar oldida turli-tuman orzu-istaklar, qiziqishlar, kasb tanlashga bo'lgan intilish, turli mazmundagi ijtimoiy ehtiyojlar, his-hayajonlar, sevgi, muhabbat,

do'stlik, birodarlik, hayot oqimida o'z o'rnini aniqlash uchun harakatlar bo'ladiki, bular to'g'ri dunyoqarashga, mukammal shakllangan milliy ongga ega bo'lishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, bugungi kunda jamiyat talablari asosida mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga g'amxo'rlik tobora kuchaymoqda. Yoshlarning jamiyat oldidagi burchlarini to'g'ri ado etishlari esa ulardan ijtimoiy faollik, madaniyatlilik, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyada mustahkam tura olishni, milliy g'oyaga sadoqatlilikni talab qilmoqda.

Bulardan ayon bo'ladiki, yoshlarning milliy ongini kamol toptirish – yuksak axloqiy sifatlarini yoshlar ongiga har tomonlama singdirish, ularning siyosiy-ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun komil inson qilib tarbiyalash davrimizning zaruriy talabi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada badiiy adabiyotning ham o'rni beqiyos.

U insonlarning dunyoqarashini, xatti-harakatlarini, ularning jamiyatdagi mavqei va o'rnini, ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. U insonning tafakkuri taraqqiyotida, manaviy olami kamolotida juda katta rol o'ynaydi. Badiiy adabiyotda xoh salbiy hodisalar, xoh ijobiy voqealar tasvirlanmasin, barchasi inson ongida hayotga, voqea-hodisalarga nisbatan munosabat uyg'otadi. Adabiyotning hayotiylik ildizi xuddi ana shu xususiyatlarga borib taqaladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, o'quv qurollari orasida adabiyot fani o'quvchilarda milliy ong va dunyoqarashni kamol toptirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan fanlardan hisoblanadi.

O'quvchilarni badiiy ijod durdonalari bilan tanishtirish barobarida unda tasvirlangan voqelik ta'sirida estetik qarashlar bilan bir qatorda dunyoqarashni va milliy ongni tarbiyalaydi. Chunki adabiy materiallarda aks ettirilgan ijtimoiy voqelik, asar qahramonlari xarakteridagi ijobiy xislatlar va vatanparvarlik, xalqparvarlik xususiyatlari o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlash bilan bir qatorda ularda milliy ongni ham kamol toptirishga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarda aks ettirilgan voqealarda xalqimizning boy tarixiy o'tmishi, madaniyati va o'ziga xos qadriyatlari, ma'naviyati aks etgan bo'lib, bu asarlarni o'rganish barobarida o'quvchilarda o'z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg'ularini kamol toptirish va faxr tuyg'ulari asosida o'zbekona insoniy fazilatlarini, xalqiga, vataniga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash mumkin. Xalqimizga xos har qanday ezgu amallarning badiiy tasviri shubhasiz o'quvchilarda o'zlikni anglash va shu tarzda milliy ongni tarbiyalash imkonini beradi.

Chuqur falsafiy va ijtimoiy mushohadalarga boy badiiy asarlar o'quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Chunki ulardagi voqelik shunchaki to'qimalar, uydirmalar emas, balki yuksak ma'naviyatga asoslangan voqelik, o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va qadriyatlar, badiiy asosda ask etganligi tufayli o'quvchini o'zligini tanishga undaydi. O'quvchi bunday asarlarni o'qib-o'rganish jarayonida voqealar va qahramonlarni tahlil hamda tadqiq qilar ekan, o'z xarakteriga ham tanqidiy yondashib, asar voqealariga yanada ongliroq munosabatda bo'ladi, ular orqali o'z-o'zini taftish etib yetarli xulosalar chiqarishga o'rganadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning milliy ongi bevosita badiiy asarlardagi voqelikni badiiy idrok etish jarayonida vujudga keladi. O'quvchi asarni badiiy idrok etishi uchun asar yuzasidan o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi lozim. “Mustaqil mulohaza yuritgan odam biror narsaga mehr qo'yadi, nimanidir inkor etadi va o'zida yaratishga, ijodga, kashf etishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj uni harakatga undaydi” – deydi Qunduzxon Husanboyeva. Bundan ayon bo'ladiki, adabiy asar yuzasidan har bir o'quvchi o'ziga xos xulosaga ega bo'ladi. O'quvchi badiiy asarlardagi voqealarni, qahramonlar xatti-

harakatini, kechinmalarini chuqur his etishlari uchun asarni o'rganish jarayonida badiiy tahlilni to'g'ri amalga oshirish lozim bo'ladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarini dars jarayonida asardagi voqealarni milliy mentalitetimizga mos jihatlarni aniqlatish, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan, jamiyatdagi kishilarning o'zaro aloqalaridagi, ong va dunyoqarashlaridagi xilma-xilliklarning oqibatlari yuzasidan savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarda musataqil fikrlarini tinglash barobarida milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni singdirish lozim. Bundan tashqari o'quvchilarning fikrlari tinglanib, asar ta'sirida to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, shubhasiz ularning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishiladi. Bunda o'qituvchi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridan quyidagicha savollar tuzishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) "O'tgan kunlar" romanida Yusufbek Hoji va uning o'g'li Otabek o'rtasidagi munosabatlarni qanday sharhlaysiz?

b) asarda tasvirlangan oilaviy munosabatlarning qaysi birlari o'zbek millati uchun qadri?

d) asarda Otabek va Kumushlarning muhabbatlari orqali o'zbek xalqi hayotining qaysi jihatlari ko'rsatilgan?

e) millat taqdiri bilan bog'liq voqealarni asardan aniqlab, sharhlashga harakat qiling.

Shubhasiz, bu savollarga o'quvchilar o'z qarashlari orqali javob berishga intiladi va ularda yuqorida aytib o'tganimizdek tanqidiy munosabat yuqori o'rinni egallab, bevosita o'zlarni ham tadqiq qiladilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning javoblarini tinglab ularning dunyoqarashlarini tahlil etish orqali milliy ongini shakllantirishga qaratilmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi. Adabiy materialning g'oyasi o'quvchilarda ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalarga nisbatan real qarashlarni shakllantirish bilan birga, ularning hozirgi zamonni va kelajakni ilmiy nuqtayi nazardan to'g'ri idrok qilishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, darsni innovatsion texnologiyalar asosida olib borish, darsda "Keys-stady" texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi. Badiiy asarni o'qituvchi ko'rsatmalariga tayangan holda emas, balki bevosita o'rtoqlari bilan bahs-munozaralar jarayonida tahlil qilish lozim. Shundagina o'quvchi o'z qarashlarini hayotiy-ijtimoiy voqealarga tayangan tarzda tahlil etadi va uning milliy ongi va dunyoqarashi ham shakllanib, kamol topa boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *"Universiada-2010" sport o'yinlari ishtirokchilariga*. "O'zbekiston ovozi", 2010-yil, 29-may.

2. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: "Ma'naviyat", 2008.

3. Jumaboyeva J. *Hozirgi o'zbek she'riyatining milliy o'ziga xosligi*. – T.: 1984. 170-bet.

4. Husanboyeva Q. *Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili*. – T.: 2002. – 10-bet.

Mashhura ISABAYEVA,
Qo'qon DPI o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOLOGIYA FANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif biologiya fanining mazmuni sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari asosida individual uslubni tarkib toptirishning pedagogik tadqiq etilishi haqida bir qator tavsiyalar bergan. Shuningdek, pedagoglarning tayyorgarligini oshirish maqsadida “Salomatlik” daftaridan foydalanish yo'llarini metodik ko'rsatma sifatida bayon etgan.

Kalit so'zlar. Biologiya ta'limi, pedagogik texnologiyalar, tadqiqot, integratsiyalashgan o'quv dasturi, sog'lom turmush tarzi.

В статье раскрывается проблема формирования у обучаемых навыков здорового образа жизни с помощью предмета биологии. Для решения этой проблемы автор предлагает включить необходимые факторы в тетрадь “Здоровья” а также, пути использования тетради в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова. Биология, тетрадь “Здоровья”, педагогическая технология, исследование, учебная программа, навыки, здоровый образ жизни.

In article the formation problem at trained skills of a healthy lifestyle by means of a biology subject reveals. For the solution of this problem the author suggests to include necessary factors in a writing-book of "Health" and also, ways of use of a writing-book in teaching and educational process.

Key words. Biology, notebook “Health”, educational technology, research, skills of a healthy way of life.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator qonunlar biologiya fanini o'qitishni yanada takomillashtirdi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanining asosiy vazifalari:

- o'quvchilarni asosiy biologik tushunchalar, yetakchi g'oyalar, ilmiy dalillar, qonunlar, organik olamning manzarasini shakllantirishga oid bilimlar bilan tanishtirish;
- tirik tabiat va uning taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan moslashish mexanizmlari haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni o'z salomatliklarini saqlashga, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish;
- biologiya ta'limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika taraqqiyoti bilan mustahkam bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;
- tabiatga, uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

– biologiya ta’limi mazmunini o’lkaga oid materiallar bilan boyitish, biologik bilimlar zaminida mahalliy o’simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz va hozirgi olimlarimizning biologiyaga oid tadqiqot ishlari bilan tanishtirish orqali o’quvchilarni milliy istiqlol g’oyalariга sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan barcha o’quv fanlari kabi biologiyani o’qitishda o’quvchilarda sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish jarayonini tizimga keltirishni taqozo etadi.

Biologiya o’quv fanining mazmunida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalari asosida individual uslubni tarkib toptirishning pedagogik tadqiq etilishi, o’quvchilarda turmush tarzi davomida o’z hayoti faoliyatini to’g’ri tahlil qilish va baholash ko’nikmasini shakllantirib borish hamda bu borada pedagoglarning tayyorgarligini oshirish maqsadida metodik ko’rsatmalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Biologiya fani turkumi botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, umumiy biologiya fanlaridan tashkil topgan bo’lib, fanga uzviylashtirilgan holda “Hayot xavfsizligi asoslari”, “Salomatlik darslari” kurslarining integratsiyalashtirilgan o’quv dasturi bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturda berilgan mavzularni integratsiyalashtirishda o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradigan qo’shimcha materiallar tanlash, biologik ta’lim jarayonida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini tarkib toptirish mazmuni, shakli, metod va vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ma’lumki, biologiya fani mazmuni gigiyenik tushunchalardan iborat. Ushbu tushunchalar asosida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini tarkib toptirish imkoniyati mavjud. Ya’ni o’qitishning barcha shakllarida dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg’ulotlarda hozirgi kunning dolzarb muammosiga aylanib borayotgan turli xil salbiy illatlar (giyohvandlik, ichkilikbozlik, tamaki chekish, kun tartibiga rioya qilmaslik, noo’rin jinsiy aloqalarning salbiy oqibatlarini) oldini olish choralari haqida to’xtalib o’tiladi.

Jumladan, o’qituvchi fanni o’qitish davomida dars maqsadini optimal tanlashi, umumiy biologik va xususiy tushunchalar bilan birgalikda sog’lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida qo’shimcha o’quv materiallarini saralash, saralangan o’quv materiali va topshiriqlarining mazmunini e’tiborga olgan holda pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars strukturasini aniqlash va ishlanmasini shakllantirishdan iborat. Darsda foydalanilgan pedagogik texnologiyalar asosida esa o’quvchilarning bilish faoliyati tashkil etiladi. O’quvchilarning o’zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishda topshiriq turlarini xilma-xillash-tirish, individual yondashishni amalga oshirish maqsadida “Salomatlik” daftari yuritilishini tavsiya etamiz. Ushbu daftar fan yuzasidan olgan bilimlarning qanchalik puxtaligini, hayot davomida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalariga muntazam rioya qilishni va o’z turmush tarzining biologik bilimlar asosida to’g’ri tashkil etish imkonini beradi.

“Salomatlik” daftariga boblar yuzasidan test topshiriqlari, salomatlikni saqlashga oid turli savollar, chizmalar, rasmlar, biologik diktant, qiziqarli masalalar va mavzuga oid qo’shimcha ma’lumotlar kiritilgan.

Quyida salomatlik daftaridagi “Ovqat hazm qilish” bobi yuzasidan tayyorlangan topshiriqlar namunasini keltirib o’tamiz.

Ovqat hazm qilish tizimi.

Bob yuzasidan o’quvchi bilishi kerak:

– ovqat hazm qilishning ahamiyati hazm qilish a’zolarining tuzilishi, vazifasi jigarning tuzilishi va vazifalari me’da ostki bezining tuzilishi, vazifalari ovqat hazm qilishning boshqarilishi.

O’quvchi bajara olishi kerak:

– ovqat hazm qilish a’zolari gigiyenasiga rioya qilish, sog’lom turmush tarzi omillariga hayot davomida amal qilish asosida me’da-ichak kasalliklarining oldini olish.

Biologik diktant.

Ovqat hazm qilish murakkab jarayon bo'lib, bunda ovqat va o'zgarishlar natijasida parchalanib, va bo'shlig'idan va tomirlariga so'riladi. Ovqatni parchalovchi uch guruhga bo'linadi.

1. Proteazalar –..... parchalovchi fermentlar.
2. Lipaza –..... parchalovchi fermentlar.
3. Karbogidrazalar –..... parchalovchi fermentlar.

Ovqat hazm qilish tizimi,,,,, va, hamda oshqozon ostki bezi va kabi organlardan tashkil topgan. Ovqat hazm qilish organlarining vazifasi va yo'l bilan boshqariladi.

(fiziologik, fizik, kimyoviy, mayda zarrachalarga, oshqozon, ichak, qon, limfa, fermentlar, oqsillarni, yog'larni, uglevodlarni, og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilo'ngach, me'da, o'n ikki barmoqli ichak, ingichka ichak, yo'g'on ichaklar, jigar, nerv, gumoral)

Jumlalarni davom ettiring.

1. Zararlangan tishlarni o'z vaqtida davolatmaslik _____
2. Yuqumli sariq(virusli gepatit) kasalligi _____
3. Tamaki va nos chekish – bu _____
4. Gastrit – bu _____
5. Salmonelloz – bu _____

Darslikdan mavzuni o'zlashtiring va quyidagi savollarga javob yozing.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etuvchi omillar

1. Shaxsiy gigiyena.
2. Kun tartibi.
3. Jismoniy tarbiya.
4. Toza havoda sayr qilish.
5. Spirtli ichimliklar ichmaslik va tamaki mahsulotlar chekmaslik.
6. Kiyinish gigieynasi.

Ovqat hazm qilish tizimining faol ishlashiga ta'sir etuvchi omillarni ajratib yozing:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, biologiya darslarining yuqorida qayd etilgan tarzda tashkil etilishi o'quvchilarni fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, mustaqil adabiyotlar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi Davlat ta'lim standarti. –T.: 1997.
2. Tolipova J.O. Biologiya ta'limi texnologiyalari. //Metodik qo'llanma//. “O'qituvchi” –T.: 2002. – 128-b.
3. Isabayeva M.M. “Salomatlik” daftari. –T.: “Tafakkur”. 2012.
4. Isabayeva M.M. Biologiyani o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”. 2012.

Gulnoz ERMATOVA,
Dilafruz SAFAROVA,
Navoiy DPI o'qituvchilari

AMIR TEMUR XARAKTERIDAGI IBRATLI JIHATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temurning psixologik qiyofasi, buyuk sarkarda haqida tadqiqotchilar olib borgan ishlar va ular natijasida aniqlangan fazilatlari aks ettirilgan. Shuningdek, Sohibqiron shaxsiga bag'ishlangan tarixiy asarlarning yaratilishi hamda Amir Temurning bugungi kun yoshlariga ibrat bo'ladigan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ilmiy tadqiqot, Amir Temur, sarkarda, xarakter, psixologik qiyofa, fazilatlar, vaziyat, munosabat.

В статье раскрывается психологический облик великого Амира Темура. Автор подчеркивает историческую значимость наследия великого правителя Сахибкирана, приводятся высказывания Амира Темура по поводу значимости волевых качеств в формировании личности.

Ключевые слова. Научное исследование, Амир Темур, психологический облик, формирование, волевые качества.

The article deals with the mental image of the great Amir Temur. The author stresses the historic importance of the heritage of the great ruler of Amir Timur, Tamerlane's remarks are about the value of strong-willed qualities in shaping personality.

Key words. The quality of characters, situation, regulation, steadfastness, patience, responsibility, broad shoulders, strong, experienced.

Mana sakkiz asrdirki, Amir Temurning shon-shuhrati, hayoti va faoliyatiga jahonning turli mamlakatlarida qiziqish ortib bormoqda. U zotning qanday tarixiy va oilaviy sharoitda yashagani, yuksak cho'qqilarni zabt etgani, harbiy yurishlarda ko'plab muvaffaqiyatga erishgani, davlat tuzishda esa o'ziga xos boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgani, uning nafaqat davlat arbobi, yengilmas sarkarda va ilm-fan homiysi ekanligi bizga juda ko'p ilmiy va badiiy asarlardan ma'lumdir.

Masalan, ingliz dramaturgi Kristofor Marlouning 1588-yilda yozilgan tarixiy pyesasi, nemis kompozitori Georg Gendelning 1724-yilda yozilgan operasi, amerikalik yozuvchi Edgar Poning 1827-yilda yaratgan she'riy poemasi, fransuz olimi Lyus'en Kerenning 2006-yilda ona tilida nashr qilingan "Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat" nomli fundamental tadqiqoti, Alisher Navoiy, Ibn Arabshoh, Klavixo, G'iyosiddin Jamshid Koshoniylarning asarlari fikrimizning dalilidir.

Hozirgi kunda chop etilayotgan bir qancha ilmiy asarlar va ilmiy tadqiqotlarda sohibqironning shaxs sifatidagi fazilatlari, ichki dunyosi haqida ham ba'zi ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asarida sohibqironning insoniy qiyofasi haqida "qaddi baland, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u

qadimiy pahlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamolga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'gon ovozli edi. U o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi jiz (qalin) yosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi, ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi, u bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi”, degan fikrlarni bildirgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, Temur jismonan sog'lom, kelishgan qomatli, tog'ni ursa talqon qilgudek kuchga ega bo'lgan, yurganda qadamidan yer titragan, so'zlaganda so'zlaridan o't chaqnagan, yuzlaridan nur yog'ilgan, og'ir, bosiq, jiddiy, erishgan yutuqlaridan havolanmaydigan inson bo'lgan. Bu fikrlar sohibqironning kuchli psixologik xarakter egasi ekanligidan darak beradi.

Temur bobomizning bolalik va o'smirlik yillari jang, kurash va ov maydonlarida o'tgan. O'sha vaqtdagi siyosiy vaziyat va muhit yosh Temurni metin irodali va o'z so'zidan qaytmaydigan qilib tarbiyalagan. “Bolalikdan kurash, ov hadisini olgan Amir Temur, akademik V.V.Bartol'd aytganidek, jangovorlik ruhida tarbiyalangan edi. Oriyatni qo'ldan berish uning uchun o'lim bilan barobar edi”.

Xo'sh, xarakter o'zi nima va sohibqiron xarakteridagi ibratli tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?

Bizga ma'lumki, inson xakteri muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topadi va uning barcha faoliyatlarida, tevarak-atrofga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Xarakter xislatlari shaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Bu xislatlar insonda tasodifiy yoki o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki inson xulqidagi doimiy, barqaror xususiyatlar bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'zigagina xos bo'ladi.

Psixologiyada inson xakteri tarkib topishining muhim omili vaziyat (situatsiya) yetakchi rol o'ynashi va regulyatorlik (boshqaruvchilik) vazifasini bajaradi.

Psixolog E.G'oziyev shaxsning munosabatlarda aks etuvchi xarakter xislatlarini to'rtta tizimga ajratgan:

1. Jamoaga va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar.
2. Mehnatga nisbatan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar.
3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar.
4. Shaxsning o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xislatlar.

Yuqorida qayd etilgan xislatlarning barchasi sohibqiron Temurda mujassam ekanligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

1. Saltanatni adolat va insof bilan boshqargan. Insonlarga yaxshilik qilgan. O'zi bu haqda shunday degan: “Tangrim yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chqardim... Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim”. Bundan tashqari xalqning ahvolidan boxabar bo'lib, yoshi ulug' insonlarni og'a, kichiklarini farzand o'rnida ko'rgan. Barcha mamlakat aholisining kayfiyati, turmushi, qiladigan ishlaridan xabardor qilish uchun diyonatli insonlarni tayinlagan. Turli millat va qabila ulug'lariga hurmat ko'rsatib, yaxshiliklariga yaxshilik qilgan, kimki do'stlik qilsa qadrlagan, kimki xizmatini qilsa, uning xizmat haqqini ado etgan, agarda dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, huzuriga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatgan.

2. Tajribali, tadbirkor, hushyor, mard, shijoatli kishilarning mehnatlariga yarasha martaba va unvonlar bilan rag'batlantirgan. Ularning moddiy ahvollarini yaxshilagan, tadbirlarda munosib o'rin bergan. Ularning og'irlarini yengillashtirish uchun mehnat mashaqqatlarini o'z zimmasiga olgan va ularni shu zaylda tarbiyalagan. Eng yaqin navkarlaridan uch yuz kishiga amirlik mansabini bergan, chunki ular asli toza, aql-zakovatli, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, ishni oldi-orqasini o'ylaydigan kishilar bo'lgan. Shu bilan birga, har bir ishga mas'uliyat va vijdon bilan yondashgan va boshqa insonlardan ham shuni talab qilgan.

3. Sohibqiron mamlakatda tartib o'rnatish bilan birga obodonlashtirish ishlariga ham katta e'tibor qaratgan. Sahroni obod qilgan yoki bog' ko'kartirgan, xaroba yerlarni obod qilgan kishilardan birinchi yili soliq olmagan, ikkinchi yili, o'z roziligi bilan bersa, uchinchi yili qonunga binoan soliq olingan. Xaroba yerlarning egasi qurbi yetmasa, unga kerakli asbob va uskunalar berilgan. Ariq va daryolar ustiga ko'priklar qurdirgan. Yo'l bo'yida dam olish maskanlari barpo ettirgan. Yo'llarga soqchi va kuzatuvchilar qo'ydirgan va ular yo'llarni nazorat qilgan. Bundan tashqari har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa va kasalxonalar qurdirib, tabiblar tayinlagan va qozixonalar qurdirib aholi huquqini, tinchligini himoya qilishlarini talab etgan.

4. Amir Temur har bir qilayotgan va qilgan ishlarini muhokama qilgan va o'z-o'zini nazorat qilgan. Masalan, har bir ishni xatoga yo'l qo'ymaslik uchun ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilgan. Bugungi ishni ertaga qoldirmagan. Yumshoqlik lozim bo'lsa muloyimlik, qattiqqo'lik ishlatish kerak bo'lsa qat'iy choralar ko'rgan. Shoshmaslik kerak yerda shoshilmagan, shoshilinch ishlarni kechiktirmagan. Imkon qadar qilich ishlatmasdan ishlarni amalga oshirgan.

Bizga ma'lumki, shaxs xarakteri yaxlit va bus-butun mutlaq emas, albatta, insonning asosiy munosabatlaridan biri boshqa barcha munosabatlarni to'la belgilay olgandagina xarakter mutlaq kasb etadi.

Amir Temurning turli faoliyatlarda: harbiy yurushlarda, davlat boshqaruvida insonlar bilan munosabatlarda, mehnatga nisbatan, shaxs sifatida o'ziga nisbatan munosabatlarida undagi qat'iylik, o'zini tuta bilish, dadillik, matonat-chidam, sabr-toqat, tashabbuskorlik, tanqidiy ko'z bilan qarash, mas'uliyatni his qilish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, qadr-qimmat, kamtarlik kabi xislatlari bilan tanishar ekanmiz, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Prezidentimizning "Ulug' ajdodimiz, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi", degan fikrlarini keltirib o'tish joiz.

O'ylaymizki, sohibqironning bebaho insoniy fazilatlarini, aql-idrok, zakovat, odamiylik, insof, adolat, halollik, mehr-muhabbat kabi insoniy xislatlari bugungi yoshlar uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: "O'zbekiston", 2008.
2. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. *O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Bo'riboy Axmedov ilmiy tahriri ostida*. – T.: "O'qituvchi", 1996.
3. G'oziyev E. *Umumiy psixologiya*. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010.
4. Salohiddin Toshkandiy. *Temurnoma*. – T.: "Cho'lpon", 1991.

Otabek IRGASHEV,
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

O'QUVCHI-YOSHLARNING ONGIGA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SINGDIRISH ORQALI ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy hamda zamonaviy tarbiya metodlaridan foydalanishning samarali natijalariga oid ilmiy-metodik tavsiyalar keltirilgan. Muallif fikricha, milliy hamda zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarda mustaqil dunyoqarash, milliy o'zlikni anglash va bunyodkorlik fazilatlarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar. Vatanparvarlik, jamiyat taraqqiyoti, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy meros, milliy urf-odatlar, zamonaviy ta'lim.

В статье рассматриваются современные методы воспитания, приведены автором научно-методические рекомендации по внедрению в сознание молодёжи идей национальной независимости, воспитание у них духовно-нравственных, патриотических качеств. По мнению автора, главной идеей национальной идеологии исходит из основополагающей цели независимого развития нашей страны и своей сущностью и содержанием, идейной привлекательности способствуют глубокому проникновению в сознание молодёжи.

Ключевые слова. Патриотические чувства, устное народное творчество, духовное наследие, национальные обычаи, современное воспитание.

The article describes modern methods, education, provides scientific and methodical recommendations on introducing in consciousness of the youth ideas of national independence, teaching them moral, patriotic qualities. According to the author, the main idea of the national ideology stems from the fundamental purpose of the independent development of our country and its essence and content, ideological appeal provide deep penetration into the consciousness of the youth.


Key words. Patriotic feelings, folklore, spiritual heritage, national traditions, modern education.

Mamlakatimiz yoshlarining barkamol, ijodiy va intellektual salohiyatga ega, har tomonlama rivojlangan shaxs, huquqiy savodxon, ma'nan va jismonan sog'lom, ziyoli, madaniyatli va XXI asrga mos kadrlar qilib tarbiyalash davlat siyosatida ustivor vazifalardan biri etib belgilandi.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Bu vazifa, eng avvalo, pedagog va tarbiyachilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Har bir o'quvchini Vatanga sodiq farzandlik mas'uliyatini sezib yashashga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga o'rgatib borish vazifasini o'qituvchilar sidqidildan bajarib kelmoqda. Mustaqillikning ilk yillarida Yurtboshimiz tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini yanada chuqurlashtirish, uni milliy tarix, an'analar, urf-odatlar, milliy mafkura bilan boyitishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ma'lumki, tarbiya ma'lum bir shaxs yoki xalqning jamiyatda komil inson bo'lib shakllanishi uchun zarur bo'lgan milliy mafkura, milliy g'urur, milliy ong kabilarni o'stiruvchi jarayondir.



Milliy tarbiyani shakllantirishda quyidagilar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi:



Bugungi kunda tarbiyani o'quvchilar ongida shakllantirishning asosiy maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zligini anglashning mentalitetimizdan kelib chiqqan holda amalga oshirish, o'quvchilarning o'sib-ulg'ayib voyaga yetishida xulqi, fe'l-atvori, ilmi va madaniyatli bo'lishiga, ya'ni barkamol avlod sifatida tarbiya topishida

har bir o'qituvchi-murabbiyning ijodiy-ongli faoliyati, shaxsiy o'rnak ko'rsata olishi muhim omil ekanligini his etishdir. Shuningdek, mustaqil davlatimizning faol a'zosi bo'lish va unda o'z o'rnini topa bilishga ongli ravishda erishishni anglab yetish;

– o'z faoliyati davomida mas'uliyatli va javobgarlikni his qilib borish lozim; rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviyatli va yuqori axloqiy talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli kadrlar bo'lib tarkib topishni anglab yetish kabilar.

Mutafakkir va allomalar aytib o'tgan pand-nasihatlar “tarbiyaning qaymog'i”, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bobokalonimiz Alisher Navoiyning “Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur”, “Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim” kabi o'gitlari bizlarga ibrat, namuna maktabidir.

Milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz azal-azaldan o'zbek xalqiga xos bo'lgan xarakterni shakllantirib boradi: “Kattalar oldida vazmin bo'lish”, “Kichiklar birinchi salom berishi”, “Kamtarlik”, “Xushxulqlik”, “Bemor kishilar holidan xabar olish”, “Diniy bag'rikenglik”, “O'zga millat vakillariga hurmat bilan qarash”, “Ochiq ko'ngillilik”, “Mehnatsevarlik”, “Mehmondo'stlik” kabi fazilatlar qadimdan o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarida o'z aksini topgan.

Vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlar milliy qadriyatimizga hurmat ruhida tarbiya topsalar, xalqimiz kelajagi ham porloq bo'ladi. Bu esa bugungi kun tarbiyachisiyu o'qituvchi, ustozu murabbiylar oldiga bir qancha vazifalarni qo'ymoqda.

Bugungi zamon pedagogikasi shuni talab etmoqdaki, bola jamiyatda erkin shaxs sifatida kamol topishi uchun uni ilmiy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmay, boy ma'naviy merosimizga bo'lgan ehtiyojini to'la shakllantirishimiz kerak. Sharq pedagogikasi bu borada ko'plab manbalarga tayanadi. Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoni” asarlari noyob durdonalar sanaladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda ta'lim va tarbiya berish jarayoni ancha ilgari takomillashgan va bu bugungi zamonaviy pedagogika uchun tarixiy asos bo'la oladi. Bola yosh xususiyatini hisobga olgan holda mashg'ulotlardan tashqari qo'shimcha ta'lim va tarbiyaga yo'naltirilgan jarayonlarni olib borishimiz o'rinlidir.

Ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari doimiy faoliyat yuritadi. Biz bolaning tarbiya jarayonini davom ettirish uchun axborot-resurs markazlari bilan muntazam aloqa o'rnatib, bolaning kun tartibida buning uchun alohida vaqt ajratishni doimiy nazoratda tutishimiz kerak.

Zamonaviy ta'lim tizimini kompyuter vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan bu jarayonni ma'lum bir tizimga solib dars va undan keyingi faoliyat davomida o'quvchi kompyuter vositalaridan kerakli ma'lumotlarni olishi uchun zarur sharoit yaratib berishimiz va bunda bilim saviyasini oshirib borishi uchun tushuncha hosil qilishimiz kerak. Kompyuter vositalarida mujassamlashgan dasturlar milliy va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holatda bo'lishi hamda uni o'quvchining salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib ularga o'rgatib borishimiz lozim.

Tarbiya shaxs hayotida murakkab jarayon bo'lib, u har tomonlama to'g'ri olib borilgandagina yaxshi samara beradi. Ma'lumki, tarbiyaning maqsadi jamiyatning, davlatning har bir a'zosini komillikka yetaklaydi. Bundan kutilgan natija kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida tarbiyaning shakllanishida ilg'or g'oyalarning har bir o'quvchi tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishga yordamlashishdan iborat.

O'quvchi quyidagi vazifalarni bajarishning faol ishtirokchisi bo'lib yetishadi:

- mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish jarayonida;
- milliy o'zlikni anglash borasidagi faoliyatda;
- milliy qadriyatlar va urf-odatlarini chuqur o'rganish hamda ularni rivojlantirishda;
- o'quvchilar ongida "O'zbekiston – yagona Vatan" tuyg'usini shakllantirishda;
- milliy tarbiyamizga xos bunyodkor fazilatlarni shakllantirishda milliy iftixor va g'ururni tarbiyalashda.

Mazkur tarbiya tizimi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilm o'rganishga, mehnatga layoqatli bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishga undaydi. Milliy tarbiya jarayoniga tizimli yondashishdan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilari ongidagi bo'shliqni to'ldirish va ularni Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, o'zbek xalq dostonlari ham milliy tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina "Alpomish" dostoni qadimgi turkiy xalqlar orasida o'zbek elining alohida jihatlarini yoritib bera olgan. Unda mardlik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar ulug'langan. Doston qahramonlari va voqealarning rivoji to'g'risida kichik maktab yoshidagi o'quvchilari o'rtasida suhbatlar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil qilish ijobiy samara beribgina qolmay, ularda tarixga bo'lgan hurmat, milliylikni qadrlash tuyg'ularini uyg'otadi. Ushbu dostonni to'liq o'rganish hozirgi yosh avlodning vazifasidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma'naviy merosimizning go'zal an'analari milliy tarbiyamizning qudratli omilidir. Shunday ekan, o'quvchilarni buyuk ajdodlarning munosib vorislari bo'lib yetishishga chorlash, Vatanimiz taraqqiyotiga yuksalishiga hissa qo'shish, erk va mustaqillik haqidagi dunyoqarashlarini mukammallashtirib, mustaqil va erkin tafakkur qilishni shakllashtirish zarur. Milliy tarbiya xalqimizning yangi hayot qurish yo'lidagi ezgu maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi. Shu bois mamlakatimizda milliy tarbiya tizimini yoshlar ongiga singdirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini zamon talablari darajasida olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ta'lim jarayonining har bir bosqichida milliy tarbiyaning turli variantlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. *Jamiyatimiz mafkurasi millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat etsin.* – T.: "O'zbekiston", 1998.
3. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1997.

Xurshida RIXSIBOYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

CHIZMACHILIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada muallif chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini bitta fan sifatida integratsiyalash asosida o'qitish mumkinligini bayon qilgan. Shuningdek, muallif tomonidan chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarining namunaviy dasturidagi mavzulari tahlil qilinib, “Chizmachilik va kompyuter grafikasi” o'quv fanining namunaviy dasturi integratsiyalash asosida ishlab chiqilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Chizmachilik, kompyuter grafikasi, integratsiya, o'quv fanlar, modul-model, loyihalash.

В статье раскрываются возможности обучения предмета «Черчение» и «Компьютерная графика» как единый предмет. Пути создания единого предмета «Черчение и компьютерная графика» на основе междисциплинарной интеграции. Также автор описывает последовательность и содержание тем типовой программы предмета «Черчение и компьютерная графика».

Ключевые слова. Черчение, компьютерная графика, интеграция, учебные предметы, модуль, чертеж, модель, проектирование тем.

This article deals with the possibility of learning the subject "technical drawing" and "computer graphics" as a single object. Towards a single subject "technical drawing and computer graphics based on interdisciplinary integration. The author describes the sequence and content of the model programme of technical drawing and computer graphics".

Key words. Drawing, computer graphics, integration, subjects, drawing, model, design.

Ma'lumki, jamiyatda fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasi qadim-qadimdan mutanosib bo'lib rivojlanib kelgan. Bu o'z navbatida, ta'lim sohasida ham o'z aksini topib keladi.

Insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarni bir tizimga yaxlitlash-integratsiyalash asosida turli fanlar paydo bo'lgan. Insoniyat taraqqiyotidan ma'lumki, avval falsafa fani shakllangan va undan integratsiyalashgan hamda differensiatsiyalashgan holda tabiiy hamda gumanitar fanlar – matematika, fizika, himyo, tarix va biologiya kabi fanlar ajralib chiqqan. Asrlar osha bu fanlarga ijtimoiy ehtiyoj sababli yangidan yangi fanlar qo'shilib kelmoqda.

Bunga misol qilib hozirgi zamon axborot va kompyuter texnologiyalariga oid informatika, dasturlash matematikasi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, hisoblash kompyuter grafikasi va muhandislik kompyuter grafikasi kabi fanlarni ko'r-

satish mumkin. Bu fanlarni o'qitishni ularga turdosh bo'lgan matematika va chizmachilik o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan. Shu bois, muhandislik kompyuter grafikasi va kompyuter grafikasi fanlarini asosan, AutoCAD dasturi asosida chizmachilik o'qituvchilari alohida fan sifatida o'qitib kelishadi.

Endi integratsiya so'zi haqida to'xtalib o'tsak. Fikrimizcha, **integratsiya** deganda bir-biriga uzviy bog'langan turdosh yoki noturdosh tarkibiy obyektlarning yangi mazmun va shaklda ishlab chiqilgan yaxlit **bir butun tizimga** keltirish tushuniladi. Integratsiyalashuvchi tarkibiy obyektlarning turiga ko'ra u quyidagilarga bo'linadi:

- tarkibiy obyektlar mamlakatlar bo'lsa – mamlakatlar integratsiyasi;
- tarkibiy obyekt mamlakatlarning sanoat ishlab chiqarishi bo'lsa – mamlakatlararo sanoat ishlab chiqarish integratsiyasi;
- tarkibiy obyekt mamlakatlarning fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari hamkorligi bo'lsa – mamlakatlararo fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari hamkorlik integratsiyasi;
- tarkibiy obyekt mamlakatlarning mudofaa hamkorligi bo'lsa – mamlakatlararo mudofaa hamkorlik integratsiyasi;
- tarkibiy obyektlar fan bo'lsa – fanlar integratsiyasi;
- tarkibiy obyekt fan bo'lsa – fan bo'limlarining yoki modullarining integratsiyasi.

Bundan 15-20 yil ilgari chizmachilik fani bo'yicha respublikamizning yetakchi mutaxassislari chizmachilik fanini kompyuterdan foydalanib, ya'ni uni kompyuter grafikasi fani bilan integratsiyalashgan holda o'qitish masalasiga ijobiy fikr bildirishmagan. Shu bois, respublikamizda ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida axborot va kompyuter texnologiyalaridan umumli foydalanishni rivojlangan mamlakatlarga nisbatan talab darajasida, deb bo'lmaydi.

Oxirgi yillarda bu fanlarni integratsiyalash asosida o'qitish g'oyasi ilgari surilib, uni chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitishning dolzarb masalalaridan biri, deb hisoblab kelishadi.

Agar bu ilmiy faraz amalga oshirilsa, chizmachilikda bajariladigan barcha tasvirlar, grafik vazifalarning chizmalari, ON va YN ishlari bevosita kompyuterda bajarilib qog'ozga chop etiladi. Natijada, bunday chizmalarda (AutoCAD dasturining avtomatlashtirilgan imkoniyatlari tufayli) quyidagilarga erishiladi:

1. Chizmalar, parallellik va perpendikulyarlik amallari aniq bajariladi.
2. Chiziq va ularning turlari hamda yo'g'onliklari barcha tasvirlarda aynan turlari bo'yicha bir xil bo'ladi.
3. Barcha yozuv shriftlari, o'lcham strelkalari, kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash chiziqlari oralig'i bir xil bo'ladi hamda ularning o'lchamlari va yo'nalishlari osongina o'zgartiriladi.
4. Tasvirdagi chiziq va berk yuzalarni turli ranglarda tasvirlanadi yoki ranglari osongina o'zgartiriladi.
5. Tasvirdagi barcha turdagi o'zgartirish va tuzatishlar, ya'ni chizmani tahrir qilish osonlashadi va boshqalar.

Chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini integratsiyalash asosida o'qitish mumkinligi to'g'risida olib borilgan nazariy izlanishlarimiz natijasida "Chizmachilik va kompyuter grafikasi" o'quv fanining namunaviy va fan ishchi dasturlari hamda ular asosida taqvimiy va ishchi rejalar ishlab chiqildi hamda loyihalandi.

2012 – 2013-o'quv yilida KTFning KGD-101 va KGD-102 guruhlarida olib borilgan o'quv jarayonida mashg'ulotlar turiga binoan nazariy loyihalangan mavzular ketma-ketligi yana bir bor tajriba-sinovdan o'tkazilib tuzatishlar kiritildi.

Chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini integratsiyalash asosida ma’ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg’ulotlari quyidagicha olib borildi:

– 1-mashg’ulotda fanlarni integratsiyalash ta’lim va tarbiyada o’qitish sifati va samaradorligini oshiruvchi omil ekanligi hamda chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini o’qitishning hozirgi ahvoli bayon qilinadi;


– 2–17-mashg’ulotlarda chizmalarni tuzish bo’yicha davlat standartlarida belgilangan, geometrik, proyeksion va mashinasozlik (birikmalar, buyumlarning yig’ish chizmasi, yig’ish chizmalarini detallarga ajratish) chizmachiliklariga oid bilimlar hamda AutoCAD dasturidan foydalanib chizmaning tarkibiy qismlari – primitivlarini – nuqta, kesma, aylana, aylana yoyi, to’rtburchak, ko’pburchak, ko’p chiziq, egri chiziq, ellips kabilarni kompyuter ekranida ikki-2D va uch-3D o’lchamda nazariy va amaliy tasvirlashga, modellashga o’rgatiladi. Bunda, 10-mashg’ulotdan boshlab, ya’ni kompyuterda aylana chizish buyrug’ini o’rganib bo’lgach, 1-laboratoriya ishiga “tarkibida tutashma elementlari bo’lgan” yassi detallarning modelini yasash vazifasi tarqatiladi va uning tasviri bajariladi (1- rasm).

Model deb kompyuter ekranida bajarilgan chizma primitivlari va obyektning chizmasiga aytiladi. Chunki kompyuter ekranida chizma primitivlarining tasviri, ularni tahrir qilish, ya’ni qo’shish, ayirish, ko’paytirish, uzaytirish, o’chirish, simmetrik yasashlar, surish, burish, uzish, masshtabini o’zgartirish va yuzalarni shtrixlash kabi grafik amallar tayyor buyruqlar paketidagi matematik modul-tenglamalar hamda ularning birgalikdagi yechimlari asosida bajariladi. Shuning uchun bunday tasvirlarga chizma primitivlari va obyektning **modellari**, deb ataladi.


Chizma – obyektning qo’lda qog’ozga bajarilgan bir yoki o’zaro proyeksion bog’lanishda undan ko’p ko’rinishlardan iborat, obyektning aslidagidek uch o’lchamda ongimizda to’liq tiklash xususiyatiga ega bo’lgan tasvirlariga aytiladi.

– 18–19-mashg’ulotlarda chizma primitivlari va buyumlarni ikki hamda uch tekislikka proyeksiyalash – ko’rinishlarini yasash bayon qilinadi. 2-laboratoriya ishi “tarkibida aylanani teng bo’laklarga bo’lish qatnashgan” detal chizmasi massiv - ko’paytirish buyrug’idan foydalanib bajariladi;

– 20 – 23-mashg’ulotlarda qo’lda va kompyuterda chizma primitivlari va buyumlarni yaqqol tasvirlash bayon qilinib, 1-laboratoriya ishida ikki o’lchamda bajarilgan detallarning yaqqol tasvirlari-izometriyasi yasaladi (2-rasm);



1-rasm.




2-rasm.

– 24 – 26-mashg'ulotlarda detallarning berilgan ikki ko'rinishi asosida uchinchisini qurish, ularning eskizi va texnik rasmini avval qo'lda, so'ngra kompyuterda bajarish bayon qilinadi. 3-laboratoriya "detalning ikki ko'rinishi bo'yicha chapdan ko'rinishini yasash" vazifasi texnik rasmi bilan bajariladi;

– 27 – 30-mashg'ulotlarda mashinasozlik buyumlari va ularning turlari, birikmalar va ularning turlari, vint chiziq va sirtlar, rezbalar va ularning turlari, rezbalarni chizmada tasvirlash va belgilash, boltli va shpilkali birikmalar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. 4-laboratoriya "boltli va shpilkali birikma" ishi bajariladi;

– 31 – 32-mashg'ulotlarda buyumlarning yig'ish chizmasini o'qish, ularni detallarga ajratish tartibi va qoidasi, ishchi chizmalarga qo'yilgan talablar va 3-4 detalning ishchi chizmasini hamda o'rta murakkablikdagi bitta detalning yaqqol tasvirini bajarish tushuntiriladi. 3-4 detalning ishchi chizmasi va bittasining yaqqol tasviridan iborat bo'lgan 7-laboratoriya ishi bajariladi (3-rasm).



3-rasm.

Laboratoriya ishiga "Prujinali oboyma" uskunasi stakan, korpus, vilka va shtok kabi detallarining ishchi xomaki chizmani qo'lda, so'ngra modelini kompyuterda bajarish vazifa qilib berilgan. 37 – 38-mashg'ulotlarda o'lchamlari ixtiyoriy bo'lgan bir xonali uychaning planini loyihalash, uning yaqqol tasvirini qurish va ekrandagi tasvirlarni qog'ozga chop etilishi bayon qilinadi. 8-laboratoriya ishi qilib, bir xonali uychaning plani tuziladi va uning yaqqol tasviri quriladi.

Shunday qilib, bizning ilmiy farazimiz asosida olib borgan tadqiqotlarimiz va o'tkazgan tajriba sinovlarimiz natijasida chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarining mavzularini integratsiyalash asosida ilmiy-metodik va mantiqiy ketma-ketlikda loyi-

halab, bu fanlarni yagona “Chizmachilik va kompyuter grafikasi” fani sifatida OTM talabalariga o'qitilishi mumkinligi ko'rsatildi.

Bunda ba'zi chizmachilik mutaxassislarini “chizmachilikda kompyuter yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan texnik chizish vositasi, u inson kabi o'z-o'zidan chiza olmaydi” yoki “talabalar qo'lda chizmay qo'ysa, fazoviy tafakkurlari oshmaydi”, degan fikrlari noo'rin ekanligini ko'rish mumkin.

Chunki tajriba-sinov o'tkazilgan guruhlarda avval talabalar har bir vazifani olib, u bilan tanishib va vazifani anglab yetib, uning xomaki yechimini qo'lda qog'ozga bajarishdi. So'ngra qog'ozdagi vazifaning xomaki yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilgach, ya'ni uni o'qituvchiga ko'rsatib kamchiliklarini tuzatgach, talabalar vazifalarni kompyuter ekranida bajardilar.

Shuningdek, “Chizmachilik va kompyuter grafikasi” fanini integratsiyalash asosida talabalarga o'qitish, vaqt resurslarini tejash bilan bir qatorda, ularning fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, hamda kompyuterda 3D formatda bajarilgan tasvirlar o'qitishning didaktik tamoyillaridan asosiysi bo'lgan ko'rsatmalilikni yuqori darajada ta'minlay oladi. Bu, o'z navbatida, talabalarning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik tajriba sinov natijalarining tahlili ilmiy farazning to'g'riligini, ya'ni, kompyuter va axborot texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish, chizmachilik va kompyuter grafikasi fanini integratsiyalash asosida o'qitishda “talabalar bu fanni o'zlashtirishlari qiyin kechsakerak”, degan taxminlarni noo'rin ekanligini, aksincha, yaxshi va a'lo baholarni salmog'ini ortishi va talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash va mustaqil ijodiy izlanishlar olib borish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishi amalda tasdiqlandi. Shu bois, chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan dasturdan barcha texnik kasb-hunar kollejlarda, oliy va pedagogik o'quv yurtlari o'quv jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Avazbayev A. O'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. Nom. diss, TDP, 2001.
3. Kirgizboyev Y. va boshqalar. “Texnik chizmachilik kursi”, – T.: “O'qituvchi”, 1987. – 280 – 300-b.
4. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi, –T., 2006.
5. “Chizmachilik va kompyuter grafikasi” o'quv majmua, TDP, 2012.

Shavkat DJUMANIYAZOV,

TDIU katta o'qituvchisi

IQTISODIY FANLARNI MATEMATIK MISOLLAR ORQALI O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy fanlarning dars mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarni matematik formulalar orqali tahlil qilish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif dars jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Iqtisod, pedagogik texnologiyalar, iqtisodiy jarayon, matematik formulalar, samaradorlik.

В статье приведены методы использования передовых педагогических технологий и пути анализа экономических процессов и событий с помощью математических формул при проведении и организации учебных занятий по экономическим дисциплинам в высших учебных заведениях. Также, даны предложения и рекомендации по повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова. Экономические дисциплины, педагогические технологии, экономический процесс, математические формулы, эффективность.

The article shows the methods of using advanced pedagogical technologies for organizing and providing lessons with mathematical formulas to analyze the economic cases and processes in the economical field of higher educational institutions. Also, article gives some suggestions and recommendations to increase the efficiency of lessons.

Key words. Economic disciplines, educational technology, economic process, mathematical formulas, efficiency.

Oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy dars mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish va ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarni matematik formulalar orqali tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish jarayoniga oid shunday savol tug'ilishi mumkin: ma'ruzalarda, seminarlarda qaysi talabani mo'ljallash kerak, kuchlinimi, o'rta holnimi yoki kuchsiznimi? Bu savolga javob berish uchun har qanday ma'ruza ikki jihatga – mazmun va shaklga egaligini hisobga olish kerak.

Mazmuniga ko'ra ma'ruza yuqori nazariy saviyada o'tkazilishi va barcha uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ommaviylik shaklan tarqalishi mumkin, ammo mazmunan emas. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ba'zi o'qituvchilarni dars o'tish va ma'ruza o'qish mahorati juda murakkab, buning sababi esa, ma'ruzaning alohida ilmiy darajaligida emas, balki didaktika qoidalariga rioya qilmasligi uni tuzishda qat'iy mantiqning yo'qligi, murakkab so'zlarning ishlatilishi, o'rinli tanlangan misollar keltira olmaganligidadir.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning asosini olingan axborotlarni eslab qolish emas, balki uni tushuntirish, mazmunini anglash tajribada tahlil qilishga o'rgatishdir. Muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish talabalarni o'ylashga majbur qiladi. O'qitishda ma'lum asosli

qiyinchiliklarni tug'dirish esa ularni harakatchan qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib iqtisodiy hodisa va jarayonlarni matematik formulalar orqali tahlil qilishga harakat qilamiz.

Hosila tushunchasidan iqtisodiyotda keng foydalaniladi. Hosila yordamida iqtisodiy jarayonlarni tekshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiya elastikligi tushunchasi kiritiladi. Elastiklik bir o'zgaruvchan kattalikning boshqa o'zgaruvchi o'zgarishiga ta'sirchanlik o'lchovidir, aniqroq qilib aytganda:

Talabning (taklifning) narx bo'yicha elastikligi – mahsulot narxining 1% o'zgarishida unga bo'lgan talab (taklif)ning qay darajada o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatgich. Faraz qilaylik $y=f(x)$ differensiallanuvchi funksiya berilgan bo'lsin.

$$\text{funksiyaning nisbiy o'zgarishi } \sigma_y = \frac{f(x_2) - f(x_1)}{f(x_1)} = \frac{\Delta y}{y_1}$$

$$\text{argumentning nisbiy o'zgarishi } \sigma_x = \frac{x_2 - x_1}{x_1} = \frac{\Delta x}{x}$$

Funksiyaning nisbiy o'zgarishini argumentning nisbiy o'zgarishiga nisbatini aniqlaymiz:

$$\frac{\partial y}{\partial x} = \frac{y_1}{\frac{\Delta x}{x}} = \frac{\Delta y}{\Delta x} \times \frac{x}{y_1}.$$

Argumentning cheksiz kichik qiymatlari uchun limitni hisoblaymiz: $\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} \times \frac{x}{y_1}.$

Agar u mavjud bo'lsa, o'sha limit $y=f(x)$ funksiyaning elastikligi deyiladi va $E_x(y) = \frac{x}{y} \times y$ kabi belgilanadi. $E_x(y) = x \times T_y$, bu yerda $T_y(x) = (\ln y)' = \frac{1}{y} \times y_x$ funksiyaning nisbiy o'zgarish tezligi hisoblanadi.

Bu formuladan foydalanib elementar funksiyalarning elastikligini hisoblash mumkin.

1. $E_x(x^a) = a$;
2. $E_x(a^x) = x \ln a$, $E_x(e^x) = x$;
3. $E_x(ax + b) = \frac{ax}{ax + b}$;
4. $E_x(\sin x) = x \cot x$;
5. $E_x(\cos x) = -x \tan x$;
6. $E_x(\tan x) = \frac{2x}{\sin 2x}$;
7. $E_x(\cot x) = -\frac{2x}{\sin 2x}$;
8. $E_x(\arcsin x) = \frac{x}{\sqrt{1-x^2} \arcsin x}$
9. $E_x(\arctan x) = \frac{x}{(1+x^2) \arctan x}$

Funksiya elastikligining ba'zi muhim xossalari misol tariqasida yozamiz:

- 1° $E_{ax}(by) = E_x(y)$
- 2° $E_x(y) = \frac{1}{E_y(x)}$
- 3° $E_x(uv) = E_x(u) + E_x(v)$
- 4° $E_x\left(\frac{u}{v}\right) = E_x(u) - E_x(v)$
- 5° $E_x(u+v) = \frac{uE_x(u) + vE_x(v)}{u+v}$.

Funksiyaning elastikligi narxga bog'liq talab va taklifning tahlilida qo'llaniladi. Narxga bog'liq talab elastikligi har doim manfiydir. Ya'ni $E_p^D < 0$, mahsulot narxi oshganda, unga bo'lgan talab kamayadi. Demak, $\frac{\Delta Q}{\Delta P} < 0$ shuning uchun talab elastikligining absolyut qiymati olinadi. Elastiklik koeffitsiyenti qiymatiga qarab talabni elastik, noelastik, birlik elastiklikka ega bo'lgan mahsulotlarga ajratish mumkin. Agar talabning narx bo'yicha elastikligi $|E_p^D| > 1$ bo'lsa, talab elastik; $|E_p^D| < 1$ bo'lsa, noelastik, $|E_p^D| = 1$ bo'lsa, birlik elastiklikka ega deyiladi.

Masalan: A mahsulotning narxi 10 % ga pasaydi. Buning natijasida A mahsulotga bo'lgan talab miqdori 15 % ga oshdi. Bu ma'lumotlardan ko'rish mumkinki $DQ\% = 15\%$, $DP\% = -10\%$ talab elastikligi $E_p^D = \frac{\Delta Q\%}{\Delta P\%} = -1.5$ ga teng ekan. Bu yerda $DQ\%$ – talab miqdorining foizli o'zgarishi, $DP\%$ – tovar narxining foizli o'zgarishi. Talabning absolyut elastikligi $|E_p^D| = 1.5$ ga teng bo'ladi.

Talab (taklif)ning narx bo'yicha elastiklik formulalari quyidagicha aniqlanadi. Talabning narx bo'yicha elastikligi $E_p^D = \frac{\Delta Q^D\%}{\Delta P\%}$ ga teng. Bunda $DQ\%$ - talab miqdorining foizli o'zgarishi, $DP\%$ - mahsulot narxining foizli o'zgarishi.

$$\Delta Q\% = \frac{Q_2^D - Q_1^D}{Q_1^D} \times 100\% = \frac{\Delta Q^D}{Q_1^D} \times 100\% \quad \Delta P\% = \frac{P_2 - P_1}{P_1} \times 100\% = \frac{\Delta P}{P_1} \times 100\% \text{ ga teng.}$$

$$E_p^D = \frac{\Delta Q^D\%}{\Delta P\%} = \frac{\frac{\Delta Q^D}{Q_1^D} \times 100\%}{\frac{\Delta P}{P_1} \times 100\%} = \frac{\frac{\Delta Q^D}{Q_1^D}}{\frac{\Delta P}{P_1}} = \frac{\Delta Q^D}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^D} \quad (1)$$

agar talab uzluksiz funksiya sifatida $Q^D = f(p)$ ko'rinishida bo'lsa (1) dagi $\frac{\Delta Q^D}{\Delta P}$ nisbiy o'zgarish o'rniga $f'(p)$ ni qo'yish mumkin.

Demak, talabning narx bo'yicha elastikligi $E_p^D = \frac{\Delta Q^D}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^D} = f'(p) \times \frac{P_1}{Q_1^D}$ ko'rinishiga ega ekan.

Taklifning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti ham talabniki kabi aniqlanadi va u $E_p^S = \frac{\Delta Q^S\%}{\Delta P\%}$ ga teng bo'ladi. Bu formula ham talab elastiklik formulasini aniqlaganimizdek

$$E_p^S = \frac{\frac{\Delta Q^S}{Q_1^S}}{\frac{\Delta P}{P_1}} = \frac{\Delta Q^S}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^S} \quad (2) \text{ ko'rinishiga keladi.}$$

Agar taklif ham uzluksiz funksiya sifatida $Q^S = g(p)$ ko'rinishida bo'lsa (2) dagi $\frac{\Delta Q^S}{\Delta P}$ nisbiy o'zgarish o'rniga $g'(p)$ ni qo'yish mumkin. Demak, $E_p^S = \frac{\Delta Q^S}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^S} = g'(p) \times \frac{P_1}{Q_1^S}$ ga teng ekan. Shuni aytib o'tish lozimki, taklifning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti har doim musbat bo'ladi. Chunki taklif bilan narx o'rtasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Misol: Biror B mahsulotning bozorda narxi 12% ga oshdi. Buning natijasida bozordagi B tovar taklifi miqdori 9% ga ko'paydi. Bu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda $DQ^s\%=9\%$, $DP\%=12\%$ taklif elastikligi $E_p^s = \frac{\Delta Q^s\%}{\Delta P\%} = \frac{9\%}{12\%} = 0.75$ ga teng ekanligini ko'rish mumkin.

Elastik talabga ega bo'lgan, ya'ni $|E_D| > 1$ bo'lgan mahsulotlar iste'molchilarning ikkinchi darajali ehtiyojini qondiradi. Bunday mahsulotlarga zeb-u ziynat, tanqis taomlar, mashina, mebel va boshqa shu kabimahsulotlar kiradi.

Noelastik talabga ega bo'lgan, ya'ni $|E_D| < 1$ bo'lgan tovarlar iste'molchilarning birinchi darajali ehtiyojini qondiradi. Bunday tovarlarga non, dori-darmon, kiyim-kechak, elektr energiya va shu kabi mahsulotlar kiradi.

Endi talabning elastiklari elastik $|E_D| > 1$, noelastik $|E_D| < 1$, birlik elastik $|E_D| = 1$ sharoitida narx o'zgarishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning daromadi qanday o'zgarishini tahlil qilamiz.

Agar bo'lgan vaziyatda narx oshsa, ishlab chiqaruvchilarning daromadi kamayadi, chunki bu mahsulot iste'molchilarning ikkinchi darajali ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun bu mahsulot narxi oshganda unga bo'lgan talab keskin kamayadi, natijada ishlab chiqaruvchilarning daromadi kamayadi. Shu sharoitda narx kamaysa, bu mahsulotga bo'lgan talab oshadi, natijada ishlab chiqaruvchilarning daromadi va ishlab chiqarish hajmi oshadi. Ishlab chiqarish hajmi ko'tarilganidan tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan umumiy xarajati ham oshganligini bilish mumkin.

Agar $|E_D| < 1$ bo'lgan vaziyatda tovar narxi oshsa unga bo'lgan talab sezilarsiz darajada kamayadi. Chunki bu mahsulot iste'molchilarning kundalik iste'mol mahsulotlari sirasiga kiradi. Buning natijasida esa ishlab chiqarish xarajati sezilarsiz darajada kamayadi. Daromad esa oshadi. Shu sharoitda narx pasaysa mahsulotga bo'lgan talab sezilarsiz darajada oshadi. Bunday vaziyatda ishlab chiqarish xarajatlari sezilarsiz darajada oshadi. Ishlab chiqaruvchilarning daromadi esa kamayadi.

Agar $|E_D| = 1$ bo'lganda narx qancha miqdorda oshsa, talab deyarli shuncha miqdorda kamayadi, narx qancha miqdorda pasaysa, talab deyarli shuncha miqdorda oshadi. Bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchilarning daromadi va ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari deyarli o'zgarmaydi.

Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

	$DP > 0$		$DP < 0$	
$ E_D > 1$	$DR < 0$	$DC < 0$	$DR > 0$	$DC > 0$
$ E_D = 1$	$DR = 0$	$DC = 0$	$DR = 0$	$DC = 0$
$ E_D < 1$	$DR > 0$	$DC < 0$	$DR < 0$	$DC > 0$

DR – daromadning o'zgarishi.

DC - xarajatlarning o'zgarishi.

Real statistik ma'lumotlarga ko'ra nuqtaviy va yoysimon elastiklik koeffitsientlarini quyidagi ma'lumotlar orqali aniqlash mumkin.

Talab va taklifning narx bo'yicha nuqtaviy elastikliklari yuqorida aniqlaganimizdek;

$$E_p^D = \frac{Q_2^D - Q_1^D}{Q_1^D} \times 100\% : \frac{P_2 - P_1}{P_1} \times 100\% = \frac{\frac{\Delta Q^D}{Q_1^D}}{\frac{\Delta P}{P_1}} = \frac{\Delta Q^D}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^D}.$$

Takliflikini ham xuddi shunday $E_p^s = \frac{\frac{\Delta Q^s}{Q_1^D}}{\frac{\Delta P}{P_1}} = \frac{\Delta Q^s}{\Delta P} \times \frac{P_1}{Q_1^s}$ ko'rinish aniqlash mumkin.

Talabning yoysimon elastiklik koeffitsienti $E^D = \frac{Q_2^D - Q_1^D}{\frac{Q_2^D + Q_1^D}{2}} : \frac{P_2 - P_1}{\frac{P_2 + P_1}{2}} = \frac{(P_2 + P_1)(Q_2^D - Q_1^D)}{(P_2 - P_1)(Q_2^D + Q_1^D)}$ kabi aniqlanadi.

Bunda: Q_1^D va P_1 lar mahsulotning boshlang'ich talab miqdori va narxi, Q_2^D va EP_2 talabning va mahsulot narxining o'zgargandan keyingi qiymatlari.

Talab elastikligi narxdan tashqari, daromadga ham bog'liq. Ko'pgina mahsulotlarga talab, iste'molchilarning daromadi oshishi bilan ko'tariladi.

Talabning daromad bo'yicha elastikligi deb – daromad (R) 1% ga o'zgarganda talab qilingan (Q) ni qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Ya'ni talabning daromad bo'yicha elastiklik koeffitsienti

$$E_R^D = \frac{\frac{\Delta Q\%}{\Delta R\%}}{\frac{Q}{R}} = \frac{\Delta Q}{\Delta R} \cdot \frac{R}{Q} \text{ ga teng ekan.}$$

Talablar daromadga bog'liq talab elastikligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi. $E_R < 0$ bo'lsa, past tabaqali mahsulot, $E_R > 0$ bo'lsa bu mahsulot normal mahsulot, $0 < E_R < 1$ bo'lsa, bu mahsulot kundalik iste'mol qilinadigan mahsulot, $E_R > 1$ bo'lsa, yuqori tabaqali mahsulot hisoblanadi.

Kesishgan talab elastikligi: bitta mahsulotga bo'lgan talabga boshqa bir mahsulotning narxi ta'sir qiladi.

Masalan: Videomagnitafon narxi oshsa, DVD ga bo'lgan talab oshadi. Bunday bog'liqlikdagi talab o'zgarishiga narxga bog'liq kesishgan talab elastikligi deyiladi.

Kesishgan talab elastikligi – bu boshqa tovarlar narxi 1% ga o'zgarganda, talab qilinadigan mahsulotga talabning necha foizga o'zgarishini bildiradi. Ya'ni

$$E_{Q_1/Q_2} = \frac{\frac{\Delta Q_1/Q_1}{\Delta P_2/P_2}}{\frac{Q_1}{P_2}} = \frac{\Delta Q_1}{\Delta P_2} \cdot \frac{P_2}{Q_1} \text{ ga teng. Bunda } Q_1 - \text{birinchi tovar miqdori } P_2 - \text{ikkinchi tovar narxi.}$$

Masalalar

1-masala: Biror A mahsulotga bo'lgan talab funksiyasi $Q_D = \frac{3P+14}{P+3}$, taklif funksiyasi esa, $Q_S = P+2$ ko'rinishida berilgan. Bunda Q – A mahsulot miqdori(dona), P – bir-birlik A mahsulot narxi (ming so'mda)

a) muvozanat narx va muvozanat narxni aniqlang;

b) muvozanat nuqtada talabning va taklifning narx bo'yicha elastiklarini aniqlang;

d) muvozanat narx 10% ga oshsa daromad qanday o'zgaradi.

Yechish: a) muvozanat holatni aniqlash uchun talab funksiyasi va taklif funksiyalarini tenglashtiramiz: $Q_D = Q_S \Rightarrow \frac{3P+14}{P+3} = P+2 \Rightarrow 3P+14 = (P+2)(P+3) \Rightarrow P^2+2P-8 = 0 \Rightarrow \Rightarrow (P-2)(P+4) = 0$ bo'ladi. Bundan $p=2$ ekanligini hosil qilamiz. $p \neq 4$ chunki $p > 0$ demak muvozanat narx 2\$, miqdor esa $Q_M = 2+2=4$ ga teng bo'ladi.

b) endi muvozanat holatda talab va taklifning elastiklik koeffitsientlarini aniqlaymiz.

Buning uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$E_D = (Q_D) \cdot \frac{P}{Q} \Rightarrow E_D = \left(\frac{3P+14}{P+3} \right) \cdot \frac{P}{Q} = \frac{3(P+3) - (3P+14)}{(P+3)^2} + \frac{P(P+3)}{3P+14} = -\frac{5P}{(3P+14) \cdot (P+3)}$$

talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti:

$$E_D = -\frac{5P}{(3P+14)*(P+3)} = -\frac{5*2}{(3*2+14)*(2+3)} = -0,1.$$

Endi taklifning narx bo'yicha elastiklik koeffitsientini topamiz.

$$E_S = (Q_s) * \frac{P}{Q_s} = (P+2) * \frac{P}{P+2} = \frac{P}{P+2}.$$

Demak, taklifning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti $E_S = \frac{P}{P+2} = \frac{2}{2+2} = 0,5$ ga teng ekan.

d) agar narx 10% ga oshsa u holda bu mahsulotga bo'lgan talab qanday o'zgarishini talab elastikligi orqali aniqlaymiz:

$$E_D = \frac{\Delta Q\%}{\Delta P\%} \Rightarrow \frac{\Delta Q\%}{10\%} = -0,1 \Rightarrow \Delta Q\% = -1\%.$$

Demak, buning natijasida tovarga bo'lgan talab miqdori 1% ga kamayar ekan. Endi daromad o'zgarishini aniqlaymiz.

Faraz qilamiz dastlabki daromad $TR_1 = PQ$ bo'lsin. U holda narx 10% ga oshgandan keyin daromad $TR_2 = (P+0,1P)*(Q-0,01Q) = 1,1P*0,99Q = 1,09PQ$ bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki daromad $DTR = 1,09TR - TR = 0,09TR$ ga teng bo'ladi. Bu esa daromadni 9%ga oshganini bildiradi.

2-masala: Bozorda B mahsulotga bo'lgan talab funksiyasi $Q_D = 18 - \sqrt{P}$ ko'rinishida. Bunda Q - B tovar miqdori(dona), P - bir-birlik B tovar narxi \$ da.

a) qanday narxda talabning narx bo'yicha elastikligi, elastik, noelastik va birlik elastik bo'ladi;

b) agar narx 100 va 150 \$ bo'lganda B mahsulotni ishlab chiqaruvchiga ko'proq foyda olishi uchun unga qanday maslahat berasiz?

Yechish: a) talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti

$$E_P^D = (18 - \sqrt{P}) * \frac{P}{Q} = -\frac{\sqrt{P}}{2*(18 - \sqrt{P})} \text{ ga teng ekan.}$$

$$|E_P^D| = \left| -\frac{\sqrt{P}}{2*(18 - \sqrt{P})} \right| = \frac{\sqrt{P}}{2*(18 - \sqrt{P})} \text{ bo'ladi. Endi } |E_P^D| > 1 \text{ bo'lganda}$$

$$\begin{aligned} \frac{\sqrt{P}}{2*(18 - \sqrt{P})} > 1 &\Rightarrow \frac{\sqrt{P} - 2*(18 - \sqrt{P})}{2*(18 - \sqrt{P})} > 0 \Rightarrow \frac{3\sqrt{P} - 36}{2*(18 - \sqrt{P})} > 0 \Rightarrow \\ &\Rightarrow \frac{3\sqrt{P} - 18}{2*(\sqrt{P} - 18)} < 0 \Rightarrow \frac{\sqrt{P} - 12}{\sqrt{P} - 18} < 0 \Rightarrow 12 < \sqrt{P} < 18, P > 0 \end{aligned}$$

bo'lgani uchun $144 < P < 324$ bo'ladi.

Endi $|E_P^D| = 1$ bo'lganda yuqoridagidan $\frac{\sqrt{P} - 12}{\sqrt{P} - 18} = 0$ bo'ladi. Demak kasrning max-raji nolga teng emas. $\sqrt{P} - 12 = 0$ bo'ladi. Bundan $P = 144$ ekanligi kelib chiqadi.

$|E_P^D| < 1$ bo'lganda esa $\frac{\sqrt{P} - 12}{\sqrt{P} - 18} > 0$ tengsizlikini hosil qilamiz. Buni yechimi $P > 324$, $0 < P < 144$ ni hosil qilamiz.

b) Agar narx 100\$ bo'lsa bu mahsulotga bo'lgan talab noelastik bo'ladi. Bu mahsulotning narxini oshirish natijasida B tovarni ishlab chiqaruvchi o'zining foydasini oshirish mumkin. Agar narx 150\$ bo'lsa, bu mahsulotga bo'lgan talab elastik bo'ladi. Bunday vaziyatda B mahsulotni ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasida o'zining daromadini oshirishi mumkin.

3-masala: X birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketadigan umumiy xarajat funksiyasi $y=f(x)$ ko'rinishida berilgan. Umumiy va o'rtacha xarajatlar elastikliklari orasidagi bog'lanishni aniqlang.

Yechish: Bir-birlik mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan o'rtacha xarajat

$y_1 = \frac{x}{y}$ ga teng. Umumiy xarajatlar bo'yicha elastiklik koeffitsienti

$\frac{y}{E_x(y)} = \frac{x}{y} * y'$ ko'rinishida bo'ladi. O'rtacha xarajatlar bo'yicha elastiklik koeffitsienti

$$\text{esa } E_x(y_1) = \frac{x}{y_1} * y_1' = x * \frac{x}{y} * \left(\frac{x}{y}\right)' = \frac{x^2}{y} * \frac{xy' - y}{x^2} = \frac{xy' - y}{y} = \frac{x}{y} * y' - 1.$$

Demak o'rtacha xarajat bo'yicha elastiklik koeffitsienti, umumiy xarajat bo'yicha elastiklik koeffitsientidan bir-birlikka kam ekan. Ya'ni $E_x(y_1) = E_x(y) - 1$. **Javob:** $E_x(y_1) = E_x(y) - 1$.

Umuman olganda, dars jarayonini tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchi shaxsi, uning ruhiy sifatleri, nazariy va uslubiy tayyorgarlik darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Bir usul turli o'qituvchilarda har xil natija beradi. O'qitish usullari samaradorligi haqidagi masalani o'qituvchining shaxsiy sifatleri, ilmiy va uslubiy tayyorgarligidan ajratish mumkin emas. O'qitish jarayon sifatida obyektivlik va subyektivlikning birligini doimo o'zida mujassamlashtiradi. O'qitishning obyektivlik jihatiga o'qituvchining bilimlaridan tashqari mazkur fanning mazmuni hamda o'qitish tamoyillari ham kiradi.

Uslub o'qituvchining auditoriya bilan yaxshi aloqasini ham ta'minlaydi. Aloqa deganda auditoriyadagi o'rnatilgan ish jarayoni tushuniladi, bunda talabaniing fikrlari o'qituvchinikidan bir oz orqada qolishi, alohida hollarda esa, ilgari ketishi mumkin. O'qituvchi auditoriyani ko'ra olishi va his etishi, u bilan ishlay olishi kerak. Talaba ham o'z navbatida, uni ko'rishayotgani va his etishayotganini bilishi kerak. Albatta, ma'lum darajada bu to'g'ri. Biroq bu yerda gap faqat shunda emas. Hammaga ma'lumki, yaxshi o'qituvchi auditoriyani intizomli qiladi, shuning uchun o'qituvchi o'z ma'ruzalariga (seminarlariga) talabalar ko'zi bilan qarashi kerak. Bunda u iliq bo'lmagan munosabat qaysidir darajada materialning noto'g'ri yig'ilishi yoki o'qitishning noto'g'ri usullarda ekanligi haqida xulosaga kelishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N.A., Djumaniyazov Sh.R. *Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish uslubi. O'quv qo'llanma.* – T.: TDIU. 2007.
2. Е.Д.Куланин и другие. 3000 конкурсных задач по математике. – М.: Айрекс-пресс, 2003. – С 640.
3. Berkinov B.B., Djumaniyazov Sh.R. *“Institutsional iqtisodiyot”.* O'quv-uslubiy majmua, – T.: TDIU, 2010.
4. Djumaniyazov Sh.R. *“Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash”.* O'quv-uslubiy majmua, – T.: TDIU, 2010.

O'ktam ABDURAZZOQOV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OTA-ONANING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilada sog'lom bola tarbiyasida ota-onaning o'rni, ularning farzand uchun ilk ustoz va tarbiyachi ekanligi, ota-ona va farzand munosabatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar bola tarbiyasida ahamiyatli ekanligi bayon etilgan. Muallif tarbiya borasida mutafakkirlar qarashlarini keltirib o'tar ekan, milliy an'ana va qadriyatlar bola tarbiyasi asosi ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini kuzatish, xalq pedagogikasi, ma'naviyat, namuna.

В статье рассматривается роль родителей в жизни ребенка, национальные особенности в отношениях между членами семьи, основанные на духовных ценностях традициях и обычаях. Автор отмечает, что духовное и физическое воспитание здоровых детей являются не только заботой родителей, но и является также заботой общественности. Родители являются основными воспитателями, поэтому они воспитывают умную, духовно-воспитанную личность на основе самых лучших традициях и семейных обычаев.

Ключевые слова. Обучение, воспитание, самонаблюдение, народная педагогика, духовность, образец.

The article discusses the use of spiritual values in family education. Know that there are also national features in relations between family members, based on spiritual values, traditions and customs. The author notes that the spiritual and physical upbringing of healthy children is not only the concern of the parents, but is also the concern of the public. Parents are the primary educators, so they have to educate intelligent, spiritually-bred person on the basis of the best traditions and family customs.

Key words. Training, education, introspection, folk pedagogies, spirituality, sample.

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi. Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, zukko, ruhan

va ma'nan barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.

Farzandlar ota-onalariga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib-bilmasdan o'z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o'tadi. Ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega. Ammo afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandini "bebosh" qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg'udan cho'chiydilar. Ular bolaning tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qolishidan tashvishlanadilar. Lekin juda ko'p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to'g'ri muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan mahrum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola o'zining sevishtariga, o'ziga g'amxo'rlik ko'rsatishiga ishonch hosil qilishi ota-onaning muhim vazifasidir.

Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onaning mehribonchiligi, e'tibori zarur. Aksariyat jinoyatchi bo'lib qolgan bolalar ota-onalarining va yaqin qarindoshlarining mehribon emasligidan aziyat chekadilar. Bunday nosog'lom oila muhitida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi mumkin. Bundan tashqari, u bekorchilik oqibatida, ichkilikbozlik, o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchilik ko'chalariga kirib ketishi yoki turli jinoiy va diniy ekstremistik guruhlarining ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani "mehri anbar", ya'ni uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblagan edi.

Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko'rsatishga alohida e'tibor berar va kishilarni, ayniqsa yoshlarni yaxshi kishilardan o'rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo'lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati to'g'risida shunday yozadi:

*Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
Har kimki atog'a ko'p rivoyat qilg'ay,
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.*

Sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiy o'zining "Axloqi Nasriy" asarida yaxshi tarbiyaning muhimligiga ko'p to'xtalgan. U ota-onalarning huquq va burchlari, saxovatlilik, baxt, insoning oliyanob xislatlari, qadr-qimmat, sadoqat va samimiylik, salomatlik to'g'risida juda qimmatli fikrlarni berganki, oradan yetti asr o'tib ham ular o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bola tarbiyasida ota-onaning vazifasi, rolini ko'plab xalq maqol va matalldarida ham uchratish mumkin

Ota-onaning tarbiyachilik roli to'g'risida quyidagi xalq maqolini keltirish mumkin:

*Bog'ing bo'lsa, qura qil,
O'g'ling bo'lsa, mulla qil.
Daraxtdan meva olaman desang,
Niholligidan parvarish qil.
Suv bilan ekin o'sar,
Tarbiya bilan – odam.*

Bola tarbiyasida kattalarning ibrati to'g'risida quyidagicha maqollar mavjud:

*Daraxtga ko'ra – mevasi,
Otag'onasiga ko'ra – bolasi
Daryo chuchuk – ariq chuchuk,
Daryo achchiq – ariq achchiq.
Igna qayoqqa yursa,
Ip ham shu yoqqa yurar.*

Agar oila ma'nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shuning uchun ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Oilada kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak.

Ota-ona oldidagi mas'uliyatning naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning har bir qadamini, har bir hatti-harakatini zimdan kuzatib boradilar. Bolalar har qanday janjalni, yomon noo'rin so'zni uzoq vaqt eslab yuradilar, o'zni kelganda, vaziyat bo'lganda amalda qo'llashga harakat qiladilar.

“Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deydi xalqimiz. Ayniqsa, bolaning izzat nafsiga tegmaslik, uni kamsitib gapirmaslik, xullas, ota-onaning o'zi madaniyatsizlik, odobsizlik qilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

Lekin ota-onaning maqsad va niyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qanday yo'l va vositalardan foydalanadilar, bular nihoyatda murakkab masalalardir.

Bola tarbiyasi ota-onalarning ijtimoiy vazifasidir. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Shaxsning qadr-qimmatini uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baholanadi. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o'z xalqining eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy an'analarini ruhida oliyjanab fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak.

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi – odamlar, narsalar, hodisalar, uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va rivojlantiradi. Ota-onaning burchi mana shu rivojlanishni ziyraklik bilan boshqarib borishdir. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rligi bolalar uchun suv va havodek zarur. Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy tashkil etilishdan iborat.

Bu omillar oilada axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Bu quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarining tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarni bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan.

2. Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalarga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishni o'rgatishlari zarur.

3. Ko'gina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalar va burchlarini to'la his qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo, ota-onalarning o'zlarini o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir obyekti va subyektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday obyekt ekanligini sezmasligi uchun xarakter qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib yeta olmaydilar.

4. Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabildagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak.

5. Har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyatning ham manfaatidir. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim.

6. Ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'g'itlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahillik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom ahloqiy muhit muhim ahamiyatga ega.

7. Oilada bolalarni sevis, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularni izzat-nafsiga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilgani maqsadga muvofiqdir.

8. Har bir oilada uning o'ziga xos an'analar mavjud. Bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan, oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh urug'lar holidan xabar olish va hokozolar.

9. Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

10. Shunday qilib, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir qilish omillari mavjud. Bularni hisobga olmasdan turib, bola tarbiyasini oilada yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim.

Ota-onalarning butun xayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani, axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatini, ularning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati o'zbekning milliy g'ururidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Munavvarov A.Q. *"Oila pedagogikasi"*. – T., 1994.
2. G'aybullayev N., Yodgorov R. *"Pedagogika"*. – T., 2000.

Ravshan JOMONOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti

KIRILL YOZUVIDAGI Е, Ё, Ю, Я HARFLI SO'ZLARNING O'ZBEK ALIFBOSIDAGI TRANSLITERATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kirill yozuvidagi **е, ё, ю, я** harfli so'zlarni o'zbek alifbosidagi transliteratsiyasi, ya'ni qiyosiy tahlili aks ettirilgan. Muallif ushbu orfografik muammoning tarixini o'rganib chiqish asnosida bir necha imlo qoidalarini tavsiya etadi. Shuningdek, yaqinda nashr etilgan o'zbek tilining imlo lug'atida yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ham ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. Alifbo, harf, orfografik muammo, imlo lug'ati, qiyosiy tahlil, o'zbek alifbosi.

В данной статье рассматриваются проблемы отражения заимствованных слов с буквами **е, ё, ю, я** в узбекской латинской графике. Изучая историю этого орфографического вопроса, автор предлагает некоторые орфографические правила. В то же время автор указывает некоторые ошибки, допущенные в недавно изданном орфографическом словаре узбекского языка.

Ключевые слова. Алфавит, буква, орфографический словарь, сопоставительный анализ, узбекский алфавит.

The present article touches upon the problems expressing borrowed words with letters **е, ё, ю, я** in the Uzbek Latin alphabet. Learning the history of the given orthographic question the author suggests some orthographic rules. At the same time the author mentions some mistakes made in the previous edition of the orthographic dictionaries of the Uzbek language.

Key words. Alphabet, letters, orthographic problem, orthographic dictionary, Uzbek alphabet.

Ma'lumki, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi dastlab, 1929–1940-yillarda qo'llanilgan bo'lib, mazkur alifbo asosida 1929–1934-yillarda o'zbek tilining imlo qoidalarini ishlab chiqilgan. Tabiiyki, o'sha imlo qoidalarida rus va Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar imlosi ham ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, 1929-yilda qabul qilingan 29 qoidadan tashkil topgan imlo qoidalarining 9 tasi rus tili orqali o'zlashtirilayotgan so'zlar imlosiga bag'ishlangan. “Yolashgan unlilar”ning yozilishi bo'yicha quyidagi qoida tavsiya etilgan: Kirill alifbosida **я, ё, ю, е** harflari bo'g'in boshida eshitalishiga ko'ra **ya, yu, yo, ye** bilan, bo'g'in o'rtasida **yo** oxirida **a, u, o, ye** bilan yoziladi: *yashik, yubiley, iplina, galiya, manikur, henre* [1].

Shuningdek, 1934-yildagi 31 qoidadan tashkil topgan imlo qoidalarining 8 tasida rus-yevropa so'zlarining imlosi qayd qilingan. Xususan, 24 qoidada “yolashgan unlilar”ning yozilishi quyidagicha belgilangan: “... v) ruscha (**э**) va bo'g'un orasidagi e hamma vaqt **e** bilan yoziladi: *ekonom, telefon, Engels* kabi, *ye* ruschada bo'g'in

boshida kelganda bizda “je” bilan yoziladi: *jenukidze*, *jevginiy* kabi; s) ruscha bo‘g‘in boshida “ë” bilan yoziladigan so‘zlar “jo” bilan (ammo o‘rni bilan “o” shaklida ham) yoziladi; j) ruscha bo‘g‘in boshidagi “ю” “ju” bilan, bo‘g‘in orasida ba‘zan “u” bilan ham yoziladi: *jurist*, *bjurokrat*, *manikur* kabi; d) ruscha “я” bo‘g‘in boshida “ja” bilan, ba‘zi ismlarda so‘z oxirida “a” bilan ham yoziladi: *yaşik*, *Galja*, *knaz* kabi”[2].

Ko‘rinib turibdiki, 1929–1934-yillarda tasdiqlangan imlo qoidalarida “yolashgan unlilar” deb nomlanuvchi harflar imlosi juda oddiy tarzda hal qilingan. Aniqroq aytganda, rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilayotgan so‘zlar o‘zbeklar nutqiga mos tarzda, ya‘ni fonetik prinsip asosida yozilishi belgilab qo‘yilgan. Rus tili orqali kirib kelayotgan har qanday so‘zning o‘zbek tili orfografik me‘yorlariga bo‘ysunishi, ya‘ni tobe tutilishi aniq va ravshan tarzda ko‘rsatib berilgan. Bu esa, bunday tipdagi leksemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashib, singib ketishini ta‘minlagan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda mazkur Qonunga ayrim tuzatishlar kiritildi. 1995-yil 24- avgustda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini” tasdiqlandi. Shunday qilib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi rasmiy davlat yozuvi sifatida amal qila boshladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida lotin alifbosidan foydalanish bir qator yengilliklarni yaratgan bo‘lsa, ayni paytda o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosida ayrim noaniq holatlar, noto‘g‘ri qarashlar, o‘z orfografik yechimini kutayotgan muammolar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, “yolashgan unlilar” masalasida ham bahsli o‘rinlar, ilmiy-nazariy jihatdan asoslanishi zarur bo‘lgan masalalar yuzaga keldi. Xo‘sh, bunday orfografik muammo nima sababdan paydo bo‘ldi? Mazkur muammoni lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining grafik imkoniyatlari doirasida hal etish mumkinmi?

Nazarimizda, ushbu muammoning tub mohiyatini anglab yetish uchun “yolashgan unlilar”ning rus tilida va o‘zbek kirill alifbosida qo‘llanish sabablarini tahlil etish lozim bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “yolashgan unlilar”ning, aslida, o‘zbek kirill alifbosida ortiqcha grafemalar ekanligi to‘g‘risidagi masala kelib chiqadi [3].

Ya‘ni **ë, ю, я, е** harflarining o‘zbek kirill alifbosida qo‘llanishi o‘zbek adabiy tiliga emas, balki ko‘proq rus tilining manfaatiga xizmat qiladi. Aniqroq aytganda, so‘zlar rus tilida qanday yozilsa, o‘sha taxlitda o‘zbek tilida ham takrorlanadi. Bunday moslik, ehtimol, grafik jihatdan o‘zini oqlashi mumkin. Biroq orfoepik, grammatik me‘yorlar, orfografik tamoyillarga har doim ham mos kelavermaydi. Negaki, “Rus va o‘zbek alifbolarida unli fonemalarni ifodalovchi olti harfdan tashqari yolashgan tovushlarni ifodalovchi to‘rtta grafema (**ya, ye, yo, yu**) ham mavjud, rus tilida esa ular palatalizatsiya (yumshatish)ni ifodalashda ham qo‘llanadi. Bu – fonologiyaning emas, balki orfografiyaning sohasi hisoblanadi. *Rus orfografiyasida unlilarni berishdagi bu usulni o‘zbek tiliga ko‘chirish o‘zbekcha o‘zak tarkibidagi morfologik aniqlikni xiralashtirishga olib boradi*. O‘rganuvchi **е, ë, ю, я** grafemalari alohida tovush birliklarini emas, balki unli va undosh fonemalardan iborat fonemalar birikmasini, ya‘ni **е – ye, ë – yo, ю – yu, я – ya** ni ifodalashini bilmasa, asosiy morfologik birlikni ajrata olmaydi”[4].

Ko‘rinadiki, o‘zbek kirill alifbosida “yolashgan unlilar” natijasida so‘zning o‘zagi va qo‘shimchalarini belgilashda, bo‘g‘inlarga ajratishda qiyinchiliklar yuzaga keladi,

yozuv amaliyotida murakkabliklar paydo bo'ladi. Ayni shu holat esa o'zbek lotin alifbosida o'z yechimini topgan deyish mumkin. Chunki rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlar ham lotincha alifboda o'zbeklar nutqiga xos jonli talaffuzda, asosan, fonetik prinsip asosida yoziladi. Lekin rus va Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan barcha so'zlar xususida bunday qat'iy fikrni aytish qiyin. Chunki kirill alifbosida **е, ё, ю, я** harflari bilan yoziladigan leksemalarni lotincha alifbomizga o'girishda shunday bir nozik nuqtalar borki, avvalo, ularni ilg'ab olish, har biriga alohida yondashishga to'g'ri keladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlar asosida kirillcha alifbodagi **е, ё, ю, я** harflari ishtirok etadigan so'zlarni lotin alifbosida transliteratsiyasi (biror alifbo asosida yozilgan so'zlarni boshqa bir alifbo vositalari bilan harfma harf aks ettirish)ni ko'rib chiqamiz. Avvalo, **Ee** harfli so'zlar haqida to'xtalamiz. 1995-yilda tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"da ko'rsatib o'tilganidek, "**Ee** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi". 1956-yilgi imlo qoidalarida esa, **Ee** harfining qo'llanish o'rni quyidagicha edi: "**е** harfi: 1) *ер, ем, етмиш, елка, объект, разъезд* kabi so'zlarda, so'z yoki bo'g'in boshida, *етим, елим* kabi so'zlarda ayrim bo'g'inni tashkil etganda, shuningdek *правление, страхование* kabi so'zlarning oxirida, unli tovushdan keyin **ye (y+e)** o'rnida yoziladi; 2) *кел, кет, кеч, бел, тер, беда, меҳмон, меҳнат, чехра, зехн, меҳр, истеҳком, телефон, театр, сеанс, адрес, телеграф, температура, делегат* kabi so'zlarda undoshdan so'ng yoki ikki undosh orasida, **э** tarzida aytiladigan unli tovush o'rnida yoziladi" [5].

Keltirilgan qoidadan ma'lum bo'ladiki, **Ee** harfi o'zbek kirill alifbosida [**э**] tovushi hamda [**й+э**] tovushlar birikmasini ifodalaydi. O'zbek lotin alifbosida esa faqat [**э**] fonemasi o'rnida ishlatiladi. Endi buni misollar yordamida ko'rib chiqamiz: *Европа, Егор, Елена, епископ* kabi so'zlarda **е** harfi [**й+э**] tarzida aytilib, alohida bo'g'inni tashkil etadi. Mazkur leksemalarni transkripsiyada quyidagicha ko'rsatish mumkin: [*Йевропа*], [*Йегор*], [*Йелена*], [*Йепископ*]. Demak, bunday tipdagi so'zlar lotinchaga Yevropa, Yegor, Yelena, yepiskop shaklida o'giriladi.

O'zlashtirilgan so'zlar orasida ruscha ism-familiyalar salmoqli o'rin egallaydi. Garchi ularning aksariyati lotincha yozuvimizda qiyinchilik tug'dirmasa-da, ba'zilar orfografik jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Masalan, *Федотов* tipdagi familiyalarni transliteratsiya qilish murakkab emas, Fedotov shaklidagi yozuvni kompyuter dasturlari orqali ham olish mumkin. Aynan mana shu shaklga yaqin *Федоров* familiyasini lotinchaga o'girish o'zgacha bir yondashuvni taqozo qiladi. Chunki kompyuter yordamida o'girilsa, Fedorov shaklidagi yozuv va [*Федоров*] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi. Bu esa o'zbek adabiy tilining orfoepik va orfografik me'yorlariga umuman mos kelmaydi. Xo'sh, u holda qanday yo'l tanlash kerak? Ayni shunday holatlar boshqa tillar amaliyotida ham ko'p uchraydi. Jumladan, rus tilshunosi Y.I.Shubovning yozishicha, "Turdosh otlar bilan qiyoslaganda atoqli otlarni transkripsiya qilishda ayrim "ijozatlar"ga yo'l qo'yilsa-da, baribir manba tilning fonemalar tizimiga emas, balki rus tilining grafika va orfografiyasiga tayanish lozim" [6].

Demak, biz ham bunday holatlarda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining grafik imkoniyatlariga, orfografik me'yorlariga tayanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, Федров [Фюдоров] tipidagi so'zlarni o'zbek lotin alifbosi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Fyodorov shaklida yozish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday orfografik yondashuv orqali hozirga qadar erishilgan talaffuz [Фюдоров (ф)] saqlab qolinadi, harf va tovush orasidagi nisbiy mutanosiblik – fonografik simmetriya yuzaga keladi.

Ko'rinadiki, o'zbek kirill alifbosida **Ee** harfli so'zlarni lotincha yozuvda aks ettirishda bir qator nozik nuqtalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Binobarin, **Ee** harfli so'zlarning, ruscha ism va familiyalarning to'rt xil shaklda berilishini esda tutish kerak: 1) **ye**: Yegor (Егор), Yelena (Елена); 2) **e**: Radishchev (Радишев); 3) **o**: Gorbachov (Горбачев); 4) **yo**: Fyodorov (Федоров). Keltirilgan misollar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yangi bir orfografik qoida shakllanayotganidan darak beradi.

Shuningdek, rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarda qo'llanadigan **ĖĖ** harfli so'zlarni lotin alifbosida berish ham ancha munozarali. Chunki **Ė** harfi rus tilida ikki vazifada qo'llanadi, ya'ni **й+o** tarzidagi tovushlar birikmasini hamda o'zidan oldingi tovushning yumshoqligini ko'rsatishga xoslangan. Masalan, *заём, баёк, лаёк* kabi so'zlarda **ё** harfi **й+o** fonemalari o'rnida qo'llangan. Bunday tipdagi leksemalar xuddi o'zbekcha so'zlar kabi, ya'ni *zayom, bayok, payok* shaklida yoziladi, ularning imlosida biror murakkablik yo'q, buni kompyuter dasturlari orqali ham bajarish mumkin. Lekin shu o'rinda masalaning nozik bir qirrasiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Gap shundaki, o'zbek kirill alifbosida **ё** harfi bilan yoziladigan o'zlashtirilgan so'zlarning aksariyati rus tilida **e** bilan yoziladi: *шафер, режиссер, дирижер, актер* rus tili fonetikasi qoidalariga ko'ra mazkur leksemalarning oxirgi bo'g'iniga urg'u tushadi hamda [o] ga yaqin talaffuz etiladi. O'zbek tilida esa yuqoridagi so'zlarni **e** harfi bilan yozib bo'lmaydi, chunki *шофёр* shaklida yoziladigan bo'lsa, [шофэр] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi. Shu sababli ham bunday tipdagi so'zlar **ё** harfi bilan yozib kelinadi: *шофёр, режиссёр, дирижёр, актёр*.

Endi mazkur so'zlarning transliteratsiyasini ko'rib chiqamiz. Agar yuqorida keltirilgan so'zlar kompyuter dasturlari orqali o'girilsa, shofyor, rejissyor, dirijyor, aktyor kabi so'z shakllari yuzaga keladi. Xo'sh, ayni shu taxlitdagi yozuvlarning qaysi biri orfografik jihatdan to'g'ri? Nazarimizda, shu o'rinda mazkur so'zlarning manba til – fransuz tilidagi shaklini ham yodda tutish lozim. Chunki ko'rsatib o'tilgan so'zlar fransuz tilida chauffeur, rejisseur, dirjeur, acteur ko'rinishida yoziladi. Ushbu so'zlardagi tugallanma **eur** rus tiliga **ep** shaklida o'zlashgan: *шофер, режиссер, дирижер, актер* va h.k. Demak, manba tildagi **eur** [yp] rus tilida **ep** tarzida, o'zbek kirill alifbosida **ép** tarzida yoziladi. O'zbek lotin alifbosida esa masalaga yondashuv sal boshqacha bo'ladi. Keltirilgan misollardagi to'rtta so'zga ikki xil yondashiladi: *шофёр* va *актёр* so'zlaridagi **ё** lotincha alifbomizga **yo** shaklida: shofyor, aktyor; *рижиссёр* va *дирижёр* esa rejissor, dirjor tarzida o'giriladi. Ayni mana shunday orfografik yechim o'zlashmani qabul qiluvchi til – o'zbek tilining orfoepik me'yorlariga mos keladi, chunki shofyor, aktyor shaklidagi yozuvlar hozirga qadar erishilgan talaffuzni ham saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'zlashtirilgan so'zlarda qo'llangan **ё** harfining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu borada Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlarga alohida, asl ruscha so'zlarga alohida yondashuv talab qilinadi. Binobarin, Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalarning aksariyatida **yo** yoziladi: likyor, liftyor, montyor, reportyor, sapyor, suflyor, transportyor,

eksportyor. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarni esa lotincha alifboda ko'proq o harfi bilan berish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Negaki, bunday tipdagi leksemalarda qo'llangan ё harfi o'zidan oldingi undosh tovushni yumshoqroq talaffuz etishga xoslangan: селёдка – selodka, чертёж – chertoj, шпаклёвка – shpaklovka, плёнка – plonka, Рублёв – Rublov. Demak, lotincha imlodagi har bir o'zlashmaga o'ziga xos yondashish, istisno holatlarni aniqlab olish, to'plangan materiallardan kelib chiqqan holda xulosa chiqarish, undan keyingina keng ommaga tavsiya etish o'rinli bo'ladi.

Ayrim manbalarda keltirilgan misollar yuqoridagi fikrni tasdiqlamaydi. Masalan, *ликёр*ning likor, *суфлёр*ning suflor, *плёнка*ning plonka shaklida berilishi o'zini oqlamaydi [7]. Chunki likor [ликор] tarzidagi yozuv kirill alifbodagi *ликёр*ning talaffuzidan juda uzoqlashib ketadi, suflor [суфлор] shakli ham mazkur so'zning manba til (*souffleur*) va vosita tildagi so'z shakllarni (*суфлер*) anglab olishni qiyinlashtiradi, *пльонка* [пльонка] tarzidagi talaffuz ham xalq jonli nutqiga u qadar mos kelmaydi. Shunday ekan, har qanday bosma nashrdagi, jumladan, darslik va o'quv qo'llanmalarida, xususan, imlo lug'atlarida tavsiya etiladigan har bir so'z ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, “yetti o'lchab bir kes” maqoliga qat'iy amal qilinishi shart. Aks holda o'zbek imlosida anglashilmovchiliklar sodir bo'lishi, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1929-yilgi Samarqanddagi til-imlo konferensiyasi materiallari. – T.: “O'zbekiston Davlat nashriyoti”, 1932.
2. “*Politehnik maktab va pedagogika*” jurnali. 1934, №3.
3. Решетов В.В. Узбекский язык: Ч. 1. Введение. Фонетика. – Т., 1959. – С. 121.
4. Mahmudov N. So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik // *Xorijiy so'z va terminlardan foydalanishda me'yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari*. – T., 2011.
5. Шубов Я.И. Употребление букв э, е после согласных словах // *О современной русской орфографии*. – М.: Наука, 1964. – С. 41.
6. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – T.: “Sharq”, 1999. Bu haqda to'liqroq ma'lumot: Jomonov R. *Tilimizning milliy tarovati lug'atlarda sog'lom saqlanishi kerak*. “Ma'rifat” gazetasi. 2014-yil, 22-yanvar.
7. Begmatov E., Mamatov A. *Adabiy norma nazariyasi: 3-qism*. – T., 1999.

Marg'uba MUQADOVA,

Urgut tumanidagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyoti fanini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish o'quvchi dunyoqarashining shakllanishi, og'zaki nutqining rivojlanishi va ravon bo'lishida alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi. Shuningdek, darsda turli o'yin va og'zaki so'rovlardan foydalanish, rasmlarga qarab gap tuzish, qiziqarli test savollariga javob topish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki mashg'ulotning qiziqarli kechishiga sabab bo'lishi misollar yordamida keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, dunyoqarash, og'zaki nutq, yozma nutq, muammoli vaziyat, mustaqil o'rganish.

В статье рассматривается использование современных информационных технологий, учитывающий индивидуально-дифференцированный подход, создающий творческую атмосферу на уроках родного языка. По мнению автора качественное знание предмета, широкая эрудиция, педагогическая культура педагога позволит добиваться высоких показателей в обучении. Также, использовать все возможности современного урока, активных форм и методов обучения для становления личности школьника.

Ключевые слова. Инновация, мировоззрение, устная речь, письменная речь, индивидуально-дифференцированный подход, самостоятельная работа.

The article discusses the use of modern information technologies, taking into account individually-differentiated approach that creates a creative atmosphere on the lessons of their mother tongue. According to the author of the excellent subject knowledge, broad erudition, pedagogical culture will allow for high levels of teacher training. Also, use all the features of the contemporary lessons active forms and methods of education for the development of the individual student.

Key words. Language, tone, connective words, individually differentiated approach, modern lesson, pedagogical culture, the opportunity.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish keng joriy qilinmoqda. Bunday o'qitish metodi "interfaol" deb nomlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarida bu metodlar yoshlar dunyoqarashining shakllanishida, og'zaki nutqining rivojlanishi va ravon bo'lishiga, darsda barcha o'quvchilar faol qatnashishiga, ularning o'zaro hamkorlikda bilim olishlariga yo'l ochib bermoqda.

Darsda turli o'yin va og'zaki so'rovlar, "Klaster" va "Idrok xarita"sini yaratish, rasmlarga qarab gap tuzish, test savollarining turli darajalarini bajarish, muammoli

vaziyatlarni tahlil qilish dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki mashg'ulotning qiziqarli kechishiga sabab bo'ladi.

Quyida biz o'qitishning ana shunday metodlari haqida ona tili fani misolida to'xtalib o'tamiz.

Mavzu: Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari

Maqsad:

– **ta'limiy:** o'quvchilarga bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish. Bog'lovchilardan nutqda o'rinli foydalanish malakasini hosil qilish.

– **tarbiyaviy:** o'zaro hurmat, hamkorlik tuyg'ularini singdirish, kitoblarga bo'lgan mehrni o'stirish.

– **rivojlantiruvchi:** mustaqil fikrlash, o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri qo'llash hamda mantiqiy fikrlash malakasini rivojlantirish, ularda yaratuvchanlik fazilatlarini shakllantirish.

Vazifalar:

– o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirishga erishish;

– mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruhlariga bo'linib o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o'zlashtirilganini nazorat qilish, ularning bilimini baholash;

– o'quvchilar og'zaki nutqida bog'lovchilardan foydalanishlari qanchalik shakllanganligini aniqlash, bog'lovchi ishtirok etgan gaplarni bexato yozishga o'rgatish, so'zlarni xatosiz va chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish.

Usul: Interfaol, aqliy usul.

Shakl: Jamoada va kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: “Ona tili” darsligi, ko'rgazmalar, mavjud texnika vositalari, mavzuga oid ko'rsatmali va tarqatma materiallar, rasmlar, test topshiriqlari.

Nazorat: Og'zaki va yozma nazorat, savol-javob.

Baholash: 5 balli tizim asosida.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.

O'qituvchi: Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari mavzusini qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. Ularda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga harakat qiladi.

O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.

Natijalar:

O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, darsda tatbiq etadi, takomillashtiradi, o'z ustida ishlaydi. Pedagogik mahoratini oshiradi.

O'quvchi: Mustaqil ishlashni o'rganib, o'z fikrini mustaqil bayon qila oladi. O'rganilgan mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlab, ularni o'rganishda do'stona muhitda, hamkorlikda izlash ko'nikmasi shakllanadi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi.

Rejalar:

“Mehnat qilsang, rohat ko'rasan” mavzusida matn tuzing. Undagi bog'lovchilarning tagiga chizib, turini aniqlang.

Darsning tashkiliy qismi:

O'quvchilar bilan salomlashiladi, sinf tozaligiga e'tibor beriladi, davomat ko'zdan kechiriladi va kun yangiliklari aytiladi.

Darsning shiori:

"Ilmning boshi – sukut, keyin quloq solish, yod olish, so'ng unga amal qilish va uni tarqatishdir". G'azzoliy.

Oltin qoidalar:

- hamfikrlilik;
- o'zaro fikr almashish;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- vaqtga rioya qilish;
- ijodkorlik;
- tashabbuskorlik;
- faol ishtirok.

Darsning borishi:

Aziz o'quvchilar, mana, kun shiorini ham o'qidingiz.

- Ilmning boshlanishi nimadan iborat ekan?
- Nima uchun ilmga quloq solib, yod olish kerak?
- Siz ilm o'rganib, unga amal qilasizmi?
- Ilmni tarqatish deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilarning javoblari tinglanib, umumlashtiriladi.

Aziz bolajonlar, ilmni qunt bilan o'rganib, uni yod olsak, unga amal qilsakgina, o'rgangan ilmlarimiz foyda beradi.

Ushbu so'rov o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilishga qaratilgan.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

Endi uch guruhga bo'linib, mavzu bo'yicha bahs yuritamiz.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
"Ayiqchalar"	"Quyunchalar"	"Olmaxonlar"

Guruhlarga savollar beriladi.

1-guruhga: Bog'lovchilar deb nimaga aytiladi? Bog'lovchilar qatnashgan gaplar tuzing.

2-guruhga: "Bilan" bog'lovchisi qachon ko'makchi vazifasini bajaradi? Gap tuzing.

3-guruhga: Qanday bog'lovchilarni bilasiz? Ulardan foydalanib, gaplar tuzing.

O'quvchilar savollarga javob beradilar va tuzgan gaplarini o'qiydilar.

Demak, bog'lovchilar haqida tushunchaga ega bo'ldik. Ayting-chi, uyga berilgan topshiriqda, bog'lovchilardan foydalanib gap tuzdingizmi?


Barcha guruh a'zolari o'zlari tuzgan matnni o'qib eshittiradilar.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlab, guruhlarga rag'bat kartochkalarini tarqatadi.

Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi slayd orqali o'quvchilarga topshiriq beradi.

1. Qanday bog'lovchilarni bilasiz? Ularni "Klaster" usuliga joylashtiring.



O'qituvchi o'quvchilar bajargan ishlarni ko'rib chiqadi, ularni guruhlarda o'qitadi. Barchaning diqqati darslikda berilgan 1-topshiriqqa qaratiladi.

1. “Boshlanadi ijod va turmush”.

2. “Men gulni yaxshi ko'raman, chunki u ruhimni ko'taradi”.

Birinchi gapda **va** bog'lovchisi ikkita bir xil so'zni teng bog'layapti. Ya'ni uyushiq bo'laklarni. Ikkinchi gapda **chunki** bog'lovchisi nimalarni bog'layapti?

Bu gapimizda **chunki** bog'lovchisi o'zaro tobe munosabatda bo'lgan gaplarni bog'lash uchun ishlatilyapti.

Demak, bog'lovchilar vazifalariga ko'ra teng va ergashtiruvchi boglovchilarga bo'linar ekan.

Jadval orqali o'quvchilar bog'lovchilarning farqini ajratadilar.

Teng bog'lovchilar	Ergashtiruvchi bog'lovchilar
va, ammo, lekin, biroq	chunki
balki, ham, bilan	ya'ni
yoki, yo...yo, goh...goh, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan, xoh, xoh, na...na.	agar, garchi.

Jadvaldan xulosa chiqarib, 185-mashqda berilgan gaplardagi bog'lovchilarning turiga qarab ularni jadvalning tegishli ustuniga joylaydilar.

Namuna

Teng bog'lovchilar	Ergashtiruvchi bog'lovchilar
1. “O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydigan darajada katta va sayhon bir yer ekan”.	1. “Qo'rqqoq do'st dushmandan xavflidir, chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan”.

Yangi mavzuni mustahkamlash

“Alifbo” o'yini o'tkaziladi

1. Alifbodagi birinchi harf bilan boshlanuvchi bog'lovchi.
2. Ikkinchi harf bilan boshlanuvchi bog'lovchi.
3. Uchinchi harf bilan boshlanuvchi bog'lovchi.
4. O'n birinchi harf bilan boshlanuvchi bog'lovchi.

2-topshiriq

“Kim tez topadi” o'yini

Muhammad Yusuf she'rlaridan bog'lovchili birikmalarni topib ko'chiring.

O'qituvchi barcha guruh ishlarini tinglaydi va umumlishtiradi.

Bog'lovchilar she'ring ta'sirchan va go'zal chiqishiga yordam beradi.

“Harfni jildir” o'yini o'ynaladi

1-guruhga **bilan** bog'lovchisi.

2-guruhga **goh** bog'lovchisi.

3-guruhga **chunki** bog'lovchisi.

O'quvchilar berilgan bog'lovchilardagi harflarni jildirib, so'zlar topadilar va yozadilar.

Namuna: Bobur, obro', kabob, dorboz, rubob.

O'quvchilar yozgan so'zlarini o'qiydilar, xatolari to'g'rilanadi.

Bog'lovchilarni topib tagiga chizadilar, qanday vazifa bajarayotganini aytadilar.

Shu asosda o'quvchilarga savollar beriladi.


1. Pashshaning gapi to'g'rimi?

2. Siz qanday munosabat bildirasiz?

Darsni mustahkamlash.

Darsni mustahkamlash uchun o'quvchilar tushunganlaridan kelib chiqib "Idrok xaritasi"ni yaratadilar.

"Idrok xaritasi"



O'qituvchi o'quvchilar qo'llaridagi rag'bat kartochkalariga qarab ularni baholaydi.

Endi barcha o'quvchilar o'zlariga savol bersinlar: "Men bugun darsda qanday qatnashdim?"

– Nima uchun darsda yaxshi qatnasha olmadim?

– Bugungi darsni qanchalik o'zlashtirdim?

– Dars bundanda qiziqarli o'tishi mumkinmidi?

O'quvchilar savollarga javob berishga harakat qiladilar.

Uyga vazifa.

"Mehnat qilsang, rohat ko'rasan" mavzusida matn tuzing. Undagi bog'lovchilarning tagiga chizib, turini aniqlang.

Topshiriq haqida tushunchalar berib, dars yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanining qiziqarli va samarali o'tish metodlari aniq misollar orqali ko'rsatib o'tilgan. So'zlarning tuzilishida muhim rol o'ynaydigan teng bog'lovchilar hamda ergashtiruvchi bog'lovchilar haqida jozibali o'yinlar orqali mashg'ulotlarning ta'sirchanligini oshirish usullari maqolaning mazmundorligini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "Tafakkur", 2011.

3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., va b. Ona tili. Umimiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: "Ma'naviyat", 2013.– 89-b.

4. Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. – T., 2011.

5. Til va adabiyot ta'limi. O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 1-son, 2005. – 5-b.

Qo'ysintosh ABDIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini tashkil qilishda ko'rgazmali qurollardan foydalanishning maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Muallif fikricha, bu vazifalar o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularda estetik didni, yozish malakalari hamda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ko'rgazma, husnixat, xattaxta, ko'rgazmali tasvir, darslik, ko'rgazmali qurol, estetik didni rivojlantirish.

В статье речь идёт об использовании наглядных пособий на уроках письма в начальных классах, определены особенности развития духовно-эстетических и письменных навыков учащихся начальных классов. Также автор анализирует процесс рассуждения учеников на уроках письма.

Ключевые слова. Выставка, урок письма, доска объявлений, выставка изображения, наглядные пособие, развитие эстетических качеств.

This article is devoted to organization of showing trends of “Calligraphy” lessons in primary classes. The showing tools play a great role pupils' life, to success and rich their knowledge, expect it helps to active pupil opinion. It is good to use from showing tools, when you teach to pupil how write clearly.

Key words. Exhibition, calligraphy, lesson, blackboard, exhibition image, textbook, exhibition implement.

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Yurtimiz hayotining barcha jabhalarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma'naviy jihatdan yuksaltirish, g'oyaviy jihatdan yangilash va o'z-o'zini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo'ymoqda. Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzasida: “...mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustivor maqsadimiz”, degan fikr-mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalardan biri ekanligi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Ma'lumki ta'lim mazmuni o'quv fani sifatida husnixat darslarining oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab belgilanadi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlantirishga, ularni atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didlarni tarbiyalashga ongli o'sish va yozish malakalari hamda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi. Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda

berilgan, o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materiallarni uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyati va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq. O'quvchilar faoliyatining xususiyatiga ko'ra bu mashqlar analitik-sintetik tarzda bo'lib ularda tahlil qilishga, taqqoslashga harflarning yozilishini mukammallashtirishga topshiriqlar beriladi. Masalan, rasmlar o'rniga va nuqtalar o'rniga so'zlar yozish va hokazo. O'quvchilarni yozuvga o'rgatishning ta'limiy vositalaridan biri ko'rgazmalilikdir.

Ko'rgazmalilik ikki xil bo'ladi:

1. Ko'rgazmali tasvir.
2. Ko'rgazmali harakat.

Bolalarning tabiati har ikkisini ham qo'llashni taqozo etadi. Ko'rgazmali materiallar har bir o'quv stoliga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Masalan, ko'rgazmada birorta harfning yozma shakli ifodalangan bo'lsa, shu shakl kichik hajmda har bir o'quvchining o'quv stoliga berish uchun mo'ljallab ko'paytiriladi va ortiqcha bezaklar bilan jihozlanmaydi. Yangi harf o'rganiladigan darsda qo'llaniladigan ko'rgazmali tasvirlar 40x50 sm hajmdagi kartondan tayyorlanadi. Unda yozuv daftaridagi asosiy yozuv va yordamchi chiziqlar chiziladi. Birinchi yozishni o'rganiladigan harfning to'liq shakli shu harf qismlariga ajratib keyin qo'l harakati yo'nalishi strelkalar bilan ko'rsatiladi. Ko'rgazma xattaxtaning bir tomoniga osib qo'yiladi.

Ko'rgazmadagi ifodalarni dastlab o'qituvchi, keyinchalik esa o'quvchilar strelkalar asosida izohlaydilar.

Bosh o harfi yuqoridan pastga qarab qiyalatib chizib tushiladi pastki yozuv chizig'iga yaqinlashganda o'ngga xalqa hosil qilinadi.

O'qituvchi xattaxtada ko'rgazmali harakat orqali shu harfning yozilishini ko'rsatadi. Ko'rgazmali harakatning to'g'ri bo'lishi uchun avvalo, o'qituvchining o'zi chiroyli yozuv qoidalarini mukammal bilishi va namuna bo'la olishi kerak.

O'qituvchi biror harfni o'rgatayotganda dastlab ko'rgazmadagi yozuv chizig'ining nomlarini aytgan holda xattaxtaga chizadi, so'ng qo'l harakatini izohlab harflarning yozilishini tushuntiradi. Tushuntirish va namuna ko'rsatish ham yozuvga o'rgatishning yaxshi usullaridan hisoblanadi. Tushuntirish jarayonida o'quvchilarning diqqati harfning qiyaligi-ga, yozuv chiziqlari orasida joylashishiga, harflar oraliq'iga va hokazolarga qaratiladi.

O'qituvchi harf va uning unsurlarini o'quvchilarga o'rgatish uchun quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. O'qituvchi xattaxtada yozayotgan vaqtida shunday turishi kerakki, xattaxtaga yozayotgan harf yoki uning unsurlari o'quvchilarga aniq ko'rinish tursin.

2. Harflarni oldindan yozib qo'ymaslik kerak, chunki o'quvchilar o'qituvchining yozayotganidagi qo'l harakatlarini ko'rmasalar, harflarni ko'r-ko'rona ko'chirib oladilar. Har bir harfning yozilishini o'quvchi to'g'ri o'zlashtirib olishi uchun dars jarayonida o'qituvchi tushuntirib, ko'rsatib yozishi maqsadga muvofiqdir.

3. Xattaxtada harflarning bir tekis joylashishiga ahamiyat berish, xattaxtaga gigiyenik tomondan to'g'ri yozish, o'quvchilarga ko'rinarli bo'lgan joyidan boshlash kerak. Husnixat mashg'ulotlari uchun ishlangan ko'rgazmali qurollarning harflari xattaxtaga yozilgan harflardan kichik bo'lmasligi kerak. Ko'rgazmalar 30x50 sm o'lchamda bo'lishi lozim.

Ko'rsatilayotgan narsaning tasvirga xarakteriga yozilishiga yoki biron mavzuni yoritib berishga qarab jadvallarni quyidagi besh guruhga bog'lash mumkin:

- matnli;
- raqamli;
- grafik;

- illyustratsion;
- aralash.

Ayrim o'qituvchilar ko'rgazmali qurollarni turlariga yetarli e'tibor bermay, ularning bir-biridan yaxshi ajrata olmaydilar. Har bir jadval o'z spetsifikasiga qarab ishlanadi va alohida bir vazifani bajaradi, shuning uchun ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har bir jadvalning vazifasi quyidagicha:

Testli jadvallar: bu jadvallar bir yoki bir necha alohida harflar, so'zlar, gaplardan tuziladi. Boshlang'ich sinfda tayyorlanadigan matnli jadvalga misol qilib grammatika va orfografiyadan ishlangan jadvallarni ko'rsatish mumkin.

Raqamli jadvallar: bu jadvallar raqamlardan yoki raqamli materiallardan tuziladi. Raqamli jadvallarga misol qilib ko'paytirish og'zaki hisoblash, sonlar qatori jadvallarni ko'rsatish mumkin.

Grafik jadvallar: grafik jadval qator shartli belgilar: chizmalarning sxemalari, diagramma va rasmlardan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bunday jadvallarga misol qilib maydonlarning o'lchamlari, jismlarning hajmlarini o'lchami va ayrim rasmlarni ko'rsatish mumkin.

Illyustratsion jadvallar: bunday jadvallar alohida rasmlar, portlar va fotosuratlardan iborat bo'ladi. Bunga misol qilib anatomik rasmlar, o'lchov birligi jadvallari va boshqalarni olish mumkin.

Aralash jadvallar: o'quv jadvallarning asosiy yo'llanmalariga qarab, quyidagi 4 guruhga bo'lish mumkin: a) bilish; b) tushuntirish; d) mashq qilish; e) ma'lumot berish.

Bilish jadvali: bunda jadvaldan o'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan vaqtda qo'llaniladi.

Tushuntirish jadvali: bunda jadvaldan o'quvchilar tomonidan bajarilayotgan ba'zi bir ommaviy mashg'ulot yoki ularda amaliy mashg'ulot xarakteridagi malakalarni hosil qilishda foydalaniladi. Bu jadval qisqa tushuntirishlar, ko'rsatmalar bilan berilgan rasm va chizmalarga "Partada to'g'ri o'tir", "Chiroyli va toza yoz", "Ruchkani tog'ri ushla" kabi plakatlar misol bo'ladi.

Mashq qildirish jadvali: boshlang'ich sinflarda bolalarga kundalik hayot uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar berib boriladi. Bunday malakalar toza, chiroyli va to'g'ri yozishga o'rgatishdir. Bolalarda toza va chiroyli yozuv malakasini hosil qilish lozim. "Yozuv qoidalariga rioya qiling", degan rasm o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarini bajarishda hamda mashq qilish vaqtlarida katta yordam beradi.

Ma'lumot beruvchi jadval: bunday jadval o'quvchilarga o'tgan materialni qaytarishda hamda ba'zi bir esda saqlab qolmaydigan so'zlarni, arifmetik raqamlarni yoki ayrim qiyin harflarning unsurlarini eslashlarida katta yordam beradi.

Chiroyli yozuvga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali vositalarga "To'g'ri o'tir!" plakati, bosma harf shakllari ifodalangan kartonlar, xattaxta, o'quvchilar qo'lidan ushlab yozdirish kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o'rgatishda uning bosma shakli ko'rsatilib farqli jihatlari izohlanadi.

Yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko'rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi. Masalan: **o o** harfi birikmasining unsurlari yoki harf o'quvchilarni yodidan chiqib qolgan bo'lsa, shu harflarning yozilishi tasvirlangan jadvaldan foydalanish mumkin. Bu jadvaldan foydalanganda o'quvchilar **o o** harfining to'g'ri yozish qoidalarini eslariga tushirib oladilar va o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Ko'rgazmali qurollarning tashqi ko'rinishining ham katta ahamiyati bor. Ular haddan tashqari ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishi va estetik did bilan oddiy qilib ishlanilishi lozim. Agar jadval yoki jadvallarning chetlari har xil gullar va bezaklar bilan ishlangan

bo'lsa, o'quvchilar asosiy diqqatini tushuntirilayotgan darsga emas, bo'lak bezaklarga beradilar. Har bir ko'rgazmali qurol orqadagi o'quvchilarga ham aniq ko'rinib turishi va o'qishga oson bo'lishi lozim. Ko'rgazmali qurollardan o'qitish jarayonida faqat zarur bo'lgan vaqtda foydalanish kerak.

O'qishning birinchi kunidan boshlab harflar va ularning ayrim unsurlarini mumkin qadar tegishli ko'rgazmalar bilan o'rgatishlari lozim. O'quvchilar harf va belgilarning yozilishini yaxshi ko'ra olmaydilar. Natijada noto'g'ri ifodalaydilar. Ko'rgazmali qurollarni bemalol ko'ra oladigan darajada qilib yozish kerak. Bu masofa taxminan 6-7 metr bo'lib, ko'z bilan kitob o'rtasidagi masofadan 19-20 marta uzundur. Shuning uchun jadvallarni bajarish vaqtida harflarini shuncha hissa yirik yozish kerak.

Jadval va rasmlar shunday osilishi kerakki, oldingi partada o'tirgan bolalar orqada o'tirgan bolalarning ko'rishiga xalaqit bermasin. O'quvchilarning yozishlari uchun qiyinchilik tug'dirgan ayrim harf va uning unsurlarini bir necha marta katta qilib ko'rsatish mumkin.

Ta'limda ko'rgazmalardan foydalanishga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Ko'rgazmalar o'quvchilarda ko'rgazmali, obrazli tafakkurni rivojlantirishga yordam berilishi lozim.

2. Ko'rgazmali qurollar o'rganilayotgan o'quv materialini o'zlashtirishda nazariy bilimlarni aniqlashtirishga imkon yaratish kerak.

3. Ko'rgazmali qurollardan maqsadga muvofiq, o'rganiladigan mavzuning asosiy muhim masalalarini o'zlashtirishga bevosita yordam beradigan holda foydalanish kerak.

4. Ko'rsatiladigan tajriba, asbob-uskunalarni namoyish qilishda ularning tuzilishini aniq tushuntirish, butun sinf uchun to'la ko'rinishini ta'minlash va tushuntirishlarni xattaxtaga ilingan rasmlar, daftardagi yozuvlar bilan qo'shib olib borish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda husnixat darslarida nazariya rolining kuchaytirilishi o'qitish mazmuni va metodlarinigina emas, balki har xil ko'rsatmali vositalardan foydalanish mazmuni xarakterini ham qayta ko'rishni talab qiladi. Uzoq vaqt davomida ko'rsatmalilik ayniqsa, o'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida umumlashtirishni shakllantirishning sezish asosini yaratish uchun muhim hisoblanib kelardi va abstrakt tafakkurning rivojlanishiga qarab unga bo'lgan zarurat asta-sekin olib tashlandi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning individual xususiyati, bilim darajasi, o'tilayotgan mavzularga mos tanlangan ko'rgazmalar o'quvchilarning bilimini va dunyo-qarashini kengaytirishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. "Adolat" gazetasi.* – T.: 2010-yil, 29-yanvar. №4.

2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. *"Boshlang'ich ta'lim" jurnali.* 2006-yil, 5-son.

3. Mamatova G. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi.* – T.: "Istiqlol", 2010.

4. Matchonov S. va b. *Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.* – T.: "Yangiyo'l poligraf servis", 2008.

5. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. *Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. 1-ma'ruza matni,* – T.: TDPU, 2002.

6. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* – T.: "Ensiklopediya", 2-tom.

Jo'rabek TURSUNOV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

V–VII SINFLAR MEHNAT TA'LIMI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Maqolada muallif umumta'lim maktabi mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga oid bir qator qoidalar asosida ishlab chiqilgan modelni taklif etadi. Mazkur model o'z ichiga masalalar, metodlar, pedagogik vositalar, mezonlar va ko'rsatkichlarni qamrab olishi mutaxassis tomonidan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Mashg'ulot, model, pedagogik jarayon, faoliyat, qadriyat, kreativlik, shaxsiy xususiyat, imkoniyat, usul, aloqadorlik.

В статье автор предлагает модель для формирования креативных способностей учащихся на уроках труда в общеобразовательных учреждений. Этот модель включает в себе задачи, методы, педагогические средства, критерии и указания обоснованные специалистом.

Ключевые слова. Модель, педагогический процесс, деятельность, креативность, педагогический опыт, способность, метод, обучения.

In article the author offers model for formation of creative abilities of pupils at manual training in educational institutions. This the model includes in itself tasks, methods, pedagogical means, criteria and instructions proved by the expert.

Key words. The model of pedagogical process, activity, creativity, pedagogical experience, ability, the method of training.

Etimologik jihatdan model (lotincha, *modulus* so'zidan olingan) – o'lchov, namuna ma'nolarini anglatadi. Falsafiy ma'noda “model” “asl nusxasi, uning xossalari va tuzilmalari to'g'risidagi bilimlarni saqlash va kengaytirish uchun uni almashtirish yoki boshqarish uchun xizmat qiladigan tabiiy yoki ijtimoiy reallikning inson madaniyati mahsulining ma'lum fragmentining analogi”ni ifoda etadi.

V.A.Shtoff model deganda, bir tomondan, borliqning u yoki bu qismini soddalashtirilgan (sxemalashtirilgan yoki ideallashtirilgan) va ko'rsatmali shaklda qayta tiklovchi, fikran yoki amaliy jihatdan yaratilgan tuzilmani tushunadi. Ikkinchi tomondan, dunyo ilmiy nazariyasining tarkibiy elementi bo'lib, u ma'lum darajada dalillar, kuzatishlar, o'lchashlar bilan cheklangan bo'lishi kerak.

Bir qator qoidalar asosida ishlab chiqilgan umumta'lim maktabida mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonining biz taklif etayotgan model o'z ichiga masalalar, metodlar, pedagogik vositalar, mezonlar va ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

“Ijodiy erkinlik” modelining nomi yetakchi qoida – erkinlik prinsipiga asoslangan, ya'ni bola shaxsi uning dunyoqarashi boyligi va xilma-xilligida erkin namoyon bo'lish

imkoniga asoslangan. Noyoblik prinsipi psixologik reallikning istagan elementiga betakror, o'tkinchi bo'lmagan qadriyatga ega va uning noyobligini tushunish, anglash, o'zaro ta'sirlarni tartibga solish, mohiyatiga javob berish bo'yicha maxsus kuchlarni talab qiluvchi sifatida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Shuningdek, mazkur prinsip pedagogik jarayonning har bir ishtirokchisiga maqsadga erishish vositasi sifatida emas, balki mustaqil qadriyat sifatida munosabatda bo'lishi nazarda tutiladi. Bu prinsip o'qitish, tarbiyalash jarayonining mazmuni, shakllari va metodlarining barcha o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari, qobiliyatlari va moyilliklarga adekvatligini nazarda tutadi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos sifatida o'quvchi to'g'risida yaxlit, pedagogik bilim (uning fiziologik, psixologik, yosh xususiyatlari, ijtimoiy va axloqiy namoyon bo'lishlari) tan olinadi.

Yuqoridagi shaxs xususiyatlarini inobatga olib, o'quvchilar kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish masalasini hal qilish maqsadida biz quyidagi modelni taklif etdik.

Birinchi bosqich (V sinf)

Nomi: "Ijodiy xilma-xillik".

Asosiy mazmuni: o'quvchilarning "qo'l ijodiyoti" tajribasini to'plash; ijodning ko'p va har turdagi shakllari bilan tanishuv; bu har xillikda o'zi uchun eng maqbul bo'lgan o'zini ifodalash usullarini izlash; ijodiy g'oyalarni amalga oshirishning yangi yo'llarini tadqiq etish va o'zlashtirish.

Birinchi bosqichda o'quvchilarga xilma-xil predmetlar bilan har tomonlama, bevosita o'zaro ta'sirlashuv imkoniyati yaratiladi. O'quvchilar tasviriy faoliyatning turli usullari va uslublarini o'zlashtiradilar;

- ular iplardan, simdan, faner bo'laklari, foydalanishga yaroqsiz (ezilgan, bukilgan ...) qog'ozdan, gugurtdan, qand qog'ozlaridan, tuxum po'chog'idan va hokazolardan o'z asarlarini yaratadi;

- arxitektor, qo'g'irchoqboz, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi va hokazo kasblar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi;

- qo'g'irchoqboz, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi va hokazolarni rollarini sinab ko'radi.

Birinchi bosqichda vujudga keladigan ijobiy kechinmalar (hissiy ijobiy bo'lgan) mustahkamlanadi va faollashadi. Bu kechinmalar ijod (qo'l ijodi) jarayonida o'quvchilar his etadigan "o'ziga xos buyuklik hissi"ning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Elementar ijodiy jarayonda o'quvchilar sezadigan faol qiziqish va "buyuklik hissi" kreativlikning irodaviy asosining rivojlanishi va o'quv jarayonini bundan keyin amalga oshirish uchun o'ziga xos "energetik asos" bo'ladi.

Asosiy maqsad – o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish:

- o'quvchilarda yangi ma'lumotlar olish malakasini avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan avvalga shaxsiy tajriba bilan taqqoslash malakasining shakllanishiga yordam berish;

- turli xil faoliyatlarda muqobil yondashuvlarda va qarama-qarshi yo'nalishlarda o'quvchilarga umumiy yo'llarni topishda yordam ko'rsatish;

- muammoni yoki ijodiy topshiriqni hal etishda (yonlanma tafakkur) o'quvchilarda "chet (begona) axborot"ga sezgirlikni rivojlantirish.

Asosiy metod – muammolashtirish.

Pedagogika fanida muammoli vaziyat deb: 1) shaxs yoki guruhning faoliyati amalga oshadigan holatlar va sharoitlarning munosabati ziddiyatga ega bo'lgan va bir qiymatli yechimga ega bo'lmagan; 2) vaziyatli tarzda vujudga keladigan bilishga ehtiyoj

asosida tafakkurning tug'ilishi shartlarining psixologik modeli, subyektning bilish obyekti bilan aloqa shakli. Muammoli o'qitish (bunda o'qituvchi muammoli vaziyatni muntazam yaratadi va o'quv materiallarini hal qilish bo'yicha o'quvchilar faoliyatini tashkil etadi) o'quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirishga, ularning mantiqiy, ratsional, kritik va ijodiy tafakkurini hamda bilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlarida muammoli o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu yerda ko'pincha muammoli vaziyatni yechishning variantlari cheksiz miqdorda bo'lishi mumkin. Masalan, biror yechimga kelish zarur bo'lgan matematikdan farqli ravishda mehnat ta'limi mashg'ulotlarida muammoli vaziyat ochiqlicha qolishi mumkin. Ya'ni o'zaro ta'sirlashuvga erishish va izlashning to'xtamaydigan jarayoniga aylanishi mumkin.

Pedagogik vositalar va usullar

1. O'quvchilarni yangi atamalarni o'zlashtirish, “ishlatib ko'rish” va turli kasblarning oddiy malakalarini o'zlashtirish (zargar – sim, biser bilan ishlash; restovrator – saqlab qolingan elementlar bo'yicha maket yoki rasmni tiklash; nusxa ko'chirish va h.k.).

2. Taniqli kishilar bilan uchrashuv o'tkazish. Mashg'ulotlarga inson faoliyatining turli sohalari yorqin vakillarini taklif qilish.

3. Qo'l ostida mavjud materiallardan o'quvchilar ijodkorligini oshirish maqsadida “kutilmagan” darsdan foydalanish (o'quvchilar tayyorgarligisiz).

Ikkinchi bosqich (VI sinf)

Nomi: “Fantastik – ijod”.

Asosiy mazmun: tajribadan foydalanish, qayta ishlash usullari va metodlarini o'zlashtirish.

Ijodiy qobiliyatlar xavf ostida ishlash qobiliyati bo'lib, original g'oyalarni aytish, biror yangilikni ixtiro qilish kiritiladi. Biroq kreativlikning investitsion nazariyasiga (R.Sternberg) muvofiq maktab o'quvchisini boshidanoq ma'lum muammolarning original yechimlarini faqat yaratishga, o'ylab topishga, aniqlashgagina o'rgatib qolmay, balki unda o'z g'oyalarni himoya qilish, ularning qadrli ekaniga boshqalarni ishontirish qobiliyatini shakllantirish kerak.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilar fantastlarning ijodi bilan tanishadilar, “chegasasiz” fantaziya qilishni o'rganadilar. “Oddiy” predmetlarning tasodifiy qo'llanilashini topishadi, “fantastik g'oyalarni va qimmatli” loyihalarni himoya qilishadi.

Asosiy maqsad – o'quvchilarning ijodning oldindan bashorat qilib bo'lmasligini anglashlari va sezishlaridir.

Asosiy vazifa – investitsion qobiliyatlarni rivojlantirish:

– o'quvchilarda izlanishlarda sezgirlikni odatdagi oddiy narsada tasodifiy yangilikni ko'ra bilish qobiliyatini rivojlantirish;

– assotsiatsiyalash (tushunchalarni yaqinlashtirish) metodikasi bilan tanishtirish;

– idrokning moslashuvchanligini rivojlantirish;

– o'quvchilarda tanqid malakalarini shakllantirishga imkon berish (o'z ijodiy topilmalarini baholash, ularda kuchsiz va kuchli jihatlarini ajratish, bolalarni ijodiy g'oyalar qadriga yoki yaroqsizligiga ishontirish).

Asosiy metod – ijodiy topshiriqlarning nomuvofiqligi, mantiqsizligi.

Pedagogik vositalar va uslublar.

1. O'qituvchi topshiriqni va uning mazmunini tushuntirishning nomuvofiqligi.

2. O'quvchilarni o'z g'oyalarni yoqlashga undash. Buning uchun o'qituvchi

rollarni tez-tez o'zgartirishdan foydalanadi, tushunmaydigan sodda odamdan agressiv kayfiyatdagi konservatorgacha.

3. "Aytib turuvchi" atrofdagilarni yaratish. Bu ko'rsatmali materiallar va qurilmalardan "mavzusiz" foydalanishdan iborat. Predmetlar va qo'llanmalar ijodiy topshiriq bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan, biroq ular uzoq ma'noli sohalardan aytib turish tarzida foydalanish mumkin.

4. Boshqa fanlardan bilimlarni jalb qilish va foydalanish.

5. O'quvchilarni dizayn sohasidagi yangi texnologiyalar va zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishtirish.

6. O'quvchilarning ommaviy chiqishlari uchun (loyihani himoya qilish, ixtironi taqdirlash va h.k.) baholarning "auksion" tizimidan foydalanish.

Mazkur tizimning qoidasi shunday iboratki, baholash (100 ballik) o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bahoni taklif etayotgan o'quvchi ishonchli dalillarni keltirish kerak.

Uchinchi bosqich (VII sinf)

Nomi: "Ijod – uslub".

Asosiy mazmuni: o'quvchilarda insonning ijodiy salohiyatini qaror toptirish, amalga oshirish va rivojlantirish namunalari, hayotiy ijod imkoniyatlari namunalari bo'ladigan real odamlarning biografiyalari, ijodi bilan tanishtirish.

Mazkur bosqichning markaziy g'oyasi – bu har bir kishida o'zining shaxsiy hayoti uslubini yaratish imkonining mavjudligidir. Hayotiy uslub ("hayotiy reja", "yo'l ko'rsatuvchi obraz" A.Adler [1], "hayotiy strategiyasi") shaxsning ijodiy qobiliyatlari ta'sirida shakllanadi. Hayot stili – bu insoniy munosabatlar dunyosida o'z o'rnini aniqlash va "o'z-o'zining adekvat real obrazini topa olish ko'nikmasidir". U o'z ichiga individualizmning mavjud bo'lishining betakror manzarasini birgalikda olingan va belgilab beruvchi xulq va odatlar xususiyatlari, usullarining noyob birikmasini qamrab oladi.

Biroq o'quvchilar o'zini va xususiy hayot stilini yaratish imkoniyati, ya'ni hayotiy faoliyat katta ijodiy kuchlanishni talab etishni anglab yetishlari juda muhimdir. "Ijodiy salohiyat, – bu odamning orzulari, fikrlari, intilishlari bilan uning real, mavjud bo'lgan imkoniyatlari va resurslari o'rtasidagi yuzaga keladigan psixo-energetik kuchlanish (zo'riqish)dir" [2]. Ijodiy salohiyat faqat ijodiy kuchlanishda rivojlanadi va amalga oshiriladi, ya'ni avval erishib bo'lmagan maqsadga erishishga yo'naltirilgan kuchlanishda rivojlantiriladi va namoyon bo'ladi. Agar odamning harakatlari uning mavjud imkoniyatlaridan ortiq bo'lsa, u holda bu harakatlar haqiqatdan ham ijodiy, deb qaraladi.

Maqsadlar: 1) o'quvchilar tomonidan ijodiy rivojlanishning cheksizligini anglashlari; 2) kundalik hayotda ularning ijodiy malakalardan ongli qo'llanishlari; 3) har bir o'quvchining o'z shaxsiy ijod uslubini egallashlari.

Asosiy vazifa: – o'quvchilarda doimiy o'zini rivojlantirishga ichki ko'rsatmani shakllantirishga imkon berish;

– o'quvchilarga o'z kuchlariga ishonchni sezishlari uchun imkoniyat va asoslar berish;

– boshqa bir shaxsning nostandart namoyon bo'lishlariga chidamni, o'zida va boshqalarda o'ziga xoslikni qadrlash ko'nikmasini rivojlantirish;

– ijodiy uslubni izlashda va ishlab chiqishda yordam berish;

– mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida egallangan ijodiy malakalar va qobiliyatlarni kundalik hayotda ongli ravishda qo'llash usulini ko'rsatish.

Asosiy metod: Hayot faoliyati namunalarini taqdim etish.

“Ijod qilish uchun (yaratish uchun) madaniyatni o'zlashtirishning yangi darajasiga taqlid qilib chiqish yo'li bilan ijod qiluvchi (yaratuvchi) kishining faolligi namunasini o'zlashtirib olish va mustaqil ravishda davom ettirishga intilish kerak” [3]. O'qitishning oxirgi yili o'quvchilarni yetuk kreativlik, ya'ni ijodiy uslub bilan tanishtirishga to'liq bog'langan.

Agar birinchi bosqichda narsalar dunyosini va o'zining unga bo'lgan munosabatini; ikkinchi bosqichda, fantaziyalar dunyosini va o'zini uning ustidan hukmronligini anglab olishsa, u holda bu yerda o'zlari uchun inson tomonidan yaratilgan “yangi predmetlarni” kashf etishadi. O'zlari bunga aloqadorliklarini sezishadi.

Pedagogik vositalar va usullar.

1. Katta hajmdagi turli xil vizual axborot – fotosuratlar, maketlardan aniq ifodalangan uslub xususiyatiga ega turli buyumlardan doimiy foydalanish.

2. Bir necha ma'lumotlar bo'yicha yetishmaydigan elementlarni “ko'rib bitkazish”ga doir ijodiy topshiriqlar, bunda stilistikani (film va rolik lavhasini – chiziqlar dinamikasi va mavzusi bo'yicha) saqlab qolish. Rassomlik, zargarlik san'ati, me'morchilik, zamonaviy dizayn va hokazolar vakillariga taqdim qilishga doir topshiriqlar.

3. Bajarilgan ishlarning o'ziga xosligiga diqqat-e'tiborni qaratish va yasalgan buyumning sifatigina emas, balki g'oyaning originalligi, yangiligini (maket tarzida taqdim etilgan) rag'batlantirish.

4. Hayotiy muammolarni “ularni oldindan ko'ra bilash” vositasida hal etish strategiyasi bilan tanishtirish.

Biz uchunchi bosqichni yakuniy bosqich tarzida emas, balki bundan keyingi rivojlanish uchun yangi impuls beruvchi, “kelajakka qarmoq tashlash”, uch yil o'quv reglamenti chegarasida amalga oshirib borishni hamda bunday keyingi ta'lim olish jarayonida hayot yo'liga aylanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

(Izoh – tahr.) Kreativ so'zi – o'quvchilarning yaratuvchanlik, turli qirralarda ijod qilish, noyob qobiliyatlilik sifatlarini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adler A. *The course of human life as a psychological problem* //
2. *Human Development*, № 11. – P.184-200.
3. Варламова Е.П., Степанов С.Ю. *Психология творческой уникальности человека*. – М.: ИП РАН, 2002.
4. Дружинин В.Н. *Психология общих способностей*. – СПб.: Питер, 2000.
5. Торшипова Е.М., Морозова Т.В. *Развитие эстетических способностей детей 3-7 лет: Теория и диагностика*. – М.: ИСЭБ PAO, 1994.
6. *Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi*. – T.: “Yangiyo'l poligraf servis”, 2010.

Rahima KARAYEVA,

Toshkent shahridagi 307- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinflarga ta'lim berishda o'qituvchi amal qilishi zarur bo'lgan mezonlar va ularning ahamiyati haqida so'z boradi. Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual yosh xususiyatlari, o'ziga xos psixologiyasini hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratgan holda, maqola muallifi bolalarda milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish misolida o'zining mualliflik texnologiyasini tavsiya etgan.

Kalit so'zlar. O'quv jarayoni, boshlang'ich sinf, ta'lim, tarmoqlar, dialogli o'qitish, matn yaratish, WEER texnologiyasi, pedagogik, zamonaviy, o'yinlar.

В статье описываются пути применения современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе начальной школы, которая позволит ускорит процесс обучения младших школьников с учетом их индивидуальных особенностей. Автор отмечает, что применение современных информационных технологий на уроках повышает наглядность изложения изучаемого материала, стимулирует самостоятельную деятельность учащегося, обеспечивает поиск и переработку различной информации, позволяет индивидуализировать и разнообразить обучение.

Ключевые слова. Образовательный процесс, начальная школа, применение информационно-коммуникационных технологий, младший школьный возраст, WEER технология, современные игры .

In article ways of application of modern information and communication technologies in educational process of elementary school which will allow are described will accelerate process of training of younger school students taking into account their specific features. The author notes that application of modern information technologies at lessons increases presentation of a statement of a studied material, stimulates an independent deya-telnost of the pupil, provides search and processing of razlichkny information, allows to individualize and diversifies training.

Key words. The educational process of the primary school, use of information and communication technologies, younger school age, WEER technology, modern games.

Bugungi kunda sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiyaning o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish lozim. Shu jumladan, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish davr talabi. Bu, o'z navbatida, bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang'ich sinf davri ekanini nazarda tutadigan qator izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

- har bir pedagog o'z ustida tinmay izlanib, nafaqat o'z sohasi, balki ijtimoiy, ma'naviy hayotning yangiliklaridan ham xabardor bo'lib borishi;
- har bir darsga shaxsiy dastur asosida tayyorgarlik ko'rish;
- maktab o'quvchilari bilan muntazam ravishda muloqotda bo'lish;
- turli interfaol treninglar yoki mutaxassislar taklif etilgan seminarlarda ishtirok etishi;
- bevosita, ajriba-sinov o'tkazilayotgan boshqa maktablardagi yangiliklar va imkoniyatlarni kuzatishi;
- Internet tarmog'idan keng foydalanishi zarur.

Hozirgi vaqtda “Tarmoqlar (Klaster)”, “Dialogli o'qitish usuli”, “Matnlar bilan ishlash”, “Xulosa (VEER texnologiyasi)” kabi turli xil pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan yo'nalishi va maqsadi bilan farqlanadi. Lekin ularning umumiy jihati shundaki, bu ta'lim texnologiyalarining barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy hamda mustaqil tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

O'quvchilar tafakkurini shakllantirishga samarali ta'sir etadigan ushbu zamonaviy pedagogik texnologiya usullarining har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Tarmoqlar (Klaster) – fikrlarning tarmoqlanishi bo'lib, u o'quvchilar mavzuni chuqur o'zlashtirishiga qaratilgan hamda mavzuga taalluqli aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan tarmoqlar shaklida o'rgatadi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchilarni jalb qilish maqsadida bir so'z yozadi. Ushbu so'z ularda qanday tasavvur hosil qilganini so'raydi hamda o'sha tasavvurda hosil bo'lgan so'zlarni yozish, bu so'z atrofida qanday maydon hosil bo'lganini ularning o'zlari topib yozishlari kerakligini tushuntiradi. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tasavvur qilish darajasi hisobga olinadi.

Shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarni 5-6 tadan guruhlariga ajratib, har bir guruhga butun hamda bo'lak munosabatni hosil qiluvchi so'z beriladi. So'ngra guruhdagilar berilgan so'zlarning ma'nolarini topadilar hamda ushbu ma'nolarni bir-biriga birlashtiradi. Bir qancha so'zlar berib, ular atrofiga butun qismlarni (bo'laklarni) ajratuvchi kichik ma'nolarni birlashtirish kerakligi aytiladi va har bir guruhdagi o'quvchilar birgalashib bu masalalarni hal qiladilar.

Dialogli o'qitish – bu usulni mantiq qonunlariga amal qilgan holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilarga suhbat vaqtida o'zaro izchil bog'langan, qiziqarli savollar bilan murojaat qilinishi ularning mantiqiy fikrlashiga asos bo'ladi. O'quvchilarga dars davomida savol berish usulidan foydalanish katta samara beradi.

Matn yaratish va matn ustida ishlash – bu usul o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar voqea-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini anglashi, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirishlari natijasida tafakkur va nutq rivojlanadi.

O'quvchilarga matnlar ustida ishlashni o'rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlik (kreativlik)ni shakllantirish mumkin. O'quvchilarni ijod qilishga undashning asosiy mohiyati – tafakkurni muttasil o'stirib borishdir. Har bir o'quvchi o'rganganlarini mushohada qilish bilan amaliyotga tatbiq etishi, tizimga solishi, mustaqil ravishda muhokama qilishi uning tafakkuri rivojlanganining belgisidir.

VEER texnologiyasi – bu ko'p tarmoqli, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan usul bo'lib, mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Masalan, afzallik va kamchilik, ijobiy va salbiy, foyda va zararlari belgilanadi. Natijada o'quvchining tanqidiy, tahliliy hamda mantiqiy fikrlashi rivojlanib boradi.

Ushbu interfaol texnologiyani mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Xususan:

- darsning boshida: o'quvchining o'z bilimlarini erkin faollashtirishiga ko'maklashadi;

- mavzuni o'rganish jarayonida: o'quvchi mavzuning asoslarini chuqur anglab yetishi osonlashadi;

- yakunlash bosqichida: o'quvchining mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tartibga solish imkonini beradi.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashning muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Belgilangan vaqt oralig'ida o'quvchilarga muayyan mavzuning mazmun-mohiyatini to'liq yetkazib berish, ularda shu mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Darsda o'quvchilarning erkin, ijodiy ishlashlari uchun zarur sharoit yaratish kerak. Buning uchun darslarning har bir qismi aniq loyihalashtirilishi, o'quv materialini bilim oluvchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirish foydadan xoli emas.

An'anaviy ta'lim metodlari bilan birga, interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlardan foydalanganda asosiy urg'u o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlariga imkon berilishi hisoblanadi. Interfaol metodlar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Darslarda har xil pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otib ularning faolligini oshiradi. Natijada o'zlashtirish darajasi ortadi. Tez va to'g'ri fikrlashga yo'naltirish, mashg'ulot mazmunini guruhlarda tahlil qilish, o'yin vositasida bilim egallash, natijalarni tadqiq etish, kuzatuv, kichik guruhlarda ishlash, bahs, anketa so'rovlarini tashkil etish, og'zaki va yozma mashqlar bajarish, videofilmlar namoyishi, kompakt disklar va ko'rgazmali materiallardan foydalanish, turli xil kompyuter dasturlarini qo'llab, darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida, avvalo, o'quvchining, birinchi navbatda, partada to'g'ri o'tirish ko'nikmasini shakllantirish, qo'l motorikasini to'g'rilash katta ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun har bir yangi darsda qomatni to'g'ri tutish, oyoqlarni to'g'ri qo'yish, ruchkani qaysi barmoqlar bilan ushlash kerakligini aytib va amalda ko'rsatib berish lozim. Darsda husnixat mashqlarini o'tkazib, ta'limiy diktantlar yozdirib turish, shu asosda bolaning o'z-o'zini tekshirishi va yo'l qo'ygan xatolarini anglab yetishi, bir so'z bilan aytganda, o'quvchining mustaqil fikrlash va fikrini yozma bayon etish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining rasmlarga qarab o'z fikrini bayon qilishi, matnni o'qib, reja asosida insho yozishi, mavzular asosida bilimlarini og'zaki va

yozma savol-javoblar orqali tekshirishi uning ogʻzaki nutqini, umuman, savodxonlik darajasini oshiradi. Eng muhimi, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda oʻyinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash taʼlim samaradorligini oshiradi.

Taʼlim jarayonida oʻquvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlangʻich sinfda oʻquvchilar tevarak-atrofdagi predmet-hodisalar, ular orasidagi munosabat haqida maʼlum darajada tasavvurga ega boʻladi va oʻz his-tuygʻularini soʻz orqali ifodalay oladilar. Ularda ogʻzaki, yozma va mustaqil fikrlash malakasi shakllanib, boshlangʻich darajadagi mavhum fikriy tahlil va tarkib shakllari oʻsib boradi.

Mustaqil ishni tashkil etishda oʻquvchilarning imkoniyatlariga qarab, ularni oʻz ustida mustaqil ishlashga oʻrgatishda soddadan murakkabga qarab vazifalar berish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ishlarni asosan 3–4-sinflarda oʻtkazish mumkin. Uni tashkil etishda oʻqituvchi bir matn tanlab “Saylanma diktant” oʻtkazib oladi va savollar beradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari faoliyatida didaktik oʻyinlar alohida ahamiyat kasb etar ekan, oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatishda bu usuldan qay darajada foydalanish oʻqituvchi mahoratiga bogʻliq. Taʼlim jarayonini muammoli izlanish, mustaqil ishlash metodi va didaktik oʻyinlar asosida tashkil etish, hech shubhasiz, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining bilimini oshirish bilan birgalikda ularni mustaqil fikrlashga oʻrgatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorugʻ kelajagimizning asosiy omilidir // Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi.* – “Xalq soʻzi” gazetasi, 7-dekabr, 2013.
2. Karimov I.A. *Vatan va xalq mangu qoladi: hikmatli soʻzlar va iboralar toʻplami* – T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
3. “Boshlangʻich taʼlim” jurnali, 12-son, 2013.
4. “Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnali, 7–8-sonlar, 2013.
5. “Maʼrifat” gazetasi, 5-fevral, 2014.

Rohila JALOLOVA,

Andijon shahridagi 31-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARNI TIZIMLI TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu yangicha ko'rinishdagi dars ishlanmasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishida og'zaki va yozma vositalardan unumli foydalanish haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini yanada o'stirishi va yuksaltirishiga asos bo'lishini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ona tili darsi, didaktik materiallar, ko'rgazmali o'yinlar, ko'nikma, malaka, rivojlantirish.

В этой разработке урока рассматривается продуктивное применение у учащихся умений использовать устные и письменные навыки изложения своей мысли. Также автор утверждает, что использование интерактивных методов на уроках родного языка способствует усвоению содержания учебного материала и развитию интеллектуальных способностей обучаемых.

Ключевые слова. Урок родного языка, дидактические материалы, наглядные игры, навыки, развития учебного процесса.

In this lesson discusses the development of the productive use of the skills students use oral and written skills present his thoughts. The author argues that the use of interactive methods in lessons of mother tongue helps the absorption of the content of educational material and development of intellectual abilities of students-youth.

Key words. Native Language, lesson, methods, tasks, didactic materials, questions and answers, exhibition games, alive role playing.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularning intellektual salohiyatiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, vatanparvar, buyuk davlat barpo etish yo'lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Respublikamizda bu borada keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu xususda shunday degan edi: "... oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lam va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak hech qanday xato bo'lmaydi".

Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida ayniqsa, ona tili ta'limining oldiga qo'yilgan bosh maqsad o'quvchining mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutqni to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Darsning mavzusi:

Bog'langan qo'shma gaplar yuzasidan mustahkamlash darsi

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga o'rgatish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

I. Dars turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini umumlashtiruvchi dars.

II. Darsda foydalanilgan metodlar: interfaol: “Alifbo”, “Bu bizniki”, “Musiqali topshiriq”, “Kim chaqqon va topqir” o'yinlari.

III. Darsda foydalanilgan jihozlar: Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asari, “Imlo lug'ati”, Alifbo, test tarqatmalari, bog'langan qo'shma gaplar yuzasidan ko'rgazmali jadvallar, videoprojektor, monitor, slaydlar.

IV. Dars shiori: *Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.*

(Alisher Navoiy)

V. Tashkiliy qism:

a) o'quvchilar bilan salomlashish;

b) sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini va gigiyenik holatini ko'zdan kechirish;

d) davomatni aniqlash;

e) sinfni uch guruhga bo'lib olish va ularni nomlash;

1-guruh: “Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar”

2-guruh: “Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar”

3-guruh: “Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar”

f) darsni musobaqa tarzida o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

g) ma'naviyat daqiqasi.

1. “Raqamlar tilga kirganda” o'yini.

Raqamlar tilga kirganda o'yinida oq qog'ozlarga yozilgan tarixiy, siyosiy sanalar guruhlariga navbatma-navbat o'qituvchi tomonidan ko'rsatib boriladi. Guruhlardan bilgan o'quvchi avval ko'rsatilgan raqamlarni o'qiydi va u qanday sana ekanligini sharhlab aytib beradi.

1441-yil – G'azal mulking sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan.

26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni.

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilingan kun.

1992-yil 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi qabul qilingan kun.

4-modda – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 4-moddasida “O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir” deyilgan.

1929-yil – Ilk bor “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi” ishlab chiqilgan.

1993-yil 2-sentabr – “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi” joriy etish to'g'risidagi qaror qabul qilingan.

1989-yil 21-oktabr – O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun.

2. “Til – ma'naviyat ko'zgusi” ekanligi slayd orqali tushuntiriladi.

VI. O'tilgan mavzuni takrorlash.

1. Zakovat savollari guruhlarga tarqatiladi:

1-savol: **bo'lsa, esa** so'zlari qanday munosabatda bo'lgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi?


2-savol: **bo'lsa, esa** so'zlari qo'shma gap qismlarining qayerida keladi?

3-savol: **bo'lsa, esa** so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda vergul qayerida qo'yiladi?

2. O'quvchilarning uy vazifalari tekshiriladi hamda rag'bat kartochkalar berib boriladi.

VII. Yangi mavzuni tushuntirish

Hurmatli va aziz o'quvchilar, biz bu yil ham o'zbek tilshunosligining sintaksis bo'limini o'rganishda davom etmoqdamiz. Siz shu kungacha sodda gap bilan qo'shma gapning farqi, qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar, qo'shma gapning turlari va undan bog'langan qo'shma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha bilimlarga ega bo'ldingiz. Sizlarga yana bir bor o'tilgan mavzularni ko'rgazmali jadvallar orqali eslatiladi:



VIII. Mustahkamlash. 1). **“Alifbo” o'yini.** Tezkor savol-javob o'tkaziladi:

A – zidlov bog'lovchisi – *ammo*

B – va, hamda qanday bog'lovchilar? – *biriktiruv bog'lovchilari*

D – A.Qahorning hikoyalaridan biri – *“Dahshat”*

E – bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi so'z – *esa*

F – nutq tovushlarini o'rganuvchi fan – *fonetika*

G – ayiruv bog'lovchisi – *goh..., goh*

H – gap bo'laklaridan biri – *hol*

I – teng bog'lovchilardan *na... , na* qanday bog'lovchi? – *inkor bog'lovchisi*

- J* – ga qanday qo‘shimcha? – *jo‘nalish kelishigi*
K – gapning muhim belgisi nima? – *kesim*
L – zidlov bog‘lovchisi – *lekin*
M – bir kishining nutqi – *monolog*
N – qaratgich kelishigi qo‘shimchasi – *ning*
O – so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini o‘rgatadigan tilshunoslik bo‘limi – *orfografiya*
P – tinish belgilarini o‘rgatadigan fan – *punktuatsiya*
Q – ikki yoki undan ortiq gapdan tuzilgan gap – *qo‘shma gap*
R – misralar so‘ngida takrorlanuvchi bir xil so‘z – *radif*
S – so‘zlarni gap bo‘laklari bo‘yicha tahlili – *sintaktik tahlil*
T – o‘zbek tili qanday tillar oilasiga mansub? – *Turkiy tillar*
U – so‘zlovchining nutqi qaratilgan so‘z nima? – *undalma*
V – biriktiruv bog‘lovchisi – *va*
X – besh dostonidan iborat bo‘lgan asar – *“Xamsa”*
Y – ayiruv bog‘lovchisi – *yoki*
Z – ammo, lekin, biroq qanday bog‘lovchilar? – *zidlov bog‘lovchilar*
O‘ – da qanday kelishik qo‘shimchasi? – *o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi*
G‘ – **“Shum bola”** asarining muallifi kim? – *G‘afur G‘ulom*
Sh – yozilishi va aytilishi bir xil, ammo ma‘nosi har xil bo‘lgan so‘zlarga nima deyiladi? – *shakldosh so‘zlar*
Ch – juft va takroriy so‘zlar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi? – *chiziqcha*
2. **“Kim chaqqon va topqir?”** o‘yini o‘tkaziladi. Bunda guruhlariga teng bog‘lovchilar yozilgan bittadan kubik beriladi va quyidagi savollar o‘qituvchi tomonidan aytiladi.
- 1-savol. *Biriktiruv bog‘lovchilarni toping?*
2-savol. *Zidlov bog‘lovchilarni toping?*
3-savol. *Ayiruv bog‘lovchilarni toping?*
- 1. Darslik bilan ishlash.**
1-topshiriq. Va bog‘lovchisi ishtirokida ikkita gap tuzish. Uning biri uyushiq bo‘laklarni, boshqa qo‘shma gap qismlarini bog‘lashi aytiladi.
1. **“Bu bizniki”** o‘yini darslikdagi 3-topshiriq asosida o‘tkaziladi. Unda har bir guruh berilgan gaplarning ichida o‘ziga tegishli gapni topib yozib oladi.
2. **Lug‘at diktant.** O‘quvchilarga quyidagi so‘zlar yozdiriladi: haqiqatan, BMT, “Yosh kuch” jurnali.
- 3. Ekranda test savollari ko‘rsatiladi:**
1. **O‘z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ushbu gap qo‘shma gapning qaysi turiga kiradi?**
A. Bog‘langan qo‘shma gap. D. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.
B. Ergashgan qo‘shma gap. E. Sodda gap.
2. **Alisher Navoiy tilshunos va adabiyotshunos olimdir. Ushbu gap tuzilishiga ko‘ra qanday gap turiga kiradi?**
A. Qo‘shma gap. D. Ergashgan qo‘shma gap.
B. Sodda gap. E. To‘g‘ri javob yo‘q.
3. **Qismlari teng bog‘lovchilar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar qanday qo‘shma gap sanaladi?**
A. Ergashgan qo‘shma gap. D. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.
B. Bog‘langan qo‘shma gap. E. A va B javoblar.

4. “Mol-u puling ketsa ketsin, ammo vaqtingni zoye ketgizma” gapi qo’shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Zidlov bog’lovchili bog’langan qo’shma gaplar.
- B. Ayiruv bog’lovchili bog’langan qo’shma gaplar.
- D. Biriktiruv bog’lovchili bog’langan qo’shma gaplar.
- E. B va D javoblar.

5. Boshqaruv yo’li bilan hosil bo’lgan so’z birikmasini aniqlang?

- A. Serquyosh O’zbekiston D. Mehribon ona
- B. Xat yozmoq E. Gul bargi

1. Musiqali topshiriq. Ekranda “Vatan” haqida she’r ko’rsatiladi. O’qituvchi she’rni qo’shiq qilib kuylaydi, so’ngra guruhlariga quyidagi shartlarni aytadi:

1-guruhga: she’rning birinchi misrasidagi va naqoratidagi so’z birikmalarini topish;

2-guruhga: she’rning ikkinchi misrasidagi va naqoratidagi so’z birikmalarini topish;

3-guruhga: she’rning uchinchi misrasidagi va naqoratidagi so’z birikmalarini topish.

VATANIM

*Onajonim aytgan alladan,
Subhi sabo esgan palladan,
Men tug’ilgan uy, mahalladan,
Boshlanadi shu buyuk Vatan.*

NAQORAT

*Bu mening Vatanim,
Bu mening chamanim,
Bu mening qalb qo’rim,
Jon tanim.*

VIII. Baholash: Guruhlarning to’plagan rag’batlarini hisoblab, g’olib guruh aniqlanadi va o’quvchilarning darsga qatnashishiga qarab bilimlari baholanadi.

IX. Uyga vazifa. Qoidalarni yodga olish, 6 ta test tuzish va darslikning 32-betidagi 5-topshiriqni sharti asosida bajarib kelish topshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008
2. Uzviylashtirilgan davlat standarti va o’quv dasturi. 2010.
3. Yusupova Sh. “Noan’anaviy dars talabi”. – Andijon., 2002.
4. Mahmudov N.M. va b. 9-sinflar uchun ona tili darslik kitobi. – T.: “Tasvir”, 2010.

Raxmatilla MUSURMONOV,

T.N Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodimi

ZAMONAVIY RAHBAR VA PEDAGOGLAR FAOLIYATIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy rahbar va pedagogning ma'naviy qiyofasi va intellektual salohiyatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan mustaqil va ratsional foydalana olishning ahamiyati haqida so'z boradi. Muallifning fikricha, zamonaviy o'qituvchilar malakasini oshirish asosida o'tiladigan mashg'ulotlar eski "ishlanmalar" bilan emas, balki shu guruhdagi tinglovchilarning real ehtiyojlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar. Zamonaviy o'qituvchi, uzluksiz ta'lim tizimi, intellektual qobiliyat, texnologik savodxonlik, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv samaradorligi.

В статье раскрывается значение самостоятельного и рационального использования информационно-коммуникационных средств в повышении духовного облика и интеллектуального потенциала современного руководителя и педагога. По мнению автора, занятия на курсах повышения квалификации современных учителей целесообразно организовывать не по устаревшим разработкам, а на основе реальных потребностей слушателей.

Ключевые слова. Современный учитель, система непрерывного образования, интеллектуальные способности, система переподготовки и повышения квалификации учителей, технологическая грамотность, информационно-коммуникационная культура, эффективность управления.

The article reveals the value of independent and rational use of information and communication means in improving mental qualities and intellectual potential of modern leader and teacher. In the author's opinion, the courses of improving the qualification of modern teachers are expedient to be arranged on the basis of real needs of the audience groups, than to outdated development.

Key words. Modern teacher, the system of continuous education, intellectual ability, the system of retraining and improvement of qualification of teachers, technological literacy, information and communication culture, management efficiency.

Mustaqillik yillarida jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar, xalqimizning moddiy va ma'naviy saviyasini oshirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarning intellektual qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlar asta-sekin o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim

dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq", deb ta'kidlagan.

Ushbu vazifani amalga oshirishda esa, har bir pedagog kasbiga bo'lgan mas'uliyat hissini tuyishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan boxabar bo'lishi hamda faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlarni anglab, pedagogik mahoratini oshirishi lozim.

Shuningdek, bugungi kunda zamonaviy o'qituvchining ma'naviy qiyofasi va intellektual qobiliyati qanday bo'lmog'i lozim? Ayni paytda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning barchasi barkamol avlodni to'g'ri tarbiyalashga qodirmi? O'qituvchi bu vazifani bajarishida bilim, ko'nikma va malakasi, imkoniyati va shart-sharoiti yetarliymi? degan savollar biroz tashvishga soladi.

Bu savollarga javob berish uchun jamiyatimizdagi ta'lim-tarbiya dargohlarida mehnat qiladigan o'qituvchilarning faoliyatlari natijalarini ilmiy-metodik asosda tahlil qilsak, afsuski, ularning barchasini ham haqiqiy ustoz darajasidagi ziyolilar deya olmaymiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'tiladigan har bir dars yuqori saviyada tashkil etilib, o'quvchilar Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalari (BKM)ni egallab borsalar, umumiy o'rta ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablarga to'la mos keladi.

Yuqoridagi muammoning dolzarbligi shundaki, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagog-o'qituvchilarning intellektual salohiyat va shaxsiy imkoniyatlari bugungi kunda qo'yilgan talablarni bajarishni ta'minlash darajasida bo'lishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarning o'quv moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, o'quvchilarga DTS talablari asosida BKMLarni egallashni ta'minlash maqsadida fizika, kimyo, biologiya fanlaridan o'quv dasturiga mos ravishda laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. Afsuski, ana shu jihozlardan foydalanib, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish ko'plab maktablarda asossiz sabablarga ko'ra o'tkazilmasdan kelinmoqda. Tabiiy fanlardan olingan nazariy bilimlar o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida malakalarni hosil bo'lishida katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ilm o'rganishga bo'lgan rag'bat, kelajakda o'z Vatani taraqqiyoti uchun komillik sari intilish, jahon fani rivojiga hissa qo'shish imkoniyatlari yaratilmoqdaki, bundan nafaqat yoshlar, balki ularga yetakchilik qilayotgan ustoz-murabbiylar ham o'zlari uchun kerakli xulosalarni chiqarib olishlari va bu imkoniyatlardan unumli foydalanishlari zarur.

Ta'lim muassasalari rahbarlari davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifani to'la-to'kis ado etishlari uchun dastavval pedagogik jamoani ilmiylik asosida boshqarish tamoyillariga rioya etishlari, boshqaruvning o'ta nozik jihatlarini ilg'ab, o'zlarining intellektual imkoniyatlarini ishga solib ish yuritishlari kerak bo'ladi. Ayniqsa, ta'lim muassasasi rahbarining zamon bilan hamnafasligi, ya'ni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirib, jamoani o'z ortidan ergashtirishi, texnologik jihatdan savodxonligi, axborot-kommunikatsiya madaniyatining rivojlanganlik darajasi boshqaruv sohasi samaradorligini ta'minlashni kafolatlaydi.

Zamonaviy o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kurs tinglovchilarining ehtiyoj va talablari asosida o'quv rejalarini tuzish, avvalo, har bir guruh tinglovchilarning tayyorgarlik darajalariga e'tiborni qaratish, o'tiladigan mashg'ulotlar qachonlardir tayyorlangan "ishlanmalar" bilan emas, balki shu guruhdagi tinglovchilarning real ehtiyojlari asosida tashkil etishni yo'lga qo'yilishi zarur. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan tajribasiz, yosh o'qituvchilarni bitta guruhda malaka oshirish kurslariga jalb etish samarali natijalarni bermaydi.

O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi shaklan va mazmunan qayta qurilmog'i lozim.

O'qituvchilarning bilim, tajriba hamda saviyasini yuksaltirish, o'z mutaxassisligi bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishning ikkinchi sharti – ularning mustaqil ravishda o'z ustida ishlashga bo'lgan munosabatidan iborat.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quv muassasasining rahbarlari qanchalik egallab turgan lavozimiga loyiq bo'lsa, ular rahbarlik qilayotgan pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya sohasida olib borayotgan ishlari har doim samarali bo'ladi.

Rahbarlikda ilmiylik va amaliy hamkorlik yetishmasa, boshqaruv tizimi mexanizmlari yetarli darajada ishlamasa pedagogik jamoa faoliyatining samarasi past bo'ladi. Ularga qo'yilgan talablar to'liq bajarilmaydi. Ammo bugungi kunda yuksak talablarga javob beradigan, ta'lim muassasalarida fidoyilik bilan mehnat qiladigan zamonaning yetuk o'qituvchilariga haqiqiy ustozlik maqomini olishga qodir.

“Sharq Aristoteli” degan nom bilan dunyoga tanilgan mashhur o'rta asr faylasufi, vatandoshimiz Abu Nasr ibn Mahmud al-Forobiy o'zining “Namunali ta'lim haqida” deb nomlangan risolasida o'qituvchi faoliyati haqida to'xtab: “Bunday odam, inson erishishi mumkin bo'lgan eng oliy darajaga erishmog'i, baxtliklikning cho'qqisidan o'rin olmog'i lozim. U insonning baxtga erishishining barcha yo'llaridan ogoh bo'lgan zotdir” – deb ta'kidlagan edi.

O'qituvchi, jamiyatimizning eng ma'lumotli va madaniyatli kishisi sifatida tanilmog'i lozim. Binobarin har bir o'qituvchi, mazkur kasbni tanlagan kunidanoq o'z bilim saviyasi, pedagogik mahoratini oshirish ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi zarur. Ana shunda u kundalik faoliyatining muvaffaqiyatini va samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning hurmatiga sazovor bo'ladi, “kishi qalbining injeneri”, degan nomga munosib bo'ladi.

Zamonaviy ta'limning oldiga qo'yilgan talablariga ko'ra, o'qituvchilar tanlagan kasbi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan tashqari, ekologik, iqtisodiy va yuridik bilimlar bilan qurollanishni hamda uzluksiz ravishda mustaqil bilim olish vositasi sifatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan mustaqil va ratsional foydalana oladigan darajaga ko'tarilmog'i lozim.

Mashhur rus tabiatshunos olimi akademik V.I.Vernadskiyning o'tgan asrning boshlarida yaratgan “Noosfera” deb atalgan ta'limotida ham *“Kelajakda sivilizatsiyani halokatga eltuvchi global ekologik muammolarni bartaraf qilish, uni asrab qolishda insonning aql-zakovati, ma'naviy buyukligi, planetar masshtabda fikr yuritishi va dunyoqarashi hal qiluvchi rol o'ynashini alohida ta'kidlangan edi”*.

Binobarin, ana shunday sifatlarga ega zamonaviy o'quvchini tarbiyalash, jamiyat oldidagi eng muhim va birinchi o'rindagi vazifalardan sanaladi. Ta'lim tizimi boshidan kechirayotgan muammolardan faqat intelegentlik va professional intellektual fazilatlarga ega pedagog kadrlarni tayyorlash bilangina chiqish mumkin.

Shu bois, mashhur fransuz yozuvchisi V.Gyugo *“Kelajak maktab o'qituvchisining qo'lida”*, deb bejiz aytgan.

O'qituvchining o'z intellektualligini va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan tinimsiz intilishi, jozibasi, uning haqiqiy o'qituvchiligidan darak beruvchi eng muhim faktor deb qarash kerak. Shuning uchun ham maktab faoliyatining muvaffaqiyatini chin dildan istagan rahbar mazkur maktab o'qituvchilarining bo'sh vaqtdan qanday foydalanayotganini nazoratga olmog'i lozim.

O'qituvchining ma'naviy boyishga nisbatan ehtiyoji qancha katta bo'lsa va bunday ehtiyojni qondirish uchun unga qancha ko'p imkoniyat yaratilsa, u erishgan bu xususiyatlar bilan o'quvchilarini ham ma'naviy boyishga ega bo'ladi.

O'qituvchidagi eng muhim kasbiy xususiyatlaridan hisoblangan gumanizm, oliynoblik va intellektuallik xislatlariga faqat maktabdagina tajriba asosida shakllanmasdan, balki pedagogika, psixologiya, metodika va ilmiy adabiyotlar bilan kundalik muloqotlar paytida ham shakllanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov o'qituvchilar oldidagi talablarni quyidagicha bo'lishini ta'kidlaydilar: "Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo, tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak!".

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'quvchilarning mustaqil o'qishlarini tashkil qilishga alohida e'tibor berilgan. ***Darhaqiqat, ma'lum predmet asoslarini yaxshi o'zlashtirish va hayotga tatbiq eta bilish uchun o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatish, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari keskin rivojlanayotgan ayni zamonda juda muhim muammolardan hisoblanadi.***

O'qituvchining mahorati o'quvchilarni mustaqil bilim olishga va fan asoslariga qiziqtirishni uyg'otishdan boshlanadi. Binobarin, har bir o'qituvchi, eng avvalo, o'quvchilarning mavjud bilim va malakalariga tayangan holda, ularda o'z faniga qiziqtirishni tarbiyalamog'i lozim. O'quvchilarda fan asoslariga qiziqishni uyg'otuvchi motivlarni shakllantirishdek muhim maqsadga erishishda, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, bilimi, tajriba va mahorati hamda o'qitishda har bir o'quvchiga differensial yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning maktabda olayotgan bilimlariga, erishayotgan malaka va ko'nikmalariga yuqori talabchanlikni oshirish zarur.

Shu o'rinda ayrim hollarda ta'limning nazorat organlari, ta'lim muassasalarining jamoalari o'qituvchilar faoliyatini bevosita o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'rganish orqali baholash o'rniga, aksariyat hollarda, ularning faoliyatlarini qog'ozbozligiga qarab baholashga odatlanganlar. Bunday hol, kelajakda tuzatib bo'lmaydigan xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Bu kabi muammolarni oldini olishda esa, o'qituvchilarning bevosita dars berish jarayoniga e'tibor berish, ularning kasbiy mahoratlarini o'rganishga, shuningdek, o'quvchilarning maktab o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi aks etgan bilimlarini baholash bo'yicha reyting mezonlariga maktab rahbarlari, Xalq ta'limi vazirligi metodistlari va nazoratchilarining obyektiv va ongli ravishda yondashishga rioya qilinishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim tizimining rahbar va pedagoglari ma'rifat, madaniyat va insonparvarlik qadriyatlarini tarqatuvchi, uning ijodkori, dunyo pedagogik tajribasini tashuvchi va yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. – 61-b.
2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.
3. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsiya texnologiyalarining ahamiyati // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T., 2012.
4. Mardonov Sh.Q., Xodjayev B. va boshq. Pedagogik akseologiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2013.

Nasibaxon AHMEDOVA,
T. N. Qori-Niyoziy nomidagi
O'zPFITi tadqiqotchi-izlanuvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING BOSHQARUV TIZIMI YO'NALISHLARI BO'YICHA BELGILANGAN TALABLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida rahbarlarning funksional vazifalari bajarilishi, hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Boshqaruv faoliyati, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv metodlari, komponentlar, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon subyektlari, pedagogik jarayon.

В данной статье рассматриваются особенности управленческой деятельности руководителей средних общеобразовательных школ. Освещены требования к организации деятельности образовательного учреждения. Также, указаны направления управленческой деятельности руководителей средних общеобразовательных школ.

Ключевые слова. Управленческая деятельность, функции управления, методы управления, компоненты, инновационная деятельность, субъекты педагогического процесса, самоуправление, педагогические процессы, инновационные процессы.

In this article the essence and marked with a particular management activity of Heads of secondary schools, highlights the requirements to organize the activities of the educational establishment and management process, especially to the heads of the functional tasks, as well as the direction of management of secondary schools.

Key words. Management action, destinations management action, operational requirements, components, innovation, pedagogical process, self-government, educational processes, innovative.

Uzluksiz ta'lim tizmida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini takomillashtirish, ularga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish asosida ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari (UO'TM)da mavjud muammolarning yechimini topish, boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, UO'TM rahbarlarining boshqaruv faoliyatini demokratik tamoyillar va innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda.

UO'TM rahbarlarining aksariyati ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishda rahbarlarning asosiy vazifalari faqatgina ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil

etish va nazorat qilish, pedagog-xodimlar va o'quvchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat, deb hisoblaydilar. Ta'lim muassasasini boshqarish bu mahsulot ishlab chiqarish yoki maishiy xizmat ko'rsatishdan tubdan farq qiladigan, ta'lim tizimi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar jarayonidir, garchand shu kunga qadar "boshqarish bu nima, hunarmi yoki san'at?" degan tortishuvlarga chek qo'yilmagan bo'lsa ham, hech ikkilanmasdan san'at deb baralla aytish mumkin. Bizning fikrimizcha, UO'TM rahbarlari faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi funksional vazifalar bajarilishi zarur:

- belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish;

- bajariladigan vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash va vazifalarni taqsimlash;

- ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog-xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;

- moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi va sotsium munosabatlarining uzluksiz aloqasini ta'minlash;

- UO'TM faoliyatida ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash;

- DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish;

- UO'TMning rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog-xodimlar va o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida ahborotlar to'plash va tahlil qilish;

- UO'TM faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish;

- pedagoglarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish.

Demak, UO'TM rahbarlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash, pedagog-xodimlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni qamrab olgan holda rahbarning boshqaruv faoliyatini ifodalaydi, deb aytish mumkin.


Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan ta'sir, ya'ni subyektning obyektga ta'siri natijasida obyekt faoliyati muvofiqlashtirilishidir.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, boshqaruv o'ziga xos san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov yoki izlanish asosida qarorlar qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir [2, 6-b.].

Boshqaruv – bu maqsadga erishish uchun obyektga ta'sir etish bo'lib, obyekt faoliyatini muvofiqlashtirish, ya'ni maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirishdir. Ayrim tadqiqotlarda bosh-

qaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon sifatida ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad keltiriladi, maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqaruv faoliyatini, uni amalga oshirish boshqaruv funksiyalarini, amalga oshirish izchilligi boshqaruv algoritmini, amalga oshirish yo'l-yo'riqlari boshqaruv metodlarini, xodimlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqaruv uslublarini, mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar boshqaruv qarorlarini ifodalaydi. Demak, UO'TM rahbarlari va pedagogik jarayonlar subyektlarining ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va samaradorligini ta'minlash yo'nalishlaridagi faoliyatlari boshqaruv faoliyati bo'lib, maktab faoliyatini tashkil etishda, ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Shunday ekan, UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarish, pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, o'zini-o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi yo'nalishlarni (1.1-rasm) qamrab oladi, deb aytish mumkin.



1.1-rasm. UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlari

UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyatiga qo'yilayotgan talablar va ularning kasbiy tayyorgarligi yo'nalishidagi manbalar bo'yicha o'tkazilgan nazariy tahlillar hamda UO'TM amaliyoti UO'TM rahbarlari o'z boshqaruv faoliyatlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi qator yo'nalishlar bo'yicha talablar (1.1-jadval) mavjudligini inobatga olishi zarurligini ko'rsatadi.

**UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlari
bo'yicha belgilangan talablar**

№	Boshqaruv faoliyati yo'nalishlari	Belgilangan talablar
1	UO'TM faoliyatini tashkil etish va boshqarish	Belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash; faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash; UO'TM-ning rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog-xodimlar va o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; UO'TM faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; pedagoglarning innovatsion faoliyatini tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish qilish.
2	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish	UO'TM faoliyatida ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishni ta'minlash; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog-xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi va sotsium munosabatlarda uzluksiz aloqani ta'minlash va h.k.
3	UO'TM faoliyatini takomillashtirish	Ta'lim-tarbiya jarayonini tashqi muhitning o'zgarishlariga mos ravishda rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishni inobatga olish; boshqaruvning demokratlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosida muvofiqlashtirish va innovatsiyalarni joriy etishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish; tushunchalarni muntazam yangilab borish va rivojlantirish asosida ko'zlangan maqsadlarga erishishning yangi yo'llari va vositalarini izlab topish; o'zini o'zi boshqarish hamda hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish; ta'lim muassasasini muntazam rivojlanib borishini oldindan ko'rish va rejalashtirish; jamoaning ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirib borish.

4	Innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish	UO'TM rahbarlari ta'lim muassasasida ijodiy muhit yaratish, pedagog-xodimlarda tashabbuslar va yangiliklarga qiziqishni shakllantirish; innovatsiyalarning qabul qilinishi va amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish; innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish; innovatsiyaning vaziyatga aloqadorligi, strukturaviyligi va boshqaruvchanligi hamda ijtimoiy mo'ljallanganligi, ularning sub'ektlar tomonidan qabul qilinishini inobatga olgan holda innovatsion faoliyatni tashkil etish kabi qator vazifalarni amalga oshirilishi lozim.
5	Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish	Hamkorlikda qarorlar qabul qilish, qarorlar qabul qilish jarayoniga barcha xodimlarning ishtirokini ta'minlash; belgilangan maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilashda xodimlarning takliflari va fikrlarini inobatga olish; turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish va h.k.
6	O'zini-o'zi boshqarish va rivojlantirish	Rahbarlik uslublaridan oqilona foydalana olishi; har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, ehtirolarga berilmaslik; tashabbuskor bo'lishi; ko'pchilik dardi bilan yashashi; hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi; vijdonli, adolatli, samimiy, vazmin, bag'rikeng, ijodkor, bunyodkor, yaratuvchan, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi; o'zini-o'zi baholashi, o'z faoliyatini va shaxsiy sifatlarini o'zi tomonidan tashxis etishi; xodimlarga e'tibor bilan qarashi; xodim bilan muloqotda ma'ruzachiga aylanib qolmaslik, e'tiborli tinglovchi bo'lishi; adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, jur'atli, jasur bo'lishi – qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi va h.k.
7	Pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish	UO'TM rahbarlari o'quvchilarning fanlar bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, ularda bilim olish ehtiyojini muntazam shakllantirish va rivojlantirib borish, o'quvchilarda asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umum-bashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb

7	Pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish	tanlashni shakllantirish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi; ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot hamda madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarni hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borilishiga hamda o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etilishi, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanishiga erishishi zarur hisoblanadi.
---	--	--

UO'TM rahbarlarining boshqaruv faoliyati yo'nalishlari va ularga qo'yilayotgan talablarni o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, UO'TM rahbarlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlari bo'yicha belgilanayotgan talablar qaysi bo'g'in rahbarlariga tegishli ekanligini, mazkur yo'nalishlarda tashkil etiladigan boshqaruv faoliyati jarayonida kimlar va qaysi lavozim egalari ishtirok etishini hamda ularning imkoniyatlarini aniqlashtirish asosida ta'lim muassasasi rahbarlari o'rtasida funksional vazifalar taqsimlanishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. *Ta'lim menejmenti*. – T.: "Voriz", 2006. – 264-b.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. *Ta'lim menejmenti*. – T., 2006. – 73-b.
3. Тудор С.Н. *Психология управления: от личности к команде*. – Петрозаводск: Фолиум, 1996. – С. 133.
4. Xo'jayev A.A., Xeyki Lentinin. *O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari*. – T., 2001. – 126-b.
5. Shodmonov Q.O. *Oliy o'quv yurtlari kasb ta'limi yo'nalishi talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash: //Ped.f.n. ...diss//*. – T., 2008. – 153-b.

Jalgas UTEGENOV,

O'zDJTI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

JISMONIY MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA IJTIMOIY ZARUR SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi-yoshlar shaxsida ijtimoiy zarur sifatlarni shakllantirish masalalari aks ettirilgan. Shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalari asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog'lom va ma'naviy boy bo'lib shakllanishida jismoniy tarbiyaning imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy sifatlar, barkamol shaxs.

В статье рассматриваются вопросы формирования социально значимых качеств личности в процессе физического воспитания и спорта. Автор раскрывает потенциальные возможности физического воспитания и спорта в формировании гармонично развитой личности, которая будет способствовать здоровью подрастающего поколения.

Ключевые слова. Физическое воспитание и спорт, воспитание здорового поколения, социально значимые качества, духовно-нравственные качества, гармонично развитая личность.

In article questions of formation of socially significant qualities of the personality in the course of physical training and sports are considered. The author opens potential opportunities of physical training and sports in formation of harmoniously developed personality who will promote younger generation health.

Key words. Physical education and sport, unbringing the sound generation, spiritual-moral quality, harmonious developed personality, student youth.

Jismoniy tarbiya va sport – xalq madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning har bir fuqarosini jismoniy va axloqiy mukammallashishini ta'minlashning asosidir. Yosh avlodni milliy g'oya asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash va himoya qilishini, sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. O'quvchi-yoshlarda faol hayotiy pozitsiya, axloqiylik, ezigulik va insoniylik ideallarini tarbiyalash jarayonida jismoniy madaniyat va sport formalari, metod va vositalaridan foydalanish asosiy ustuvor omillardan biri bo'lishi kerak.

Rivojlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda yangi ijtimoiy ongni shakllantirish ikkita asosiy omillar ta'sirida amalga oshadi: to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy amaliyot va maqsadli ta'lim-tarbiya jarayoni orqali.

Har bir inson faqatgina ta'lim tizimi orqali, ijtimoiy tarbiya va rivojlanish, kasbiy layoqatlarni egallash orqali shaxs bo'lib shakllanadi. Qachonki, inson jamoa vazifalarni

bajarish layoqatlarini egallaganda, o'zining maqsadi va javobgarligini ijodiy anglab yetganda, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil ravishda munosabatga kirisha boshlaganda shaxsning ijtimoiylashuvi ro'y beradi.

Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor maqsadi uzluksiz ta'lim tizimi salohiyati, ijtimoiy institutlarning o'zaro munosabati, shuningdek, maqsadli boy pedagogik jismoniy tarbiya va sportning ulkan imkoniyatini qo'llash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida shaxs shakllanishidagi erishgan yutuqlari hamda maxsus vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganligiga ko'ra ushbu jarayonda barkamol shaxsning rivojlanishidagi imkoniyati qo'llanilishiga ko'ra aniqlanadi. Bunday tarbiya ishining metodikasiga fan bo'yicha o'qituvchi va guruh rahbari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'qituvchilari hamda oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va tarbiyachilari ega bo'lishi kerak.

O'quvchilarda jismoniy tarbiya jarayoni orqali axloqiy, irodani rivojlantiruvchi sifatlar: matonatlik, qatiyatlilik, jasurlik, og'ir-vazminlik, o'zini tuta bilish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Qoidaga ko'ra jismoniy mashqlar jamoada amalga oshiriladi, shuning uchun ham hamkorlikdagi harakat faoliyatining mazmuni va uning pedagogik boshqarilishi o'quvchilarning o'zlarini jamoada qanday tutishlarini bilishlariga, uning maqsadlariga bo'ysunishiga, uni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'yinlarda, musobaqalarda raqibga, jamoadagi o'rtog'iga, hakamlarga maxsus munosabatlar shakllanib boradi. Sport etikasi sport faoliyati jarayonida belgilangan qoida va xulq-atvor qoidalariga amal qilish bilan bog'langan bo'lib, unda ushbu qoidalar mustahkamlanadi va kundalik hayot voqeligiga tatbiq etilib boriladi. Og'ir-vazminlik, kamtarlik, insonlarga, raqiblariga ham hurmatda bo'lish, adolatsizlikka hamda sport kurashidagi adolatsizlik holatlariga chiday olmaslik, mehnatsevarlik, intizomlilik sifatlarni tarbiyalash barcha jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida alohida ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya jarayonida intizomlilikni, hamjihatlilikni tarbiyalash belgilangan qoidalariga amal qilishni o'rgatish, ba'zi bir holatlarda an'anaviy bo'lib borilishi axborot berish tartibi, mashqlarni bajarishni to'xtatish, o'qituvchi, hakamning ishorasiga ko'ra o'yinni to'xtatish nazarda tutiladi. Safda turish mashqlari, qayta saflanish, safni yoymoq ko'rsatmalarni aniq bajarilishini talab qilinishi ham intizomga o'rgatadi. Ozodalik, tejamkorlik, jamoa mulkiga va insonlar mehnatiga hurmatda bo'lish kabi sifatlar jismoniy-madaniy va sport tadbirlarini o'tkazishda an'anaviy talablar asosida tarbiyalanadi (ishtirokchilarning ozoda kiyimlari, jihozlarni astoydil tayyorlash va tozalash, ozodalikka rioya qilish va boshqalar). Jamoaviylikni tarbiyalashga o'z ichiga xushmuomalalik, odoblilik, o'rtoqlariga hurmatda bo'lishni qamrab oladi. Bunday me'yorlarning bajarilishini talab qilish bir qator qoidalar bilan mustahkamlanadi. Xususan, har bir musobaqaning tugashi bilan uning ishtirokchilari yuzaga kelgan his-tuyg'ularga qaramasdan bir-birini qutlashi kerak; bexosdan qoidani buzgan o'yinchi qo'lini ko'tarish orqali xabar berishi kerak. Ayniqsa, o'yin eng qizg'in nuqtasiga chiqqanda, o'zining manfaatlari yo'lida harakat qilganda o'rtog'iga yordam berish maqsadida o'zini tiyishi judayam qadrlanadi. Sayohatlarda ishtirokchilariga xavfsizligiga javobgarligini tarbiyalovchi maxsus ehtiyot qilish va yordam berish ko'nikmalarini o'rgatishadi. Jamoaviylik burchini, jamoa oldida javobgarlikni tarbiyalash, topshiriqlarni bajarish jarayonida, o'yinlar vaqtida har bir ishtirokchi umumiy maqsadlar ostida harakat qilganda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik javobgarligini shakllantirish judayam zarurdir.

Harakat faoliyatini, jismoniy sifatlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatga toliqish, salbiy his-tuyg'ular, ba'zan og'ir mashqlarni ko'p marotaba takrorlash natijasida erishi-

ladi. Shuning uchun ham mashg'ulotlarga aniq ruhiy va ishchan kayfiyatni hosil qilish muhimdir.

Ertalabki gimnastika mashqlarni bajarish odatini shakllantirish, toblantiruvchi jaryonlarni amalga oshirish og'ir majburiyat asosida emas, balki ijobiy hislar ruhiyati ko'rinishida amalga oshirilishi va ular xuddi o'yindek qabul qilinishi kerak. Bolalar qanchalik o'sib borsa, jarayonga nisbatan ularning qiziqishlarini, faoliyat natijalariga, harakatchanlik sifatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarda olgan bilimlarining mazmunini baholash, o'zlarining ruhiy holatlarini, harakatlarini boshqarishni o'rgatib borishni shunchalik rivojlantirish muhimdir. O'zini nazorat qila olish layoqatidan qanoatlanish hissiyoti shaxsning o'z mavqeyini aniqlab olishiga yordam beradi. Ko'pincha o'quvchi-yoshlar (ko'proq o'smirlar va yuqori sinf o'quvchilari) ayniqsa, o'sish jarayoni tezlashgan va tez jismoniy rivojlanish davrida mashg'ulotlar bilan tizimli ravishda shug'ullanmay qo'yishadi. Qiziqishlar va ehtiyojlar miqyosi kengayishi bilan bog'liq bir qancha sabablarga qaramay bu bir qator mashqlarni bajarishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni ma'lum bir yoshda, xususan, qizlarda jismoniy rivojlanishning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi real imkoniyatlarni yaratish, jismoniy tarbiyaning individual rejaları bilan ta'minlash, o'zini nazorat qiluvchi kundaliklarni tutishga o'rgatish tavsiya etiladi.

Og'ir-vazminlikni tarbiyalash irodani tarbiyalashning muhim tomoni hisoblanadi. Ushbu sifat jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida faol harakat faoliyatini amalga oshirishda, ayniqsa, o'yinlar va musobaqalarda ortiqcha emotsional ta'sirdan qo'zg'alishni bartaraf etishda namoyon bo'ladi. O'yinlar mobaynida atrofdagilarga va raqiblarga bir xil me'yordagi munosabatni namoyon qilish tavsiya etiladi. Bunday holatlarda ularga yordamni hakamlar va ommaviy sport tadbirlari, musobaqa tashkilotchilari ko'rsatishi kerak.

Jismoniy tarbiya jarayoni uchun maxsus bo'lgan qat'iyat, botirlik, o'zini yo'qotmaslik sifatlarini o'quvchilarda shakllantirish lozim. Botirlik qo'rqinch hissini bartaraf etishni talab qiluvchi harakatlar orqali; qat'iyatlik – qaror qabul qilingandan so'ng sharoitning qiyinligiga va omadsizlik ro'y berishiga qaramasdan orqasidan tezda harakat qilishni talab qiluvchi holatlarda tarbiyalanadi. O'zini yo'qotmaslik – obyektiv (ob-havoning o'zgarishi, shamolga qarshi yugurish va boshqalar) va subektiv (kuchli raqib, oldingi musobaqalardagi omadsizlik va boshqalar) sharoitlarning qiyinlashishida namoyon bo'ladi. Odatda, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun maqsadga erishishdagi tirishqoqlik va qat'iyatlilik bilan ushbu sifatlarning bir xil vaqtda hamkorligi namoyon bo'lishi zarurdir.

Mehnat va jismoniy tarbiyaning o'zaro aloqadorligi jismoniy tarbiya maqsadining o'zi bilan, ya'ni yoshlarning ijodiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashda har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni ta'minlash natijasi bilan asoslanadi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati mashg'ulot joylarini, o'quv jihozlarini, shaxsiy sport kiyimlari, oyoq kiyimlarini tayyorlash va tozalash bilan bog'liqdir. U faqatgina shaxsiy manfaatlarni qondirishga emas, balki jamoa manfaatlarini ham qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar sport jihozlarini tuzatishga, sport maydonlari va inshootlarini obodonlashtirishga, o'quv qo'llanmalarni tayyorlash va boshqalarga jalb qilinadi.

Tanlangan va ko'ngilli jismoniy mehnat o'quvchi-yoshlarda topshirilgan ish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi. Jismoniy mehnat to'g'ri tashkillashtirilganda jismoniy sifatlarini rivojlantirishga, salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Har qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchilar mashg'ulotlarning mohiyatini tushunadigan qilib tuzish hamda mashqlarni bajarayotganliklarini bilishlari lozim. Maxsus tanlab olingan mashqlarda maqsad qilib qo'yilgan harakatchanlik, uni hal qilish usuli

va bunday holatda muskullarda yuzaga keladigan o'zgarishlarni his qilish bilan bog'liq aloqadorliklarni ochib berish zarurdir. Mashqlarni bajarish bilan bir vaqtda harakatlarni muhokama qilish, do'stlarini kuzatish va ularning harakatlarini tahlil qilish, turli harakat usullarini taqqoslash kabi vazifalarni amalga oshirib borish foydalidir.

Agarda harakatchanlik faoliyatiga o'rganishning boshlang'ich bosqichida, ongli faoliyat takror namoyon bo'lsa, harakatchanlik malakasining o'sishi barcha o'sishning o'rnini ijodiy ishlab chiqarish tafakkuri egallaydi. Tafakkurga asoslangan faoliyat ayniqsa, mustaqil fikrlashda, turli harakatchanlik masalalarini yechish, izlash va topish vazifasi qo'yilganda faollashadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan maxsus bilimlar hamda ularning kengayishi yordamida orttirgan harakatchanlik malakalarini obyektiv baholash, ularni tahlil qilish va oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning dastlabki shart-sharoitlari yuzaga keladi.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish hamda aqliy faoliyat natijasida kelib chiqqan toliqishni bartaraf etish imkoniyatini beruvchi, ishchanlikni qayta tiklashni tezlashtiruvchi vositasi bo'lib hisoblanishini ham unutmashlik kerak. Ushbu mashqlarni kun tartibiga muvaffaqiyatli joriy etish ularni organizmga ta'sir qilish tamoyillari hamda ularni qo'llash bo'yicha asosiy metodik usullar bilan ta'minlaydi.

Estetik tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarda ahloqqa asoslangan munosabatlarni tarbiyalash hamda ular uchun yaratiladigan tashqi sharoit orqali tabiat bilan yaqin aloqada bo'lish hissiyotlarga, tafakkurga ta'sir qiladi. San'at – musiqa, ashula, raqs vositalarining estetik hissiyotlarning rivojlanishiga chuqur ta'sir qilishi, jismoniy tarbiyada ulardan foydalanishni taqozo qiladi. Musiqa ostida ma'lum bir harakatlarni bajarish musiqani namoyon etish vositalari (tovush kuchi, sur'ati, marom va boshqalar) harakatlarni to'liq tushunish va ularni mukammal bajarish imkoniyatini beradi. Boshqa tomondan eshitilgan musiqiy asarning harakatlarda ruhiy mujassamlashishi musiqiy tarbiyaga yordam beradi. Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rish, eshitish, harakatchanlik analizatorlarining funksiyalari mukammallashadi. Bunday holat shug'ullanuvchilarda atrof olam to'g'risida yaxshi ta'ssurotlarning paydo bo'lishiga zamin yaratish bilan birga, badiiy idrok etish uchun qulay sharoitlarni vujudga kelishiga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sport tarbiyalashning qudratli solohiyatiga ega bo'lib, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishning omili va sharti bo'lib hisoblanadi. Hayotiy zarur bo'lgan va ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatli sifatlarni tarbiyalaydi. Jismoniy sog'lom va ma'naviy boy yoshlarni shakllantirish uchun jismoniy madaniyatning vosita va uslublarini keng miqyosda foydalanish faqat ushbu soha mutaxassislaridan talab qilinmasdan, balki pedagog, rahbar, tashkilotchilar, hamda ota-onalardan talab qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Иванков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания.* – М.: «Инсан», 2000. – С. 352.
2. *Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов.* – Киев, 1999. – С. 318.
3. *Основы управления подготовкой юных спортсменов / Под общей ред. Проф. М.Я. Набатниковой.* – М.: Физкультура и спорт, 1982. – С. 280.

Umida RAHMONOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

MUSIQIY TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARGA OID QARASHLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarga musiqa san'at asoslarini o'qitishda ajdodlarimiz merosidan, milliy qadriyatlardan foydalanish, ta'lim oluvchilarda ajdodlarimiz merosiga va milliy qadriyatlarga qiziqish uyg'otish, yosh avlod ma'naviyatini va madaniyatini rivojlantirish haqida so'z boradi. Muallif fikricha, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta sinflarida milliy qadriyatlarga bag'ishlangan tadbirlarda ajdodlarimiz meroslarida korsatib o'tilgan axloqiy fazilatlarni egallashning ahamiyatini o'rgatish lozimligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, milliy ehtiyoj, milliy musiqa, kasbiy madaniyat, axloqiy fazilatlar.

В статье рассматривается национально-культурные наследия великих мыслителей в процессе обучения. Основам музыкального искусства, которое будет способствовать развитию музыкальной культуры обучающихся. Также автором выявляются значения нравственных качеств определенных великими национальными мыслителями. Предлагается программа мероприятий посвященных формированию у обучаемых нравственных качеств, изучению национальных традиций в средних классах общеобразовательных школ.

Ключевые слова. Музыка, музыкальная культура, национальная музыка, национальные традиции, профессиональная культура, нравственные качества.

The article discusses national-cultural values of musical art contribute to the formation of musical culture of the students play a role in activating intellectual, emotional, cultural development of personality, in the decision of problems of development of culture of interethnic relations, formation of moral and spiritual qualities of pupils as the General process of spiritual-patriotic revival.

Key words. Music, national needs, and national music, professional culture, spiritual and patriotic revival.

stiqlol tufayli ko'p asrlik milliy musiqiy merosimizga bebaho qadriyatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Xalqimizning ajoyib xilma-xil va bir-biridan go'zal mahalliy musiqiy an'alaridan mumtoz musiqamizning yuksak durdonasi bo'lmish maqom namunalaridan ma'naviy zavq olish, bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Endilikda, barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odat hamda tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yurtimiz musiqa san'atining hozirgi bosqichidagi asosiy yo'nalishlardan biri o'quvchi-yoshlarda ajdodlarimiz merosiga qiziqish uyg'otish, milliy qadriyatlar naqadar qadimiyligini anglash, yosh avlod ma'naviyati va madaniyatini rivojlantirishdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni anglash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, belgilovchi ahamiyatga egadir".

Respublikasmizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, xodimlarning barkamol avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalarini hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda musiqa darslari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali ro'yobga chiqarish, ko'p jihatdan, har bir o'qituvchining musiqiy san'at va musiqa o'qitish metodikasidan foydalanishning umumiy nazariy va amaliy asoslarini qay darajada egallaganligiga bog'liq.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan xalqning tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko'ra, yosh avlodni milliy istiqbol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buni musiqa darslarida ham o'quvchilar ongiga tarbiyaviy qo'shiqlar orqali singdiriladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarbiyaviy jarayonda foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. Shu bois, o'quvchilarning dunyoqarashida, kundalik faoliyatiga jiddiy o'zgarishlar kiritish lozim.

Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta sinflarida milliy qadriyatlarga bag'ishlangan tadbirlarda milliy qadriyatlarni targ'ib etish, ajdodlarimizdan meros bo'lgan axloqiy fazilatlarini egallashning ahamiyatini yoshlarga o'rgatish lozim. Misol uchun, N.Norxo'jayevning "Yaxshi bola" qo'shig'i qo'shiqlar orqali tahlil etish juda muhimdir.

Barkamol avlod birdaniga paydo bo'lmaydi. Xalqning axloqiy mezonlari ona zamin, uning tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan ma'naviy yutuqlari bilan nozik bog'langan. Axloqiy tasavvurlarimiz, axloqiy qadriyatlarimiz millatning obro'yi va istiqboli uchun xizmat qilsagina ehtirom va havasga sazovar bo'ladi. O'zbekistondagi tub o'zgarishlarning oliy maqsadi ana shu an'analarni, miliy qadriyatlarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash va yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iborat.

Barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi ham qadimdan o'zining boy milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odat va an'analari ega bo'lgan. Millatning turmush tarzi, ruhiyati va salohiyatini belgilovchi ma'naviyat belgisi uning musiqasi, kuy va qo'shiqlaridir. Bu milliy musiqiy meros nihoyatda boy bo'lib, uning mazmuni terandir. Og'izdan-og'izga, ustozdan shogirdlarga o'tib kelgan qo'shiqlar, lapar-u yallalar, yor-yor-u allalar, mehnat qo'shiqlari, marsiyalar, mumtoz ashulalar, terma va dostonlar, shashmaqom, Toshkent-Farg'ona, Xorazm maqomlari va yana ko'plab boshqa janrlardagi ko'plab asarlar xalqimiz musiqa san'atining metindek mustahkam poydevori hisoblanadi hamda ma'naviy musiqiy qadriyatlarimizning asosini tashkil qiladi.

Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta'riflaydi: "Go'dakning vujudi chiniqishi uchun ikki narsa zarur. Biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo'shig'i (allasi). Birinchisi, bolaning tanasiga, ikkinchisi ruhiga tegishlidir".

Musiqaning inson hayotidagi o'rni borasida ko'p yozilgan va u, shubhasiz, davolovchi, aniqrog'i, jism va ruhni muolaja qilish bilan birga, ma'naviy tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hamdir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur qaysi o'lkani bosib olsa, undagi buyuk olimlar, katta ustalar, ulug' shoirlar, san'atkorlarni ham Samarqandga olib

kelar, shu yo'l bilan o'zining “poytaxt”ini dunyoning eng buyuk shahriga aylantirishga harakat qilgan edi.

“Zubdat ul-advor”, “Maqosid ul-alxon”, deb nomlangan musiqiy kitoblar yozgan Marog'ali Abdulqodir va “Sharqiyya” nomli musiqiy kitob yozgan urumiyalik Sayfiddin Abdumo'min kabi musiqashunoslar ham shular jumlasidandir. Musiqa ilm sifatida juda qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz tomonidan chuqur o'rganilgan va bizgacha ajoyib kitoblar, risolalar, asarlar ko'rinishida yetib kelgan. Hozirgi kunda respublikamizda 300 dan ortiq bolalar musiqa va san'at maktablari, 20 dan ziyod musiqa, madaniyat va san'at kollej va litseylari faoliyat yuritib kelmoqda.

Musiqaning tarbiyaviy ahamiyati juda kuchli. Vatanimiz mustaqillikka erishgach, musiqa, madaniyat va san'at kollejlari tashkil etildi. Mazkur ta'lim muassasalari uchun zamonaviy talablar asnosida binolar qurilishi, Toshkent davlat konservatoriyasiga “O'zbekiston davlat konservatoriyasi” maqomi, Toshkent davlat san'at institutiga “O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti” maqomi berilishi va ular jahon andozalari asosida yangidan maxsus binolar hamda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi fikrimiz dalilidir.

Prezidentimizning “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida”gi Qarori va uning ijrosi bosqichma-bosqich ta'minlanayotgani fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Bundan tashqari, Mustaqillik, Navro'z va boshqa bayramlar munosabati bilan milliy kuy-qo'shiqlar yaratilmoqda. Bu Vatan, xalq, istiqloq, ona-yurt, odamiylik, mehr-oqibat, do'stlik, muhabbat mavzularidagi o'nlab tarbiyaviy ahamiyatga ega go'zal kuy-qo'shiqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday kuy-qo'shiqlarning ijodkorlari va ijrochilarini tarbiyalash biz, mutaxassis-larning asosiy vazifamizdir. Zero, kelajak avlod komil insonlarini tarbiyalashda musiqa eng ta'sirli kuchga ega muhim omildir. Mamlakatimizda yoshlarning yuqori saviyada ta'lim olishlari uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ularni har tomonla-ma qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va qobiliyatini to'la namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Musiqa san'ati insonning moddiy va ma'naviy talablari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turgan tashqi muhitga, jamiyatga munosabati natijasida paydo bo'lgan. Xalqning ruhiya-ti, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi kuy ohanglarida aks etadi. Musiqa millatning turmush tarzi, axloq va odobi, urf-odatlarini, diniy an'analari va marosimlarining o'ziga xos jihatlarini mujassamlashtirib, ezgu orzu-umidlarini, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatini, erk, ozodlik uchun kurashdagi mardonavorligini tarannum etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida –T., 2011.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “Sharq”, 1999.
4. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir. “Xalq so'zi”, 2010-yil 28-yanvar (Barkamol avlod yili davlat dasturi to'g'risida).
5. Karimov I.A. Xalqimizning iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida. – T.: “O'zbekiston”, 1995, 245-b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
7. Ilmiy ishlar to'plami. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – T.: “O'zbekiston”, 1997.

Sobitxon TURG'UNOV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI professori

Go'zal NAZIROVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tadqiqotchisi

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODEL

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lg'usi matkabgacha ta'lim mutaxassislarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari modeli keltirilgan bo'lib, mazkur modelning tarkibiy qismlari, amal qilish shartlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishning ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so'zlar. Tizimli yondashuv, oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim yo'nalishi, pedagogik faoliyat, texnologiyalar, izchillik, uzviylik, samaradorlik.

В данной статье представлена модель процесса подготовки студентов к педагогической деятельности в высших учебных заведениях по направлению дошкольного образования, освещены компоненты модели, условия реализации данного процесса. Изложены требования к будущим специалистам дошкольных образовательных учреждений, вопросы организации и управления педагогическим процессом, формирования у студентов необходимых знаний, умений и навыков.

Ключевые слова. Системный подход, направление дошкольного образования, педагогическая деятельность, технология, последовательность, взаимосвязь, эффективность.

This article is a model of the process of preparing students for teaching in institutions of higher learning in preschool education, highlights the components of the model, the conditions for implementing this process. Sets out the requirements for future professionals pre-school educational institutions, organization and management of the teaching process, providing students the necessary knowledge, skills and abilities.

Key words. The system approach, educational system, higher educational institutions, pedagogical process, technology, continuity, components, relationship, the content of education, efficiency.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida belgilanayotgan zamonaviy talablar maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari mazmunini boyitish, ta'lim mazmuni va o'qitish uslublari yanada takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsion ta'limning eng samarali texnologiyalarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini amaliyotga tayyorlash jarayonida pedagogik jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuv texnologiyalarini joriy etish, fanlar bo'yicha o'qitiladigan mavzularning o'zaro izchilligi va uzviyligini ta'minlash talabalarning o'zi tanlagan soha yo'nalishidagi tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ya'ni pedagogik jarayonning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan ma'ruza mashg'uloti samaradorligi seminar mashg'ulotlari natijaviyligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi yoki mustaqil ta'lim uchun asos sifatida xizmat qilishi, shuningdek, pedagogik tajribas-inov jarayoni yoki talabalar (oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olish zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan pedagogik fanlar mazmunan o'zaro bog'liq va aloqador bo'lganligini inobatga olgan holda, mavzular o'rganilishida izchillik va uzviylik tamoyillariga amal qilish zarur. Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni inobatga olgan holda, mavzularning o'zaro bog'liqligini asoslab o'qitish talabalarning fanlar bo'yicha shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatning ahamiyatini yetarli darajada yoritib berishga imkoniyat yaratadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiya” va “O'qitish metodikasi” fanlarini o'qitish jarayonida mazkur fanlarning o'quv dasturida keltirilgan qator mavzular va asosiy tushunchalarni bakalavrlarning amaliy faoliyatida qo'l keladigan hamda ular bilishi zarur bo'lgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar bilan bog'lab o'rgatilishi zarur.

Chunki bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi ta'lim dasturlarining mazmuni va komponentlariga qo'yilayotgan talablarda bakalavrlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zaruriyati belgilangan. Jumladan, mazkur fanlar bo'yicha tuzilgan dasturlarda:

- Pedagogika nazariyasi va tarixi fani pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, psixologiya, o'quv fanlarini o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan;

- Pedagogik mahorat fani pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik texnologiya, ijtimoiy pedagogika, psixologiya, o'quv fanini o'qitish metodikasi fanlari bilan;

- Ijtimoiy pedagogika fani pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, ijtimoiy psixologiya va boshqa fanlar bilan;

- O'qitish metodikasi fani pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, psixologiya, mehnat va muhandislik psixologiyasi, kasb ta'limi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi ko'rsatilgan.

Demak, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat” va “O'qitish metodikasi” fanlarini o'qitishda fanlararo aloqalarni ta'minlash muhim ahamiyatga ega

bo'lib, mazkur fanlarning o'quv dasturlarida keltirilgan mavzularni maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalarga bog'lab o'rgatilishi, ya'ni fanlararo aloqalari ta'minlanishi oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvda integrativ ma'ruzalar tashkil etishda ta'lim jarayoni yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib, ta'lim mazmunini loyihalashtirishda mavzular izchilligi asosida integratsiyalashuvi orqali, ya'ni har bir mavzuni o'zidan oldin turuvchi mavzuning mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda o'rganilishi inobatga olinishi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, tizimli yondashuv fanlar bo'yicha o'quv dasturlari tuzishda, mavzularning mazmun-mohiyatiga ko'ra soatlar taqsimlashda, shuningdek, ta'lim jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishda mavzularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligining ta'minlanishi fanlarning maqsad va vazifalarini o'zaro muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi.


Tizimli yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotiga tayyorlash jarayonlari modeli talabalarning tayyorgarlik darajasiga, fanlar bo'yicha bakalavrlarda shakllanishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga, o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar va ta'lim dasturlarining mazmuniga belgilangan talablarning yo'nalishini ifodalovchi va ta'lim-tarbiya jarayonida ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimni ifodalaydi (1-rasm).

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat ma'ruza, seminar, ekskursiya, pedagogik amaliyotlarni tashkil etish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash ishlarini ma'lum bir izchillikda va uzluksizligini ta'minlash asosida pedagogik tizim shaklida amalga oshiriladi.

Talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, so'rovnomalar o'tkazish, tahliliy baholash asosida faoliyatga tayyorlash jarayonlari samaradorligi aniqlanadi hamda ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida qabul qilingan yangi me'yoriy hujjatlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni, fan va texnika yutuqlarini, yangiliklarni, shaxs va jamiyat ehtiyojlarini, MTM amaliyotini o'rganish va tahlil qilish orqali innovatsiyalarni tatbiq etish uchun zamonaviy talablar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarining mazmuni yangilab, boyitib boriladi. Ya'ni me'yoriy hujjatlar va ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilib, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi tahlili natijalariga ko'ra mutaxassislik va pedagogika fanlaridan o'quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilish asosida yangi o'quv dasturlari yaratiladi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kelgusida mazkur muassasalarda qaysi lavozimda faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida faol ishtirok etishi uchun ularda:

– ta'lim-tarbiya jarayonini tashqi muhitning o'zgarishlariga mos ravishda rivojlantirish;



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari modeli

– ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosida muvofiqlashtirish hamda innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o'z tushunchalarini muntazam yangilab borish va rivojlantirish asosida ko'zlangan maqsadlarga erishishning yangi yo'llari va vositalarini izlab topish;

- ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashda tarbiyalanuvchilar faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyati;
 - shaxslararo munosabatlar jarayonida tarbiyalanuvchilar dunyoqarashi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining mavjudligi;
 - ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashning zaruriyati;
 - ta'lim-tarbiya jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos ahamiyati va zaruriyati;
 - motivlashtirish jarayonlarining samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayonlari natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi;
 - ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligi tarbiyalanuvchilarning qiziqishiga bog'liqligi;
 - motivlashtirish jarayonida ma'lumotlar va axborotlarning aniqligi hamda ishonchligining ahamiyati kabi yo'nalishlarda ham zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.
- Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishda yuqori samaradorlikka erishish uchun talabalarda:
- tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalari, tasavvuri hamda mustaqil fikrlariga ilmiy yondashish;
 - ta'lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
 - tarbiyalanuvchilarda ilm olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;
 - tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;
 - ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash;
 - tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion ta'lim-tarbiya tizimi sifatida yondashish;
 - ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyalanuvchilarda o'tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;
 - jamoaning ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirib borish kabi qator yo'nalishlarda yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirilish zaruratini inobatga olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev R.X., Turg'unov S.T. *Ta'lim menejmenti*. – T.: "Voriz", 2006. – 264-b.
2. Turg'unov S.T. *Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss.* – T., 2007. – 363-b.
3. Turg'unov S.T., Maksudova L.A. *Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish*. – T.: "Fan", 2009. – 146-b.
4. Shodmonov Q.O. *Oliy o'quv yurtlari kasb ta'limi yo'nalishi talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash: Ped.f.n. ...diss.* – T., 2008. – 153-b.

Muxabbat XALILOVA,

Navoiy viloyati PKQTMOI kafedra mudiri

SOG'LOM BOLANI SHAKLLANTIRISHDA OILA, MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI, MAHALLA HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada sog'lom avlodning dunyoga kelishida turli yoshdagi insonlarning ontogenez (tug'ilganidan umrining oxirigacha bo'lgan davr)da psixik rivojlanish jarayoni, shaxsning shakllanishida mazkur jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, bolaning o'yin, o'qish, mehnat kabi faoliyat jarayonlarida ishtirok etishida oila, maktabgacha ta'lim va mahalla hamkorligining ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Yosh avlod, shaxs, psixologik jarayon, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy faktorlar, faoliyat jarayoni, sog'lom immunitet, hamkorlik.

Статья посвящена совместной работе семьи, дошкольного образовательного учреждения, махали для достижения основной цели - формирование здорового ребёнка и качественной организации содержания учебно-воспитального процесса. Автор отмечает, что совместная работа семьи, дошкольного образовательного учреждения, махали обеспечит гармоничное развитие подрастающего поколения.

Ключевые слова. Подрастающее поколение, индивидуальный подход, физиологические факторы, биологический процесс, совместная работа.

The article is devoted to the work of the family, preschool educational institutions, waving to the achievement of the main goal-formation of healthy children and the quality of teaching and upbringing process. The author notes that the joint work of the family, preschool educational institutions, waving will ensure the harmonious development of the rising generation.

Key words. Healthy child, individual approach, physiological factors, biological process, pre-school education, joint work.

Sog'lom bola shakllanishida, birinchi galda, sog'lom ijtimoiy muhit ahamiyatli ekan, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazishda maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari, ota-onalar, keng jamoatchilik har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Ta'limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirish shaxs ontogenezida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta'lim tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan barcha mutaxassislar, jumladan, muhandis-pedagoglar yosh davrlari psixologiyasini chuqur bilishlari talab qilinadi.

Bugungi kunda sog'lom bolani voyaga yetkazishda oila va maktabgacha ta'lim, mahalla hamkorligidagi ishlar asosiy mezonlardan biri bo'lib, sog'lom bolani voyaga

yetkazishda, birinchi galda, oiladagi ijtimoiy faktorlar ularning o'z vaqtida oila muhitiga tatbiq etilishi shaxs taraqqiyotida, atrof-muhitni ma'naviy tarzda idrok etishida qo'l keladi. Oiladagi ijtimoiy faktorlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) sog'lom bolaning dunyoga kelishida ikki jinsning yosh, individual, fiziologik, biologik, jihatdan mosligi;

2) farzandga, u dunyoga kelmasdan turib, ota-ona tomonidan yaratiladigan sog'lom muhitning barqarorligi;

3) ota-ona tomonidan farzand kelajakda sog'lom va yetuk, oilasi, jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib taraqqiy etishida uzoqni ko'ra bilish qobiliyatining afzalliklari;

4) ota-onaning o'zaro munosabatlari;

5) ota-onaning ma'naviy jihatdan yetukligi;

6) oilaning pedagogik-psixologik tayyorgarligi;

7) oiladagi shaxslararo munosabatlarning sog'lomligi;

8) oiladagi qadriyatlar, an'analar, udumlarning mavjudligi va amal qilinishi;

9) farzand tarbiyasida erta aniqlanadigan, ichki motivlarni yuzaga chiqarishda yordam beradigan shart-sharoitlarning yaratilishi;

10) farzandning qiziqishlari, unda bo'ladigan psixologik-pedagogik o'zgarishlarning ota-ona tomonidan anglanishi;

11) sog'lom bola oila tayanchi, ota-ona baxti, jamiyat taraqqiyotining kaliti ekanligini har bir ota-ona idrok etish qobiliyatining mavjudligi;

12) oila tashkil etilishida mas'uliyat hissi, burch, vijdon kabi jihatlarning uning poydevorida jamuljam birlashishi;

13) bolaning voyaga yetishida atrof-muhitning va mahallaning ta'siri.

Yuqorida keltirilgan barcha ijtimoiy faktorlar oilada o'ziga xos tarzda mazmun, shakl jihatdan sayqal topishi, uning tatbiq etilishi uzviy va izchil tarzda amalga oshiriladigan jarayonlar sanaladi. Bola oilada ushbu faktorlarni idrok qilar ekan, shaxs sifatida taraqqiy etib boradi.

Oilada amalga oshiriladigan ijtimoiylashuv jarayonida mahalla hamkorligi, mahallada faoliyat yuritadigan mutaxassislarning o'z faoliyatiga mosligi, pedagogik-psixologik jihatdan yetukligi buning yorqin dalilidir, albatta, sharqona tarbiyada "Bir bolaga yetti mahalla ota-onadir!" deb ta'kidlanishi ham bejiz emas.

Sog'lom bola, deganda biz faqat bolaning fiziologik, biologik jihatdan salomatligini talqin etishimiz salomatlik masalasida bir yoqlama yondashuvga olib keladi. Bu masalaga atroflicha yondashish kelajakda komil insonni voyaga yetkazish, sog'lom bolada komillik sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Sog'lom bola shaxsini quyidagi sifatlarda ko'rish mumkin, jumladan:

- jismoniy jihatdan sog'lomligi;
- biologik, fiziologik jihatdan sog'lomligi;
- psixologik, pedagogik sog'lomligi;
- ma'naviy-madaniy jihatdan sog'lomligi;
- siyosiy-huquqiy jihatdan sog'lomligi;
- aqliy-axloqiy jihatdan sog'lomligi;
- estetik jihatdan sog'lomligi;
- gigiyenik jihatdan sog'lomligi;
- muloqot-munosabatlarda yetukligi;
- mustaqil faoliyat jihatdan sog'lomligi;
- his-tuyg'ularining boyligi jihatdan;
- ichki motivlarini to'g'ri, erkin namoyish eta olish;
- yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- mas'uliyat, burch, iroda;
- qarshiliklarni yenga olish;

- o'z mustaqil fikriga, qarashlariga ega bo'lish;
- atrof-muhitga nisbatan sog'lom munosabat o'rnatish;
- o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqara olish jihatlari;
- o'zgalarni tushuna olish, hayotni qalb ko'zi bilan o'qiy olish jihatlari;
- bilim-ko'nikma va malakalarini to'g'ri talqin eta bilish;
- hayotga, kelajakka nisbatan ertangi ko'z bilan qarash;
- his-tuyg'ularini jilovlay olish;
- o'z ustida ishlash.

Darhaqiqat, oila, mahalla hamda maktabgacha ta'lim muassasasida hamkorlikda uzviy va izchil ravishda tashkil etiladigan faoliyat jarayonlarini sog'lom bola taraqqiyotiga talqin etishda yuqorida keltirilgan sog'lom bolani shakllantirishga qaratilgan asosiy faktorlarda batafsil yoritib berilgan. Chunonchi, maktabgacha ta'lim faoliyatini tashkil etishda ham ushbu omillardan o'rinni foydalanish, faoliyat jarayonlariga tatbiq etish ahamiyatlidir, maktabgacha ta'lim tizimi sog'lom bolani shakllantirishda, ilk bilim, ko'nikmalarni tarkib toptirishda asosiy maskan sanaladi. Shu o'rinda, tarbiyachilar ota-onalar bilan birgalikda faoliyat yuritishlari, bolaning oilasi bilan yaqindan tanish bo'lishi, yosh ota-onalarga metodik yordam ko'rsatishi, oilalarning bir-biri bilan yaqindan muloqot o'rnatishi, sog'lom bola shakllanishida uni atrof-dagilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida yaqindan yordam beradi.

Har bir ota-ona farzandini kelajakda sog'lom va yetuk barkamol bo'lib yetishishini orzu qiladi. Lekin ushbu orzuni amalga oshirishda nimalar qilish lozimligini aniq belgilab olishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishadi. Natijada, bolada psixologik zo'riqishlar, organizmida modda almashishining buzilishi, nafas olish, yurak urish ritmining o'zgarishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun hamkorlikda tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim, mahalla, oila institutlarini hamjihatlikda, hamfikrlikda faoliyat yuritishi ushbu muammolar oldini olishga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar uchun seminar-treninglar, ma'ruzalar, noan'anaviy tarzda tashkil etiladigan suhbatlar (tibbiyot xodimlari, bolalar shoirilari, san'at va fan arboblari, olimpiada chempionlari) bilan ochiq muloqotning o'rnatilishi ham sog'lom bola shaxsi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahallada olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, mahalladagi namunali oilalar bilan uchrashuvlar, yosh oilalar bilan turfa mavzularda “Eng tajribali ota-ona”, “Yosh sportchilar”, “Bolangizni bilasizmi?”, “Sog'lom bola – sizning tasavvuringizda”, “Bola o'ynab dunyo taniydi”, “Er-xotin munosabatlarining bola tarbiyasiga ta'siri”, “Bolam sog'lom bo'lsin desangiz” mavzularida soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, adabiy kechalarning tashkil etilishi har bir oilaga ma'naviy ozuqa beradi.

Sog'lom bolani shakllantirishda, avvalo, har bir kishi o'zida sog'lom immunitetni shakllantirishi va buning uchun o'z mas'uliyati va burchi nimalardan iborat ekanligini aniq maqsadlar asosida belgilab olishi lozim. Albatta, qachonki bola ma'nan sog'lom bo'lsa, unda erkin fikr, o'zini namoyon eta olish muhiti yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Sog'lom bola” o'z taraqqiyotini kelajak taraqqiyoti bilan bog'laydi, iqtidorini tinimsiz ravishda shakllantirib boradi, har qanday sharoitda ham o'z e'tiqodi, mustaqil fikri, hayotiy qarashlariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog'lom bola yili” Davlat dasturi to'g'risida”gi qarori. 2014-yil, 19-fevraldagi PQ-2133-son.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. –T., 2012.
5. Bolajon tayanch dasturi. –T., 2010.

Zamira QO'ZIYEVA,

Navoiy viloyati PKQTMOI katta o'qituvchisi

TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHGA OID TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida kompyuter grafikasidan foydalanishga oid tavsiyalar berilgan. Muallif tasviriy san'at va chizmachilik darslarini sifatli tashkillashtirishda kompyuter texnikasidan foydalangan holda, to'g'ri chiziq, tekis, grafik ko'rinishdagi shakllar va detal ko'rinishini chizishga oid misollar keltirib o'tadi.

Kalit so'zlar. Axborot, kompyuter grafikasi, bino maketi, dizayn, kompozitsiya, shakl, detal, chizma, loyiha.

В статье раскрывается видение автора по решениям проблем использования компьютерной графики на уроках черчения и изобразительного искусство. Приведены примеры по использованию компьютерной техники на уроках черчения и изобразительного искусства.

Ключевые слова. Информация, компьютерная графика, макет здания, дизайн, создать композицию, форма, деталь, чертеж, проект.

In article the solution of problems of use of computer graphics at lessons of drawing and graphic art reveals. The author gave examples with use of the computer equipment on drawing of a straight line, a form, a graphic form, a projection of a detail and different forms graphic art.

Key words. Information, computer graphics, model of the building, design, create the composition, the form, detail, drawing, project.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida rasm chizish, kompozitsiya yaratish, chizgan rasmlar dizaynini o'zgartirish, naqshlarni bosqichlar asosida chizishda kompyuterdan keng foydalanish mumkin. Ayniqsa, dekorativ amaliy san'atga oid mashg'ulotlarni o'tkazishda islmiy va girix naqshlarini chizishda kompyuter grafikasidan foydalanish ishning natijasini oshiradi. Amaliy bezak va memorchilik san'atida kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda maktab chizmachilik dasturiga kompyuter grafikasidan foydalanish mavzusi kiritilgan bo'lib, o'quvchilar kompyuterda to'g'ri chiziq chizish, tekis grafik ko'rinishdagi shakllar detal ko'rinishlarini chizish, detalning fazoviy holati hamda uning shaklini qisman o'zgartirishni o'rganmoqda. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida kompyuter grafikasidan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchining bilim, ko'nikmalari oshib, yaratish, loyihalash malakalarini yanada rivojlantiradi.

O'quvchilar dars davomida nafaqat rasm, chizma chizish, loyiha yaratishni o'rganadilar, ular internetdan foydalanish orqali milliy san'atimiz namunalari, betakror san'at asarlari, tarixiy obidalarini ko'zlari bilan ko'rib asarlar yaratish layoqati rivojlanadi. Quyida chizmachilik darsini tashkil etishning noan'anaviy usuli haqida to'xtalamiz.

Mavzu: Kompyuter yordamida tekis va hajmli shakllar tasvirini yasash

Darsning maqsadi:

ta'limiy: o'quvchilarda kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalangan holda grafik tasvirlar yasash ko'nikmasini hosil qilish;

tarbiyaviy: o'quvchilarga gigiyenik va estetik tarbiya berish;

rivojlantiruvchi: o'quvchilarning chizmalarni kompyuter yordamida tasvirlash malakasini oshirish.

Dars usuli: Aqliy hujum.

Dars uslubi: Amaliy mashq bajarish.

Dars turi: Yangi bilim va tushunchalar hosil qilish.

Dars tipi: Aralash metod.

Darsning jihozlari: Sinf doskasi, bo'r, chizmachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Dars mavzusi yoritilgan chizma-plakat va darslik. Dars mavzusiga taalluqli chizma tasvirlangan plakat, kompyuter qurilmasi.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashish va yo'qlama qilish. Uyga berilgan topshiriqlarni nazorat va tahlil qilish. O'quvchilar yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarni umumlashtirib, tahlil qilinib, tushuntirib beriladi. Uch, to'rt nafar o'quvchilarning uy ishlari baholanib, e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

O'quvchilarning kompyuter texnikasi bilan 5-sinfдан beri tanish ekanliklarini hisobga olgan holda, ularning kompyuter grafikasi imkoniyatlari haqida qanday tushunchaga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. Qanday grafik muharrirlarni bilasiz?

Javob: Paint, Photo Shop, Corel Draw va h.k.

2. Siz 5-sinfda "Paint" grafik muharriri bilan tanishgansiz. Ayting-chi, "Paint" grafik muharririning "Uskunalar paneli"da qanday ishlarni amalga oshiramiz? Ularni sanab bering.

Javob: To'g'ri va egri chiziq chizish, chiziqlar qalinligini belgilash, o'chirg'ich, shaklning kerakli qismini belgilash va h.k.

3. "Paint" grafik muharririda rang qanday tanlanadi?

Javob: Sichqonchani ish oynasining pastki qismida joylashgan ranglar palitrasidan kerakli rangni tanlab olamiz va shu rangga siqchoncha tugmasini bosamiz.


4. Tanlangan rangni kerakli joyga qanday qilib joylashtiramiz?

Javob: Tanlangan rangni kontur bilan chegaralangan shakl ichiga olib kelib sichqoncha tugmasini bosamiz va rangni joylashtiramiz.

Siz shu paytgacha tayyor grafik muharrirlaridan foydalanib keldingiz. Endi esa, siz bilan shakllarni dasturlash jarayoni bilan tanishamiz. Buning uchun biror- bir dasturlash tili bilan tanish bo'lish kerak. Shunday dasturlash tillaridan biri "Beysik" dasturlash tili bo'lib, u boshlovchi dasturchilar uchun mo'ljallangan.

Beysik dasturlash tilida ishlash uchun ba'zi bir dasturlash buyruqlari, boshqacha qilib aytganda, operatorlari haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lish kerak bo'ladi. Display ekrani ikki xil axborotni, ya'ni matnli va grafik axbortlarni o'zida aks ettiradi.

Demak, avvalo, ekranni grafik holatga o'tkazishimiz kerak ekan. Bu vazifani "SCREEN 1" buyrug'i amalga oshiradi. Bu buyruqdan keyin ekran mayda nuqtalardan iborat bo'ladi. Eniga "x" o'qi bo'yicha – 0 dan 319 nuqttagacha, bo'yiga "y" o'qi bo'yicha – 0 dan 199 nuqttagacha (1-shakl).




1-shakl

Avvalo, ishni shakl yasash operatorlari bilan tanishishdan boshlaymiz:

- SCREEN 1 – grafik holatga o'tish;
- PSET – nuqtani tasvirlash;
- LINE – to'g'ri chiziq kesmasini tasvirlash;
- CIRCLE – aylanani tasvirlash.

Endi to'g'ridan to'g'ri dastur tuzishga o'tamiz. Buning uchun oddiy katak daftar varag'iga quyidagi shaklni chizib olamiz va har bir katak kattaligi 5 mm bo'lganini bilgan holda dastur tuzishni boshlaymiz (2-shakl). (Taqqimotdan foydalanish).



2-shakl

- | | |
|----------------------------|----------------------------|
| – SCREEN 1 | – grafik holatga o'tish; |
| – PSET (15, 10) | – nuqtani tasvirlash; |
| – LINE (45, 20) – (60, 65) | |
| – LINE (60, 65) – (25, 45) | – uchburchakni tasvirlash; |

– LINE (25, 45) – (45, 20)

– SIRCLE (80, 30), 15

– aylanani tasvirlash.

Dasturni ishga tushirish uchun klaviaturadan “F5” tugmasi bosiladi va qora ekranda oq chiziqlar bilan chizilgan tasvir hosil bo'ladi. Dastur bajarilishini tugatish yoki yana qaytadan dastur yozish holatiga qaytish uchun xohlagan tugmani bosish kifoya. Shunda dasturga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'ladi.

Dasturni tahlil qilishga o'tadigan bo'lsak, agar ahamiyat bergan bo'lsangiz, avvalo, “x” o'qining, so'ngra esa “y” o'qining koordinatalari qavs ichida berilishi lozim.

Nuqtani tasvirlashda ikkita koordinataning kesishgan nuqtasi ifodalanadi. Masalan: PSET (15, 10)

To'g'ri chiziqning ikkita nuqtasi mavjud bo'lgani uchun, qavs ichida birinchi va ikkinchi nuqtalar koordinatalari hamda ular orasiga “–” belgisi qo'yish bilan ifodalanadi. Masalan:

LINE (45, 20) – (60, 65)


LINE (60, 65) – (25, 45)

LINE (25, 45) – (45, 20)

Aylanani tasvirlashda, avvalo, qavs ichida aylana markazi koordinatalari va “,” belgisidan so'ng esa aylana radiusi beriladi. Masalan:

SIRCLE (80, 30), 15

Murakkab shakllarni tasvirlash dasturlarini tuzishda ishni osonlashtiruvchi ba'zi bir yengilliklar mavjud. Quyidagi shaklga qarang. Aslida, bu shakl dasturini tuzishda to'rtta LINE operatoridan foydalanish kerak bo'ladi (3-shakl).



3-shakl


Lekin bu shaklni yoki shunga o'xshash bo'lgan to'g'ri burchakli to'rtburchak dasturini tuzishda bitta LINE operatoridan foydalanilsa ham bo'ladi. Buning uchun to'rtburchakning qarama-qarshi burchaklari koordinatalari to'g'ri chiziq kabi belgilanib, qavsdan keyin esa ikkita “,” belgisi va “B” harfini yozish kifoya. Masalan:

LINE (20, 15) – (80, 60) , , B yoki LINE (20, 60) – (80, 15) , , B

Mabodo maktabda kompyuter texnikasidan foydalanishga imkoniyat bo'lmasa, u holda bu ishlarni yozma ravishda bajarish ham mumkin bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga topshiriq sifatida katak daftariga chizilgan detal chizmasini berib,

ulardan shu chizmaning dastur matnini yozib berishlarini topshirish mumkin. Yoki aksincha, o'quvchilarga dastur matnini berib, ulardan katak daftarga shu dastur matni asosida uning shaklini chizib berishlarini ham topshiriq sifatida berish mumkin. Ikkala holatda ham o'quvchining dastur tuzish va uni o'qish qobiliyatini aniqlash mumkin.

Siz ham quyida tasvirlangan shaklning dasturini tuzib, uni kompyuterda bajarishga harakat qilib ko'ring (*4-shakl*). Buning uchun, avvalo, daftarda koordinata o'qlarini chizishni unutmang.



4-shakl

Darsni yakunlash: Dars oxirida o'quvchilar tomonidan bajarilgan amaliy mashg'ulotlar tahlil qilinadi hamda vazifani to'g'ri va aniq bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa:

1. Darslikning "Kompyuter grafikasi" bo'limini o'qib, berilgan savollarga javoblar topish.
2. Katak daftar varog'iga biror-bir geometrik shaklni tasvirlab, uning dasturini tuzib kelish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov I., Valiyev A. *Chizmachilik. (Chizmachilik fanidan konstruksiyalash asoslari).* – T.: "Voriz", 2011.
2. *Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturi yordamida chizmalarni bajarish// o'quv-uslubiy qo'llanma.* – T., 2009.
3. Xalimov M. K. *Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi.* –T., 2011.

Nilufar ABDULLAYEVA,
Namangan DU o'qituvchisi

SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA BOLALAR ADABIYOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinfdan tashqari o'qish darslarida ta'lim samaradorligini oshirish uchun bolalar adabiyotidan foydalangan holda har bir darsni aniq maqsad asosida ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish haqida so'z boradi. Muallif o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, tafakkuri va dunyoqarashini takomillashtirish, sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, sinf va sinfdan tashqari o'qish darslari.

В статье раскрываются особенности внеклассных уроков чтения, с использованием детской литературы, которые создадут качественное усвоения учебного материала. Также автор предлагает превратить учащихся в активных участников образовательного процесса, которые будут способствовать рациональному использованию учебного времени, гарантирует расширение кругозора учащихся начальных классов. Предлагается методические рекомендации по организации внеклассных уроков.

Ключевые слова. Инновационные образовательные технологии, педагогическая технология, кругозор, уроки классного и внеклассного чтения.

The article reveals the features of extracurricular reading lessons, using children's literature that will create quality learning. The author offers to turn students into active participants in the education process, which will contribute to the rational use of school time, guarantees the expanding horizons of primary school children. Proposed guidelines for after-school lessons.

Key words. Innovational educational technologies, pedagogical technologies, technologic scheme, project of lesson, in and outclass lessons of reading.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli ta'lim tizimi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida fanlararo integratsiyalashuv muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Fanlararo integratsiyalashuv pedagogik hodisa sifatida ta'lim

an'analarga tayanadi, chunki o'rgatilayotgan fanlarning ayrimlari o'zaro integrativ xususiyatga ega. Ilmiy bilimlar ko'pincha u yoki bu fan ichida bo'lib, ular bevosita o'zaro bog'liqlikda o'rganilishini taqozo etadi. Masalan, savodxonlik darslarida o'qish va yozishga o'rgatishni ajratib bo'lmaganidek, o'qish darsida tabiat hodisalari va voqealarini o'rganish maqsadga muvofiq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiat va jamiyat rivoji to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni, butun bir yaxlitlikda osonroq tasavvur etadilar. Bu esa, boshlang'ich maktabda bir necha fanlarning o'zaro muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. Maktab amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktablarda fanlararo muvofiqlikni ikki xil yo'nalishda: fan ichida va fanlararo tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari samaradorligini oshirishda o'zbek bolalar adabiyoti namunalariidan foydalanish bo'yicha qator uslubchi olimlar o'z tavsiyalarini berishgan. Xalqimiz orasida satirik timsol darajasiga ko'tarilgan bo'ri, tulki, kalamush, qarg'a, chumchuq kabi ko'plab hayvonlar, parranda-yu darrandalar obrazidan foydalanib yaratilgan yumoristik obrazlar bilan turli xil jonivorlar, daraxtlar, o'simliklar olami, har xil predmet va hodisalarga ham murojaat qilinganligi o'quvchida bu obrazlarga nisbatan zavq, qiziqish uyg'otish tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Ayniqsa, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Usmonjon Shukurov kabi shoirlarning ijod namunalariidan sinfdan tashqari o'qish darslarida foydalanish va o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun tavsiya qilish alohida ahamiyatga ega. Bolalar tabiatni kattalarga o'xshab, jonli, jonsiz, deya ajratmaydi, xayoliy va hayotiy narsa-hodisalar o'rtasiga ham chegara qo'yishmaydi. Ular uchun tabiat va inson bir butun, yaxlit olam. Iste'dodli bolalar shoiri Abdurahmon Akbar bola qalbi, idrokining ana shu xususiyatlarini yaxshi ilg'aydi va yosh kitobxonga hayotiy-xayoliy voqealarni uyg'unlikda taqdim etadi. Buni uning "Uyquchining tushlari" to'plamidagi she'rlarda kuzatish mumkin. Masalan, bir she'rda chigirtkalar sokin tunda qo'shig'imizni butun qishloq zavq bilan tinglayotir (Chirildoqlar qo'shig'i), deb ishonishadi. Kichkintoy Yomg'irvoy esa, onasi Bulutning gaplariga quloq osib, ko'klam kelganda "Zaminga shoshiladi" (so'zlovchi yomg'ir), "ko'ngli tusab qolsa" ko'kdan tushadi-yu, "gullarning qulog'iga she'r o'qiydi" (Yomg'ir haqida she'r) mitti chumoli onasi xavotir olayotganini bila turib, yo'l chetida "tuproq-gardga" belanib yotgan ushoqdonni tashlab ketolmaydi. "Uni tishlab, ortmoqlab", uyiga tashiydi (Ziyrak chumoli haqida ertak).


O'quvchilarga matndan tasviriy iboralarni topish topshiriladi. Qaysi so'zlar obrazli tasvir yaratishga xizmat qilgan yangi yozuv taxtasiga yozib chiqiladi. Yomg'irning hosil bo'lishi, ahamiyati; chumoli va boshqa hasharotlar haqida "Tabiatshunoslik" bilan bog'liq tushunchalar mustahkamlanadi. Qizig'i shundaki, shoirning o'zi kabi kichik kitobxon ham bunga to'la ishonadi. Uning uchun tabiat hodisalari, jonzotlar, narsa-buyumlar bilan insonlar o'rtasida ayirma yo'q. Shuning uchun ham o'zi kashf qilgan har bir yangilikdan hayratga tushadi. Lirik qahramonning tasavvur tushunchasi bilan real voqelik o'rtasidagi nomutanosiblik, nomuvofiqlikdan kulgu yoki yechim talab muammo yaraladi. O'qituvchi ana shunday muammolarga o'quvchilar diqqatini qaratib, muammoli savolni yechishga yo'llasa, o'quvchilarning fikrlash salohiyati yanada takomillashadi. Masalan, "Bahorda yomg'ir yog'masa, qanday hodisa yuz beradi?", "Bahoroy kechikib

mart oyida emas, mayda kelsa-chi?”, “Ertalab quyosh chiqmasa, nima bo'ladi?” va hokazo. Bunday savollar o'quvchini o'ylantiribgina qolmay, yosh kitobxonning xayolot olamini boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi. Yomg'irning, suvning tabiatdagi ahamiyati, tabiatda suvning aylanishi (bug', bulut, yomg'ir) haqidagi bilimlar uzviyligiga tayanib ta'lim integratsiyasi asosida bilim mustahkamlanadi.

Bolalar shoiri Dilshod Rajab yaratgan rasm she'rlardan ham ana shunday didaktik maqsadlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Shoir narsa-predmetlarning poetik obrazini yaratar ekan, so'zlar vositasida ularning tasvirini chizadi. “Tanbeh”, “Sport maydonida”, “Minnatdorlik”, “Topishmoq she'r”, “Chivinga talangan”, “Futbol” kabi she'rlarida shu usuldan foydalanib yumoristik xarakterdagi o'ziga xos original obrazlar yaratgan. Predmetning so'zlar vositasida chizilgan suvrati orqali yumoristik ruh hosil qilishi shoir mahoratidan darak beradi. “Tanbeh” she'rida Xasxashak bilan belkurakning o'zaro munozarasi vositasida belkurakning quyidagicha obrazli suvrati kichik kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi:

*To'laganning bor-yo'g'i
Ikki uyum xas-xashak,
Darrov cho'zilib olib
Yotganing ne, Xasxashak?
Shuncha yerni ag'darib,
O'tirmasdan yana, ko'r;
Ishlayman, deb,*

*b
e
l
k
u
r
a
t i k k a
u n
r a
a k
r o'*



Shoir o'quvchini topqirlik bilan o'zi yaratgan shakl vositasida obrazli fikr yuritishga undaydi. Ularning o'ziga xos ko'rinishlariga moslab poetik obraz yaratadi va kitobxonni mushohada qilib, belkurak obrazi tasvirini topishga yetaklaydi. Agar xasxashakning tashqi ko'rinishi vositasida (cho'zilib yotish) dangasalik, ishyoqmaslik, tanballik tanqid qilinsa, ag'darilib qo'yilgan yerga suqib qo'yilgan belkurak timsolida mehnatsevarlik xislatlari ulug'lanadi. Eng muhimi, ushbu kontrast tasvirda voqelik bolalar tasavvurida jonlanib ularning tasavvurini boyitadi, kulgi hosil qiladi. “Odobnoma” va “O'qish” o'quv predmetlariaro integratsiya ta'minlanadi.

“Sport maydonida” she’rida bunday kontrast tasvirni ko’rmaymiz. Aksincha, turnikning ta’rifu tavsiflarga boy sur’ati chiziladi.

Keling, ko’rmoq bo’lsangiz

Uning kelbat-siyog’in.

Ana u polvon –

t u r n i k


u e

r r

a i

r b

oyog’in.



O’qituvchi bu shaklni doskaga chizish va unga ta’rif berishni so’raydi. O’quvchilar to’rtburchak bilan kvadrat shakllarining farqini izohlab beradilar.

Shu tariqa shoir she’rida turnikning shakl-shamoyili orqali uni obrazli ta’riflab bergan bo’lsa, o’quvchilar uni geometrik shakl sifatida ta’riflab, o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga erishadilar.

Biz yuqorida ko’rib o’tgan she’rlarning tarbiyaviy ahamiyati, shubhasiz, juda katta bo’lib, shoir shunchaki she’riy shakl yaratmaydi, balki shu shaklga mos bo’lgan va yumoristik ohangga ega badiiy ma’no-mazmunni ham she’r qa’riga joylay olganki, bu hol bolalarda ham so’z san’atiga bo’lgan mehr-muhabbatni oshiradi, ham ularning ma’rifiy-didaktik, estetik didlarining shakllanishiga xizmat qiladi, topqirlikka undaydi, obrazli fikr yuritish salohiyatini rivojlantiradi. Ayni damda sinfdan tashqari o’qish darslarida integratsiyalashgan bilim berish maqsadida biz o’quvchilarni matematika, ona tili, tabiatshunoslikdan o’zlashtirgan bilim ko’nikma va malakalarini uzviylashtirishga, yaxlit, mujassam shaklga solishga erishishni ko’zda tutamiz.

Xalqimiz orasida “Tuya hammomni orzu qilibdi”, “Chumchuq semirib botmon bo’lmas”, “Bu boshmi-oshqovoq?”, “It-mushuk” kabi maqol va iboralar mavjud. Asarda ularning mazmuni poetiklashtirilib, tuya, chumchuq, oshqovoq, it, mushuklarning yumoristik obrazi gavdalanitiriladi. Ulardan bolalarning o’zlari qiyinchiliksiz ma’rifiy xulosa chiqarib olishadi.

Masalan, “Tuyaning shikoyati” she’rida cho’l-sahrolarda chang-g’uborlarga ko’milib, iloji bo’lsa, har kuni cho’milishni orzu qilgan tuyaning yumoristik obrazi yaratilgan. Shoir tuya tilidan:

Qanday soz toza yurmoq,

Tozalik – sog’lik demak.

Shunday desam, ba’zilar

Kulishar qilib ermak.

Nima bo’pti, yomonmi –

Orzu qilsam hamomni?

deyish orqali yuqorida qayd etilgan maqolni she’rning mazmuniga joylaydi. Natijada, she’rni o’qigan kitobxon darhol maqolni yodiga tushiradi.

“Chumchuqning shikoyati”da chumchuq tovuqlarga sepilgan donni qizgʻanib, uni quvayotgan Xoʻrozdan yozgʻirib:

*Kichkina qornim bor,
Boʻlmasa buncha baxil?!
Egan bilan semirib –*

Botmon boʻlmayman axir, desa, Oshqovoq oʻzini Mirsaidning hadeb Norboʻtaning boshiga oʻxshataverishlaridan xafa boʻladi. Doimo inoq, ahil yashaydigan Olapar bilan Baroq ham bir-biri bilan urishib yuradigan aka-singil Nabi bilan Guloyimni it-mushuk deb oʻzlariga oʻxshatishlaridan xafa boʻlishadi.

Shoirning bu tipdagi sheʼrlari bolalarda quvnoq kulgi hosil qilishi barobarida ularning maqol va iboralarning mazmun-mohiyatini anglashga boʻlgan qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qilishi bilan ibratlidir. Bunday sheʼrlar orqali oʻquvchilar oʻzlariga tanqidiy koʻz bilan qarashga oʻrganadilar. Urishqoqlik, baxillik, befahmlik yomon xususiyat boʻlib qolmay, bunday feʼl bilan odam kulgili holatga tushib qolishi mumkinligiga diqqatni qaratish foydali boʻladi. Bu oʻrinda, biz “Odobnoma” oʻquv predmetlariga bir qator tushunchalarni uzviylashtirishga erishamiz.

Shoirning “Toshning boshi “T” toʻgʻrisidagi ertak” asari maʼrifiy xarakterda boʻlib, unda Tosh va Tulki voqeasi orqali bolalar ibratli xulosalar chiqaradilar. Ertakda tulkingin yovuzligi, duch kelgan jonzotni yeb bitirishi hikoya qilinadi.

Shunday kunlarning birida unga Tosh duch keladi va u oʻzining tadbirkorligi tufayli omon qoladi. Shoir toshning tadbirkorligini tasvirlar ekan, mohirlik bilan soʻz qoʻllashda tovush va harflarning oʻrni haqida badiiy saboq beradi. Tulkiga duch kelgan “T” oʻzini yoʻqotmay uzr soʻrab, oʻzi toshga bosh ekanligini, agar tosh boʻlmasa, oʻzi ham ado boʻlishini aytar ekan, ayni chogʻda tulkiga yemish boʻlish oʻzi uchun sharaf ekanligini, faqat bir andishasi borligini aytib, shunday deydi:

*Mensiz putur yetgusi
Sizning ulugʻ nomga ham.
Yaʼniki, u holda Siz
Ulki boʻlib qolasiz,
Butun oʻrmonistonda
Kulki boʻlib qolasiz.*


“T” harfi orqali sheʼrda zukko, topqir odam obrazi, Tulki orqali esa xalq ogʻzaki ijodida shakllangan laqma, farosatsiz odamlar timsoli yaratilgan. Bunda ushbu harf bilan bogʻliq holda katta maʼrifiy-ijtimoiy xulosalar kelib chiqadiki, bunga oʻquvchilar diqqatini obrazlar tahliliga qaratish orqali erishiladi.

Mazkur iddaoni eshitgan Tulki oʻylanib turib, Toshni yemay ketadi. Tosh boshi, yaʼni “T” ning tadbirkorligi, aqligi tufayli omon qoladi. Shoir ushbu voqealarni chiroyli soʻz oʻyinlari bilan ifodalab, topqirlik bilan topilgan maʼrifiy xulosani kitobxonga quyidagicha bayon qiladi:

Xulosa: *boshi borlar,
Zavol bilmaydi Toshday.
Tulkilarga yem bo'lar
Faqatgina beboshlar.*

O'qituvchi "Klaster" usulini qo'llab, xulosani o'qib bermay, o'quvchilarning o'zlariga havola qilishi darsning qiziqarli va ta'sirchan yakunlanishini ta'minlaydi.

1-chizma



Demak, sinfdan tashqari o'qish darslari uchun kitob tanlashda o'quvchilar yoshi, qiziqish va ehtiyojlari e'tiborga olinadi. Tanlangan asar ularni obrazli fikr yuritishga undashi, mustaqil fikrlash salohiyatlarining tarkib topishiga, dunyoqarashining kengayishiga, ijodkorlik qobiliyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi ko'zda tutiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida ma'rifiy-didaktik ahamiyatga ega bo'lgan bolalar adabiyoti namunalari o'qib o'rganish vositasida o'quvchilar nutqini takomillashtirish, estetik didi va kitobxonlik darajasini o'stirishga erishishi mumkin. Bolalar adabiyoti namunalari markazidagi obrazlar o'quvchi-kitobxon ma'naviyatini yuksaltirishga, odob-axloq tushunchalarini kengaytirishga, illatlarga qarshi salbiy munosabatlarini paydo qilishga ta'sir ko'rsatadi. Rang-barang obrazlar, mavzular, ma'naviy-axloqiy muammolar badiiy talqin qilingan asarlarni o'qib o'rganish vositasida o'quv fanlariaro integratsiyani ta'minlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. – 4-b.
2. Safo Matjon. Ikki el ardog'ida. – T.: "Musiq", 2009.
3. Jo'rayeva T. O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorati. – T.: "Muharrir". 2011.
4. Rajabov D. Otamning bog'i. /She'rlar/. – T.: "Cho'lpon". 1995.

Dilorom SALIYEVA,
Qo'qon DPI o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA O'ZINI O'ZI ANGLASH ORQALI O'QUV MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH

Annotatsiya

Maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarning o'zini o'zi anglash, bilish faolligi, ijodiy yo'nalganligi, tashabbuskorligi, o'z oldiga maqsad qo'ya olishi, o'z ishlarini rejalashtira olish kabi xususiyatlarini ochib bergan. Muallif "O'z o'zini anglash" va "O'quv mustaqilligi" kabi tushunchalarga ta'rif beribgina qolmay, kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy hamda aqliy qobiliyatlarini, xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o'zini-o'zi anglashga oid jihatlarga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar. O'zini o'zi anglash, o'quv mustaqilligi, shaxs, jamoa, vazifa, maqsad, qiziqish, refleksiya, o'quv faoliyati.

В статье рассматривается проблема готовности детей к школьному обучению. Автором выделяются и характеризуются педагогические и психологические аспекты подготовки детей к школе. Также даются определения понятиям "Самопознания" и "Независимость в восприятии учебного материала", анализируются пути преодоления у школьников младшего возраста различных проблем в учебном процессе.

Ключевые слова. Самопознание, личность, группа, потребность, цель, интерес, рефлексация, учебное деятельность.

The article describes a problem child for school readiness. The author identifies and describes pedagogical and psychological aspects of preparing children to school. Also provides definitions of the concepts of "self discovery" and "independence in the perception of educational material," explores ways to overcome the various problems of young school children in the learning process.

Key words. Psychological development, self-knowledge, a person, a group, need, purpose, interest, imitation, reflection, educational independence.

Insonning psixik rivojlanishida o'zini o'zi anglashi o'zini jismoniy, ma'naviy hamda ijtimoiy mavjudot sifatida anglashining qaror topishi bilan bog'liqdir. O'zini o'zi anglash – bu insonning o'zini shaxs sifatida tanishi, o'zining jismoniy hamda aqliy qobiliyatlarini, xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini anglashda namoyon bo'ladi.

O'zini o'zi anglashning psixologik tabiati haqidagi ikki xil munosabatning mavjudligi uning paydo bo'lish sabablarini, yo'nalish obyekti, tadqiqot predmetini turlicha yoritilishiga olib keladi. Birinchi yondashuvga ko'ra, o'zini o'zi anglash inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatning o'zaro nomutanosibligidir. Inson muayyan jamiyatda, ijtimoiy muhitda yashar ekan, u qonun-qoidalarga va tartib intizomga bo'ysunishga hamda shular asosida o'z xulq-atvorini idora qilishga, boshqarishga majburdir. O'z xulq-atvori va munosabatlarini o'zi idora qilish jarayoni esa, ularni yuzaga keltiruvchi

ehhtiyojlarni, xohish istaklarni, motiv mayllarni maqsad va qiziqishlarni imitatsiya, identifikatsiya, refleksiya bosqichlari kechishini boshqarishdan iboratdir. Bunday mazmundagi anglash va uni idora qilish ehtiyojning individual ongdagi ifodasini hamda ular o'rtasidagi bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishni taqozo etadi. O'zini o'zi anglashning bosh sababi ham, yo'nalish obyekti ham ongdir, ya'ni u ongning ichki barqarorligi natijasida yuzaga keladi va barqarorlikni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

O'zini o'zi anglashning ikkinchi yondashuvi, S.L. Rubinshteynning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, uning fikriga binoan ong va o'zini o'zi anglash jismoniy real hamda yuridik shaxsga taalluqli xususiyatlardan iborat bo'lib, ular uning hayoti va faoliyatini vosita sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir. O'zini o'zi anglashni shakllantirishning manbayi ong va undagi ziddiyat bo'lmasdan, balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi sanaladi. O'zini o'zi anglashning paydo bo'lishini ta'minlovchi maxsus shartni aniqlash uning subyekti to'g'risidagi muammoni hal qilishni, muayyan yo'l-yo'riqlar va oqilona usullarga asoslanuvchi yechimni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf davri shaxs shakllanishining muhim davri hisoblanib, bu davrda bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni, shuningdek, o'z sinfi va oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan va o'zini anglagan bo'ladi. Bola o'zini o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "*Men yaxshi bolaman*" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zini o'zi anglashi dolzarb muammolardandir. Bu davr o'quvchining o'quv faoliyati subyekti sifatida shakllanishi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlarini anglaydilar va o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'zini o'zi anglashi, o'z-o'ziga beradigan bahosi, uning turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liqdir. Ularning o'zlariga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat (mos yoki past) bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu davrida bola o'zini o'zi anglashdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhim bo'lib bu xususiyatlarning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga xos shaxs pozitsiyasining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zini o'zi anglashining rivojlanishi har bir bolada o'ziga xos tarzda yuzaga keladi. U bolaning o'z xohishlari va faoliyati motivlarini anglashi bilan bog'liq bo'lib, bu bolaning ilk yoshida namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshi davrida bolaning o'zini o'zi anglashi o'ziga o'zi baho berishi orqali namoyon bo'ladi. O'ziga o'zi baho berish emotsional xarakterga ega bo'ladi. O'zini o'zi anglashining rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan bog'liqdir. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o'zini, ham o'zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zining ijtimoiy "men"ini anglash shakllanadi. Bog'cha yoshining oxiriga kelib bolaning o'zgalarga va o'z-o'ziga beradigan bahosidagi mustaqillikda tanqidiy ruh ancha o'sadi. Bu yoshdagi bolaning motivatsion sohasi aktiv rivojlanib, aynan shu davrga xos motivlar paydo bo'ladi. Bular orasida bolaning kattalar olamiga bo'lgan qiziqishi, ularga o'xshashga harakat qilishi bilan bog'liq motivlar ham yuzaga keladi. Bu esa bolada o'zini o'zi anglash va mustaqillikni namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi – ijtimoiy omillar individning psixik

rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchining tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda, bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tasavvur harakatlarini mustaqil bajarishga qiynaladilar.

O'quv faoliyatida o'quv mustaqilligini tashkil etish uchun o'qituvchi quyidagi jihatlar asosida yondashish zarur.

1. O'quv mazmunini shunday qurish kerakki, bolalar harakatning ma'lum bo'lgan yo'li bilan yangi vaziyatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko'rishlari kerak.

2. Bolalarning yangi vaziyatlarda qanday harakat qilishlari kerakligi haqidagi taxminlari, o'ylarini to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar qo'llab-quvvatlash.

3. Har bir bola uchun intellektual qiyinchiliklarni boshidan o'tkazish, ularni bartaraf etishni emotsional ravishda his etishlari uchun imkoniyat yaratish.

O'quv faoliyatida o'quv mustaqilligini tashkil etish uchun yuzaga kelgan o'quv odatlari va ustanovkalarni yengish qiyinroq bo'ladi. Bu odat va ustanovkalar quyidagilardan iboratdir:

– O'quv ishi bilan har bir bola o'zi yolg'iz shug'ullanishi kerak. O'z ixtiyori bilan o'rtog'iga yordam berish, ko'pincha, aytib berish yoki ko'chirmachilik deb sanalib, buning uchun bola tanbex eshitishi mumkin.

– Bolalarning fikrlari ideal ham axmaqona ham bo'lishi mumkin. O'qituvchining ruxsatisiz ular haqida bahslashishi ham foydalanish ham mumkin emas.

– O'qituvchi doimo haq, uning fikrlarini tushunish, eslab qolish va qo'llash zarur. O'qituvchining fikrlariga qo'shilmaslik, o'zicha ish yuritish odobdan emas.

– Faqat ustozning “savollar bormi?” deganidan so'ng savol berish mumkin.

– O'quvchilarning to'g'ri javoblarini o'qituvchi maqtaydi, noto'g'rilarini to'g'rilaydi. Bolada “o'rtoqlarimning xatolariga u qadar tashvishlanishim kerak emas, asosiysi o'zim xato qilmasligim kerak” degan fikr bo'ladi.

– Xato yo'q, faqatgina tasdiqlanadigan yoki tasdiqlanmaydigan fikrlar bo'ladi. O'z fikrlarini bildirish faxrlidir.

– Mening fikrim o'qituvchi uchun ham tengdoshlarim uchun ham ahamiyatli, ham qiziqarli. Lekin bu fikrlarni asoslab berish kerak.

– Darsdagi aytiladigan har bir fikr shaxsan men uchun yo'naltirilgan. Mendan shu paytda fikrimni kutadilar. (Juda bo'lmaganda fikrlariga qo'shilish yoki qo'shilmasligim)

– O'qituvchining ta'siridan fikrim to'g'ri yoki noto'g'riligini hamisha ham anglash qiyin. Sinfdozlarim bunda yordam beradilar.

– O'qituvchining menga taklifi har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Ba'zan o'qituvchi o'zi bilan baxslashishga taklif etsa, ba'zan esa har qanday normal kishi singari xato qilishim mumkin. Unga yordam berish kerak.

– Sinfdozlar va o'qituvchilarga yordam berish, ulardan yordam kutish bu normal holat hisoblanadi. Bolalarga tashabbuskorlik, o'quvchining izlanuvchanlik faoliyati,

agar bu faoliyat “yaratish, ixtiro etish”, masala yechimi yo’llari va vositalarini mustaqil ravishda topish asosida yuzaga kelsa – o’quv mustaqilligining asosiy yuqori oliy qiymatlaridan biridir.

– Bolaning izlanuvchanlik faolligini ehtiyotlab qo’llab-quvvatlash, o’quvchilarni mustaqil o’qishga o’rgatishga harkat qiladigan o’qituvchining asosiy maqsadidir. Lekin o’quvchida erkinlik, mustaqillik tashabbuskorlikni rivojlantirish maqsadi, har doim ham o’quvchi xatti-harakatida amalga oshirilavermaydi. O’quvchilarda shaxsiy izlanuvchanlik faoliyatini tashkil etish, ularga tayyor namunalar, fikrlarni bermagan holda o’zi qidirib topishga undovchi faoliyatni tashkil etish, o’qituvchining asosiy qiyinchiliklaridan biridir. Qoida, namuna, yo’l-yo’riq, ta’riflarni bolalar o’zlari mustaqil ravishda yarata oladilar, qachonki o’qituvchi ularni ikki narsaga o’rgatgan bo’lsa: 1) bola qiladigan narsani o’zi bajarib bermasa, 2) boladagi izlanuvchanlik, masala yechimidagi shaxsiy o’ylab topgan variantini qo’llab ko’rish xoxishini va xatti-harakatlarini qo’llab-quvvatlash shundagina o’qituvchi o’z maqsadiga erishishi mumkin.

– Bolaning o’zini o’zi anglashi, turmushdagi mustaqilligi va o’quv mustaqilligining tabiati bir xildek bo’lib tuyuladi. Bola qancha erta o’ziga xizmat ko’rsatishga, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga, ma’lum bir qoidalarga amal qilishga o’rgansa uning maktab talablariga moslashishi osondek bo’lib tuyuladi. Bu fikr unchalik to’g’ri bo’lmashligi mumkin. Ba’zan maktabgacha yoshdagi bola uyda va bog’chada to’liq mustaqil o’zi kiyinib-yechinadi, bolalar bilan oson do’stlashadi, onasiga yordam beradi. Maktabga borgandachi? O’qituvchidan bolangiz darsda o’qituvchining yordamisiz hech narsa qila olmasligi, hattoki, uy vazifasini ham o’zi yoza olmasligi haqidagi fikrlarini eshitishingiz mumkin. Bunday qarama – qarshilik turmushdagi mustaqillik bilan o’quv mustaqilligi tushunchalari bir-biriga har doim ham mos kelavermashligi bilan bog’liq.

O’quv mustaqilligi – bu o’z oldiga turli o’quv masalalarini va vazifalarini qo’ya olishi va tashqaridan keladigan ko’mak va yo’naltirishsiz ularni yecha olish, bajara olish ko’nikmasi bo’lib, borada bolaning o’zini-o’zi anglashi, bilish faolligi, qiziqishi, ijodiy yo’nalganligi, tashabbuskorligi, o’z oldiga maqsad qo’ya olishi, o’z ishlarini rejalashtira olish kabi xususiyatlari bilan bog’liqdir.

O’quv mustaqilligi, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik faolligi bo’lib - bu zamonaviy maktabning yetuk bitiruvchisini portret chizgilaridir. Bunday xususiyatlar maktab ta’limi fundamenti bo’lgan boshlang’ich maktabdan shakllantirilishi kerak. O’quv mustaqilligini, tashabbuskorlikni, izlanuvchanlik faolligini o’stirish uchun birinchi sinfdanoq har bir darsda o’quvchi shaxsidagi shu xususiyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim. Hech kim kelgusida duch kelinishi mumkin bo’lgan vaziyatlarni oldindan aytib berishga va shunday vaziyatlarda kerak bo’ladigan bilimlar va malakalar bilan qurollantirishga qodir emas. Lekin shunday vaziyatlarda kerak bo’ladigan bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish, ulardan mustaqil ravishda foydalana olish, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish bugungi kun pedagogik psixologiya fani shuningdek ustoz va o’qituvchilarning asosiy vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Dusmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M., To’ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” – T.: TDP, 2004 .
2. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O’z.FMJ, 2008.

Dilorom YETMISHEVA,
Farg'ona viloyati PKQTMOI o'qituvchisi

MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarga mehnat ta'lim darslarida, ularni ma'naviy-axloqiy tayyorlashdan tashqari g'oyaviy-axloqiy va shaxs sifatida shakllantirishni kompleks tashkil etish masalasi yoritilgan. Shuningdek, muallif bolalarga jamoada ishlashni, ijodiy tashabbusni hamda mehnatga nisbatan ularning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish kerakligini bir qator misollar yordamida keng yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Mehnat ta'limi, bilim, ko'nikma va malaka, ma'naviy-axloqiy, psixologik, kasbiy mahorat, kasbiy malaka.

В статье раскрывается задачи комплексной организации труда, формирования у молодёжи трудовых навыков, духовно-нравственных, идеологически-нравственных и личностных качеств. Также автор утверждает, что развитие у учащихся таких качеств как работа в коллективе, дружеская взаимопомощь, творческая инициатива способствует положительному отношению к труду и будущей профессиональной деятельности, формированию у обучаемых трудовых умений и навыков.

Ключевые слова. Трудовое образование, знание, навыки, умения, духовно-нравственный, психологический, профессиональное мастерство, профессиональные навыки.

In article reveals tasks of the complex organization of ideological and moral and personal formation at youth labor skills at manual training. Also the author on examples claims that development of the positive relations as training of children for work in collective, friendly mutual aid, a creative initiative, age features of children help formation of labor skills.

Key words. Labor training, labor education, knowledge, qualification and skills, psychological, professional qualification, professional skills, professional culture, professional abilities.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asosiy e'tiborni pedagog-kadrlarni tayyorlash kasb madaniyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini kuchaytirish, yuqori malakali pedagoglarning madaniy va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, barcha ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagogik kadrlar bilan to'liq ta'minlanishga qaratib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "2004 – 2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" Qonunlariga binoan o'qituvchilarning kasb madaniyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratib, yanada rivojlantirib borish ishlari zamon talablari asosida amalga oshirilishi kerak.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Zamonaviy ma'naviy barkamol

inson degan nomga ega bo'lish uchun g'oyaviy chiniqqan, keng siyosiy bilim doirasiga ega bo'lgan, o'z kasbini mukammal bilgan o'z ishiga ijodiy yondashgan, kishi bo'lishi lozim. Shuning uchun ham yoshlarga mehnat tarbiyasini berish, ularning g'oyaviy-axloqiy va shaxs sifatida chiniqish ishlarini kompleks tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'limini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida mehnat ta'limining ahamiyati haqida shunday deyiladi: "Maktabdagi mehnat tarbiyasi va ta'limining maqsadi mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan; o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirishdan; o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iborat".

Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinflardagi mehnat darslari hamda kichik maktab yoshidagi bolalarning qo'ldan keladigan foydali ishdir.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari milliy tarbiyaning maqsad va vazifalari tomonidan belgilanib, u mehnatga ahloqiy va psixologik tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich mehnat ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayyorlash, o'quvchilarni mehnat ta'limi jarayonida har tomonlama kamol toptirish kabilardan tarkib topadi.

O'quvchilarni mehnatga axloqiy tayyorlash. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda, eng avvalo, mehnatga munosabatni shakllantirish tushuniladi. Agarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga tatbiqan gapiradigan bo'lsak, ularning bu yoshidan mehnatni sevish, shu mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi. Mehnatga munosabat shu mehnatning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday mehnatda jonbozlik ko'rsatish, ishga shaxsan mas'uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi.

Mehnatga psixologik tayyorlash. Mehnatga psixologik tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun mehnat ta'limi va tarbiyaga singib ketgandir. Bolani mehnatga psixologik tayyorlash bu – unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat bu – har bir shaxsning vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan faxrlanishi, faqat Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatlari rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam beradi.

Shuningdek, mehnatga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, psixomotor, emotsional-idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi protsesslardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik komponentlari deyiladi.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, mehnat ta'limi uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'ruv, eshitish, his etish, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinflar o'quvchilariga yangi materialni yoki uskunalarni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini aktivlashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday aktivlashuvi material

haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun o'quvchilarining xotiralarini o'stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi. Mehnat bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi asboblari, materiallari, nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z-nomni predmetni ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar. O'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, operatsiyalarning izchilligini ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat ta'limida eshitis, ko'rish xotirasi va harakatlantiruvchi xotira ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda xotirlab qolish kerak.

Mehnat ta'limining to'g'ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda turli psixologik holatlar: aktivlik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Mehnatga ma'naviy va psixologik tayyorlash o'zining real bazasiga, ya'ni mehnat haqidagi bilim, ko'nikma va amaliy malakalar majmuasiga ega bo'lishi kerak. Agarda bola mehnat qilishga o'rgatilmagan bo'lsa, uning uchun mehnat faoliyati maqbul mashg'ulotga aylanmaydi, unda kerakli ijobiy emotsiyalarni va boshqa psixologik ko'rinishlarni keltirib chiqara olmaydi.

Inson hayotida mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli kishi uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o'z mehnati uchun shaxsiy mas'uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yaxshi jihozlanmagan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomuvofiq asboblari bilan shug'ullansalar, ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi. Bunday sharoitda, tabiiyki, mehnatga tartiblilikni, aniqlikni, asboblarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash qiyin bo'ladi.

O'quvchilarda mehnat madaniyatining tarkib topishi uchun darslarda doimo ularning e'tiborini uskuna va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlari me'yori va sur'atiga ish sifatini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat, narsani chiroyli qilib bezashga jalb qilib borish kerak. Bunda mehnat ta'limi o'qituvchilariga muayyan talablar qo'yiladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining pedagogik madaniyati yuksak darajadagi ishlab chiqarish va ilg'or texnologik tajribaga asoslanadi hamda bu ma'lum darajada o'qituvchilarning ushbu toifalarini saqlab qolish kafolatini beradi. Shuningdek, amaliyot va ta'lim muassasasi oralig'ida o'qituvchining qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan asosiy qarama-qarshiliklarning yechimini ta'minlaydi. Shuning uchun u o'qituvchi, tarbiyachi va bo'lg'usi mutaxassislar shaxsining murakkab ijtimoiy tavsifini ifodalaydi. Fan o'qituvchisidan farqli tarzda ishlab chiqarish ustasi o'z umrini ushbu kasb bilan bog'lagan bo'ladi.

Shu bois, o'z o'quvchilariga kasb sirlarini ochuvchi o'qituvchi uchun ushbu kasb nafaqat o'zining hayotiy ehtiyojlarini qondirish, balki malakali shogirdlar tayyorlash istagini qondirish manbayidir.

O'quvchilarni qiziqitiradigan va ular tanlaydigan kasbga bo'lgan talab va ehtiyojlarni o'qituvchi juda yaxshi his qilishi lozim. Shundagina o'qituvchi o'quvchiga nisbatan shunday yo'l tutadiki, uning o'ziga xos usulini kasb pedagogikasiga oid darslik va adabiyotlardan izlab topish imkonsizdir. Buning uchun o'qituvchi rivojlangan reflektiv qobiliyat va pedagogik tajribaga ega bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda mehnat ta'limi o'qituvchisi oldiga o'quvchilarga individual ta'lim berish vazifasi qo'yilmoqda. Har qanday kasb ma'lum bir ijtimoiy institutdir, mehnat ta'limi o'qituvchisi kasbning o'ziga xos xususiyatlari uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan holda shogirdlariga shaxsiy-kasbiy madaniyatni namoyon etadi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'quvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, ularga qulay va oqilona yo'l bilan ish bajarishni o'rgatadi, shuningdek, ishlarni tashkil etishning ilg'or namunalarini, xom-ashyoni tejashga, intizomga rioya qilishga, mehnat havfsizligiga o'rgatib boradi.

Bizning tadqiqotimizda mehnat ta'limi o'qituvchisining o'z faoliyatini o'zi boshqarishi va turli xil psixologik vaziyatlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi juda muhim rol o'ynaydi. Ushbu qobiliyat egasi bo'lgan pedagog o'z faoliyatining maqsadi va vazifalarini o'zi mustaqil tanlaydi, pedagogik jarayonni asosli boshqaradi va turli psixologik holatlarni ongli ravishda boshqarib boradi va shu qobiliyatlar tufayli o'qituvchi quyidagi fazilatlarni o'zida namoyon qiladi, ya'ni yuqori faollik, o'z fikrida qat'iy turish, talabchanlik, sabr-matонат, jasurlik, shuningdek, pedagogik qiyinchiliklarni oson yengib o'tish, o'zining kelgusidagi pedagogik faoliyatini loyihalashtirishni qulay usullarda tanlash va x.k.

Tadqiqotimiz uchun mehnat ta'limi o'qituvchilarining maxsus tayyorgarliksiz, hayotiy tajribaga ega bo'lish natijasida o'zlashtirgan bilim va tushunchalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday nuqtayi nazar vakillari pragmatik o'qituvchilar bo'lib, ular pedagogik faoliyat bilan ongli tarzda muntazam shug'ullanadilar. O'z faoliyatlarini bevosita kundalik tajribalariga asoslangan holda tashkil etadilar.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik faoliyati kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglash va pedagogik tajribaga tengdir. Bu o'qituvchi faoliyati tarkibiga o'zaro aloqador qismlar sifatida singdiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R.M. *Mehnat ta'limi metodikasi: Oliy ped.va max.o'rta bilim yurt. uchun o'quv qo'll.* – T.: O'qituvchi, 1986. – 248-b

2. Маркова А.К. *Психология труда учителя: Кн. для учителя.* – М.: Просвещение, 1993.

3. Магзумов П.Т. *Проверка и оценка качества знаний и умений учащихся по трудовой подготовке.* – Т.: УзНИИПН, 1990.

4. Muslimov N.A. *Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok... diss. Avtoreferati.* – T.: 2006.

5. Raximov B.X. *Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi. Ped.fan nom.diss.avtoref.* – T.: 2005.

Xayitgul MUZAFFAROVA,
Dildora MUSTAFAQULOVA,
Jizzax DPI o'qituvchilari

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish yuzasidan yordamchi maktablarda olib borilayotgan korreksion ishlar keng yoritilgan. Mutaxassislarning fikriga tayangan holda muallif mazkur bolalarning saqlanib qolgan salomatligi davomiyligini ta'minlash uchun hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasini bosqichma-bosqich amalga oshirib borish lozimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Yordamchi maktab, jismoniy kamchilik, amaliy faoliyat, sog'lom turmush tarzi, tibbiy bilim, amaliy ko'nikma.

В статье анализируются коррекционные работы в специальных общеобразовательных учреждениях. Автором анализируется учебно-воспитательный процесс проводимые в образовательных учреждениях, для детей нуждающихся в специальной помощи. Основываясь мнениям специалистов, автор подчеркивает, что для обеспечения сохранности, укрепления здоровья детей нуждающихся в специальной помощи необходимо пересмотреть обучение и систему повышения квалификации работников специальных образовательных учреждений.

Ключевые слова. Вспомогательная школа, физический дефект, практическая деятельность, здоровый образ жизни, медицинско-гигиенические знания, практический навык.

In article reveals tasks of the complex organization of ideological and moral and personal formation at youth labor skills at manual training. Also the author on examples claims that development of the positive relations as training of children for work in collective, friendly mutual aid, a creative initiative, age features of children help formation of labor skills.

Key words. Pupil needing the special help, the auxiliary school, physical defect, practical activities, healthy mode of life, medical knowledge, practical skill.

Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda salomatlik insonning eng muhim boyligi sifatida qaraladi. Sog'lom inson har bir jamiyatda katta kuchga ega bo'lib, yaratuvchilik vazifasini bajaradi, intellektual va jismoniy qobiliyatning manbasi hisoblanadi. Salomatlik inson hayot tarzida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning kasbiy yetukligi va ijodiy o'sishida muhim omil hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, aholi salomatligining 20 foizi irsiy omillarga, 20-30 foizi atrof-muhit ta'siriga,

40-50 foizi esa, turmush va tafakkur tarziga, qolgan 10 foizi sog'liqni saqlash xizmati faoliyatiga bog'liq ekan.

Yoshlar hayotda o'z o'rinlarini endi topayotgan, mustaqil rivojlanayotgan bir paytda, ular ongida sog'lom hayot tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lomlashtirish konsepsiyasi yoshlarni o'z salomatligiga munosabatini tubdan o'zgartirish, harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va sog'lom dam olishni tashkil etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu masala yuzasidan Respublikamizda keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, "Sog'lom ona – sog'lom bola" dasturi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish bilan bir qatorda alohida yordamga muhtoj bolalarning maxsus ta'lim tizimini ham bevosita qamrab oladi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ularda uchraydigan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash va moslashtirish maqsadlarini o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ushbu muammolarni hal etishda maxsus maktabda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar har bir yordamga muhtoj bolaning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, salomatligini muhofaza qilish, tibbiy-gigiyenik hamda valeologik bilimlardan xabardor bo'lishlari hamda ularni o'z amaliy faoliyatlarida qo'llay olishlari hozirgi davrning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Sog'lom tengqurlari bilan bir qatorda ta'lim olishga haqli bo'lgan har bir alohida yordamga muhtoj bolada sog'lom turmush tarziga rioya qila olish, saqlanib qolgan salomatligini muhofaza qilish hamda sog'lom umr davomiyligini ta'minlashni bilish, maktabni bitirgandan so'ng mustaqil hayotga qadam qo'yishda tibbiy bilimlarini rivojlantirish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borish vazifalari maxsus ta'lim maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan.

Prezidentimizning "Sog'lom avlod" davlat dasturida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning davlat tomonidan himoyasini kuchaytirish, ular jamiyatning to'laqonli a'zolari bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish yuzasidan ayrim yordamchi maktablarda olib borilayotgan korreksion ishlar bilan tanishish natijasida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning sog'lom turmush ko'nikmalarini zarur talablar darajasida shakllantirib borish uchun "Salomatlik" darslarining o'zi kifoya qilmaydi. Yordamchi maktab o'quvchilarining imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ularning jismonan salomatliklarini ta'minlash maktab oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardandir.

Jismonan salomatlik alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning hayotida, ayniqsa, yoshligida muhim ahamiyatga ega. O'quvchining saqlanib qolgan salomatligini muhofaza qilish jarayonida uning sog'lom umri davomiyligini ta'minlash uchun hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalasi bosqichma-bosqich ijobiy hal etib borilishi kerak.

Yordamchi maktabning har bir o'qituvchisida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning salomatliklarini mustahkamlab borish masalasiga ilmiy-metodik va amaliy yondashish, ko'nikma malakalarini oshirib borish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun pedagogik jarayonni boshqarish va nazorat qilish tizimi, bolalarning jismoniy kamolotga erishuvini ta'minlashning samarali metod, usul va vositalarini ishlab chiqish lozim.

Bu, o'z navbatida, yordamchi maktab o'qituvchisining tibbiy-gigiyenik va pedagogik-psixologik bilimlari asosida, alohida yordamga muhtoj bolalarga o'quv-tarbiya jarayonida tibbiy bilim berish, ularda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish va sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarni o'quvchilarga o'rgatish imkoniyatini yaratadi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarni o'rgatish muhim fiziologik ahamiyatga ega bo'lib, ularda kasalliklarning oldini olishning samarali vositasi hisoblanadi. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish ularda yaxshi kayfiyat, yuqori ishchanlik, axloqiy vazminlik sifatlarini mustahkamlash asosi bo'lishi bilan alohida yordamga muhtoj bola organizmining harakat va funksional imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar organizmning tashqi muhitning salbiy ta'sirlariga qarshiligini oshirishda, salomatlikni mustahkamlab, kasalliklar oldini olishning muhim samarali vositasi hisoblanadi.

Yordamchi maktabda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar vositasida sog'lom turmush tarziga o'rgatish jarayoni ularni jismonan sog'lom qilib tarbiyalashga yordam beruvchi vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bular:

- o'quvchilar salomatligini mustahkamlash, ularni jismoniy rivojlantirish, chiniqtirish, ish qobiliyatlarini oshirish;
- muntazam jismoniy mashg'ulotlarga ehtiyojni, jismoniy yetuklikka bo'lgan intilishni, bilimlarni o'rganish va ijtimoiy hayotda qo'llay olishga o'rgatish, tarbiyalash;
- o'z imkoniyati darajasida mehnat qilishni, jamoada mustaqil faoliyat ko'rsatish bilan bog'liq axloqiy sifatlarini tarbiyalash, o'z salomatligi haqida qayg'urish nafaqat shaxsiy, balki jamiyat oldidagi burch ekanligi haqidagi tushunchalarni tarkib toptirish;
- sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini hosil qilish;
- sog'lomlashtirish, kasalliklar oldini olishning turli shakl, usul va vositalaridan foydalanishni o'rgatish;
- bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, o'z-o'zini baholash, nazorat qilish, maqsadli kun tartibi tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishga o'rgatish;
- o'ziga xos tana-harakat xususiyatlarini rivojlantirish.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish yuzasidan salomatligini asrash va mustahkamlash masalalarini hal etish ularning kelgusida ijtimoiy hayotga moslashuvini, o'z imkoniyati darajasida mehnat qilishni, jamoada o'z o'rnini topish va unumli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Sog'lom turmush tarzi insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligini yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi muhim ijtimoiy omillardan biridir.

Yordamchi maktab o'quvchilari sog'lom turmush tarzini o'zlashtirishlari uchun o'z salomatliklarini mustahkamlovchi, o'quv-bilish va mehnat faoliyatining unumdorligini oshiruvchi, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya vositalari va usullari bo'yicha ma'lum bilimlarni egallashlari kerak. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya mashqlari alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish ehtiyojlarini mustahkamlash, salomatliklarini rivojlantirish, sanitariya va gigiyenik ko'nikmalarini hosil qilish, sog'lom hayot tarzi yuritishni va xarakterni mustahkamlab borishga yo'naltirilgan ko'p qirrali pedagogik jarayondir.

Bunday bilim va ko'nikmalar alohida yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy hayotda shaxsiy salomatliklarini asrashga oid bilimlarni amaliy qo'llay olish, o'z imkoniyatlari darajasida unumli mehnat qilish, jamoada faoliyat ko'rsatishda sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishlariga yordam beradi.

Yordamchi maktab o'quvchilari sog'lom turmush tarzini o'zlashtirishlari uchun o'z salomatliklarini mustahkamlovchi, o'quv va mehnat faoliyatining unumdorligini oshiruvchi sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya vositalari va usullari bo'yicha ma'lum bilimlarni egallashlari zarur. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish ehtiyojlarini mustahkamlash, jismoniy quvvat va salomatliklarini rivojlantirish, sog'lom hayot tarzida amal qilish va xarakterni mustahkamlab borishga yo'naltirilgan ko'p qirrali pedagogik jarayon ekan, bunday bilim va ko'nikmalar alohida yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy hayotda shaxsiy salomatliklarini asrashga oid bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish, o'z imkoniyatlari darajasida unumli mehnat qilish, jamoada faoliyat ko'rsatishda sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishlariga yordam berishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T., 1998.
2. Ergashev A.E. *Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ekologik ta'lim-tarbiya berishga oid metodik tavsiyalar.* – T., 1990.
3. Xripkova A.G., Kolesov D.V. *Gigiyena va salomatlik.* – T.: "O'qituvchi", 1986.
4. Soatov A., Mamedov K., Po'latova P. *Oligofrenopedagogika asoslari.* – T.: "O'qituvchi", 1994.
5. Po'latova P.M. *Maxsus maktablarda ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha harakat dasturi (5 – 9-sinflar uchun)* – T., 2004.

Nargiz NISHONOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

FARZAND TARBIYASIDA MUTAFAKKIRLARIMIZ MEROSIDAN FOYDALANISH YO'LLARI (Sharq uyg'onish davridagi ma'naviy-axloqiy asarlar misolida)

Annotatsiya

Maqolada Sharq Uyg'onish davrida ma'naviy-axloqiy asarlarning yaratilishi haqida fikr yuritilib, mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. Sharq Uyg'onish davri, pedagogika tarixi, mutafakkirlar, sharqona ta'limot, ta'limiy-axloqiy, ma'naviy-axloqiy, insonparvarlik g'oyasi, inson kamoloti, amaliy faoliyat, tarbiya.

В данной статье освещаются духовно-нравственные идеи произведений эпохи Восточного Возрождения. А также автор утверждает состояние нравственности в обществе, интерес современных педагогов к проблеме духовно- нравственного воспитание, анализирует различные взгляды на природу духовности, нравственности, духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова. История педагогики, эпоха Восточного Возрождения, образовательно-нравственное, духовно-нравственное, общечеловеческие ценности, воспитания.

This article highlights the spiritual and moral ideas of the works of the Eastern revival. As well as the author claims the status of morality in society, the interest of contemporary teachers to the spiritual and moral upbringing, analyzes the different views on the nature of spirituality, morality, spiritual and moral education.

Key words. History of pedagogy, Renaissance-era of East, educational, moral, spiritual and moral, teaching, idea, work.

Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo'lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g'oya bo'lib, insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy g'oyasi sanalgan. Bu g'oyani, ya'ni insonparvarlik g'oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy xislatlar va munosabatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta'lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo'yilgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari

tahlil etildi. “Qutadg‘u bilig”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Mahbub ul-qulub” kabi Yusuf Xos Hojib, Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa‘diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta‘limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta‘kidlaganimizdek, inson shaxsini ma‘naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta‘limiy-axloqiy asarlarda insonning ma‘naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo‘lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g‘oya ilgari suriladi. Shuningdek, ta‘limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta‘rifi bilan birga, xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Xullas, Sharq ta‘lim-tarbiyasida ilmni targ‘ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy tamoyillarga asoslangan ta‘limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o‘xshashligi ular tayangan ma‘naviy zaminga bog‘liqdir.

O‘sha davrlarda ta‘limiy-axloqiy asarlar (masalan, Nizom ul-mulkning “Siyosatnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”) yozish an‘anaga kirgan bo‘lsa ham, har biri o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ulardan ancha oldin yaratilgandir.

“Qutadg‘u bilig” asari ta‘limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o‘rinlarda turadi. Mazkur asarning shuhrat topishiga sabab, u o‘z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, jo‘g‘rofiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, diplomatiya, fiqh sohasiga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va olim sifatida o‘zini namoyon etdi. Chunonchi, olim barcha ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi muomala munosabatlarini yoritish bilan birga, diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasb-u koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta‘lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos uslubni yaratdi.

“Qutadg‘u bilig”dagi bosh g‘oya – insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to‘rt ramziy qahramon: Kuntug‘di – Elig podsho (adolat timsoli), Oyto‘ldi – vazir – davlat timsoli, Ug‘dulg‘mish – vazir (aql timsoli), O‘zgurmish – vazirning qarindoshi (qanoat timsoli) ning hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezonlari sanaladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos tarzda bayon etiladi.

Ming yilga yaqin davrdan beri xalqni, ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanma bo‘lib kelayotgan “Qobusnoma” asari esa, hozirgi o‘zgarishlar davrida insonni ma‘naviy kamolotga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur asar juda ko‘p sharq va g‘arb tillariga tarjima qilingan. Uning muallifi Unsurlmaoliy Kaykovus gilon qabilasidan bo‘lib, Tabaristonda – Kaspiy dengizining janubida yashagan. Ammo biz Kaykovus va uning avlodlari haqida juda oz ma‘lumotga egamiz.

“Qobusnoma” asariga davr va shart-sharoitlar, siyosiy qarashlar ta‘sirida qay darajada soya tashlanmasin, bu asar mashhur hind asari “Kalila va Dimna”, Nizom ul-mulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk”, Sa‘diyning “Guliston”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy” kabi ta‘limiy-axloqiy asarlari bilan bir qatorda sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Unda Sharq pandnomalaridagi an‘anaga binoan va X asrda paydo bo‘lgan yoshlar jamoasi – javonmardlik tarbiyasi ifodalanadi.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor beradi. U o'z “Xamsa”sida, “Mahbub ul-qulub” kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun-nafois”, “Muhokamat ul-lug'atayn” kabi asarlarida va “Arba'iyin” nomli Abdurahmon Jomiyning asari tarjimasi “Chixil hadis” (“Qirq hadis”)da ham tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi.

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari, uning komil insonni shakllantirish konsepsiyasi qator olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Zero, Vohid Zohidov ta'kidlaganidek, Navoiy ijodi amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir.

Alisher Navoiy butun umr davomida yiqqan tajribasi asosida “Mahbub ul-qulub” (Ko'ngillarning sevgani) asarini yozadi va ana shu asarda o'zining “Hayrat ul-abror”, “Nazmul javohir” va boshqa ta'limiy-axloqiy asarlaridagi axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Asar uch qismdan iborat bo'lib, Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, birinchi qismi har toifa odamlar fe'l-atvor va ahvoli kayfiyati; ikkinchi qism yaxshi va yomon fe'llar xosiyati; uchinchi qism esa, xilma-xil foydalar va qissalar ko'rinishi, ya'ni yaxshi fe'llar va xislatlarga oid tanbehlardan iboratdir.

Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga “munosib kishilar” va “nomunosib kishilar”ga bo'lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o'zlarini tiyishi va yaxshi yomonni ajrata olishda “Mahbub ul-qulub”dan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo'lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanish mumkin, deydi. Demak, Sharq Uyg'onish davri pedagogik ta'limotida, ta'limiy-axloqiy asarlarda komil inson tarbiyasi asosiy va muhim masalalardan sanalgan. Shunga ko'ra, buyuk allomalar ilmiy bilimlarni rivojlantirish bilan birga, ta'limiy-axloqiy risolalar ham yaratib, yetuk inson tarbiyasining ham nazariy, ham amaliy jihatlari yoritib berganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.* (Islom Karimovning “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) – T., 1998. – 21-16-b.
2. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.* (Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir). – T., “Ma'rifat” gazetasi, 19-avgust, 1998.
3. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:* – T.: “O'zbekiston”, 1992. – 46-b.
4. *Sog'lom bola yili dasturi.* 2014-yil 19-fevral. www.ziyounet.uz.
5. Xayrullayev M.M. *O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati.* – T.: “Fan”, 1994. – 80-b.
6. Xayrullayev M.M. *O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida. Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1-kitob.* – T.: O'zPFIT1992.
7. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig* (Saodatga yo'llovchi bilim). / transkripsiya. Hozirgi o'zbek tiliga tavsif va nashrga tayyorlovchi Karimov K./ – T.: “Fan” 1971. – 954-b.

Dilnoza ZUPAROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

DIZAYN TA'LIMI TARIXI ORQALI YOSH AVLODGA LOYIHALASH MADANIYATINI SINGDIRISH

Annotatsiya

Maqolada muallif "Hayrat ul-abror" dostonidan maqolalar keltirib o'tar ekan, bu asarda Navoiyning emas, balki rassom, dizayner, me'mor, so'z ustasining hayratlari aks etishi, xayoliy tasavvurimizdagi shahar manzaralaridan qalamtasvir yoki loyiha chizish, animatsion asarlarni yaratishda manba vazifasini bajarilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bugungi kunda yaratilayotgan inshootlar dizayniga aynan Navoiy zamonasidagi me'morlar uslublari asos bo'lishi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy munosabat, madaniy muhit, kasbiy faoliyat, falsafiy didaktik asar, axloqiy tarbiya, dizayn ta'limi, arxitektura, loyihalash, meros.

В статье приведены отрывки из произведения Алишера Навои "Хайрат ул-Аброк" (Смятение праведных), в которых отражаются восхищение не только Алишера Навои но и художников, дизайнеров, архитекторов и писателей, указывающие на возможность использования воображаемых городских пейзажей в качестве источников. Создания произведения искусств, проектов и анимационных произведений. Также автор отмечает, что основы дизайна для строящихся объектов и сооружений в современных условиях взяты именно из архитектурных стилей времён Алишера Навои.

Ключевые слова. Профессиональная деятельность, нравственно эстетические наследие, дизайн, проектирование, архитектурные стили, наследие.

Fragments are given in article from Alisher Navai's work "Hayrat ul-Abror" (Confusion just) in which are reflected admiration not only Alisher Navai but also artists, designers, architects and the writers pointing to possibility of use of imagined city landscapes as sources. Creations of work of arts, projects, and also animation works. Also the author notes that bases of design for objects under construction and constructions in modern conditions are taken from architectural styles of times of Alisher Navoi.

Key words. Professional activity, moral, aesthetic, heritage, Disain, engineering, architectural styles, heritage.

Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz ilm-fanda erishgan yutuqlari, kashfiyotlari bilan dunyo ahlini lol qoldirib kelgan. Cho'l-u biyobonlarni gulzorlar va bog'larga aylantirish, ekinzorlar bunyod etish, suv havzalari yaratish, qasr-qo'rg'onlar qurish, umuman, dehqonchilik madaniyatidan tortib, amaliy va tasviriy san'atgacha, tosh-taroshlik, kulolchilik, naqqoshlik, duradgorlik, qandolatchilik, misgarlik, ganchkorlik, gilamdo'zlik, novvoylik, qo'yingki, boshqa minglab hunarmandchilik hamda san'at namunalari xalqimizning nozik didi-yu, beqiyos mahoratini ko'rish mumkin.

Sharqona kasbiy madaniy munosabat ahloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ma'naviy asosi hususida Alisher Navoiy nodir asarlari majmui "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"da batafsil fikr yuritgan. Pedagog olim Sh.S. Sharipov

“O'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik asoslari”, deb nomlangan kitobida ta'kidlaganidek, Navoiy o'zining dostonida insonning kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan munosabat tarbiyasiga xos faollikni milliy ruhda asoslab bergan. Undagi yuksak g'oyalar kasb-koriga, oilasiga, ota-onasiga, farzandiga, ona yurtiga, tili va diniga bo'lgan ahloqiy munosabatini, komillik sari intilishini o'zida aks ettiradi.

Har bir inson uni o'rab turgan olamga nazar tashlar ekan, hayratga tushishi tabiiy. Har safargi yangi nigoh go'yoki boshqa bir mo'jizani kashf etgandek, lol qoldiradi. Aniqrog'i, har bir narsa va buyum o'zini yangi-yangi shakllar bilan namoyon etadi.

Taniqli pedagog olim D.S. Lixachev “Inson nafaqat tabiat muhitida, balki ajdodlari va o'zlari yaratgan madaniy muhitda yashaydi”, degan edi. Madaniy muhitni avaylab asrash va yanada boyitib borish tabiatni muhofaza qilishdan qolishmaydigan muhim masaladir. Dizayn ta'limi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, bizni o'rab turgan muhitni bir necha turlarga bo'lishimiz mumkin:

- narsalar olami muhiti;
- ijtimoiy muhit;
- tabiat olami;
- mashg'ulot va badiiy ijod muhiti;
- arxitektura hududiy muhiti;
- yaratilajak yangi muhitlar.

O'quvchi ongida dizayn ta'limi, loyihalash va yaratish ishtiyoqi xuddi ana shu muhitda yuzaga keladi.

Shakl va mazmun uyg'unligi to'g'risidagi falsafiy tushunchalar, umumiyaxlitlikni aks ettiruvchi qonuniyatlar hayot deb atalmish muqaddas ne'matni tartibga solib turadi. Inson hayot qonunlarini sekin-asta bilib borishi barobarida, eng avvalo, o'zini kashf etib, uni o'rab turgan olamni o'rganib boradi. Mana shu ne'matlardan foydalanish bilan birgalikda ularni ham boyitadi, shakllar tasavvur qiladi, mazmunan to'ldiradi, bilgan sari yana ham bilgisi kelaveradi. Inson tabiatan ijodkor bo'ladi. Har bir odam o'z bilimi, tajribasi, ko'nikmasini amaliy hayotda qo'llash orqali ham jismoniy, ham ruhiy qoniqish olishga intiladi. Ojiz qolgan paytda ezgu mazmun va maftunkor go'zal shakl birligidan hayratga tushadi, aksi bo'lsa, hafsalasi pir bo'ladi. Ana shu hissiyot va kechinmalar shoirning so'zida, rassomlar tasvirida, hunarmandlar yaratgan buyumlarda aks etadi. Yuksak estetik, zavqu shavqqa yoki nafrat va hayajonga sabab bo'ladi. Insoniyat tarixidagi san'at va adabiyot buyuk namunalarining dunyoga kelishi shundan bo'lsa, ajabmas.

Shu kabi durdonalardan biri, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” falsafiy-didaktik asar bo'lib, yaxshi odamlarning hayratlari sifatida ibratli voqealardan so'zlaydi. Kitobdagi “So'z ta'rifidakim”, deb nomlangan maqolatdagi quyidagi misralarga e'tibor qaratamiz:

*Daftari nazmida chu sherozadir,
Gul varaqi gulshan aro tozadir.*

*Uzdi chu sherozasini daftari,
Yel uchurur har varaqin bir sori.*

*Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tangri kalomida nazm.*

*Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsin aning surati hari durur.*

*Nazmki mani anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida ho'b emas.
Nazmki, ham surat erur xush anga,
Zaminida ma'ni dog'i dilkash anga.*

Hazrat Navoiyning ushbu misralarini o'qir ekansiz, tartib bilan nazmga solingan so'z, agar ma'nosi bo'lsa, u bebaho boylikka aylanishini tasavvur qilasiz. Misralar mazmunini anglash oson. Shunday bo'lsa-da, ularni nasrga ko'chirib, birgalikda mushohada qilamiz.

"She'r daftari ham bir-biriga bog'langani uchun uning varaqlari gulzordagi guldek toza, daftarning ipi so'kilsa, uning varaqlarini shamol har tomonga uchirib yuboradi. Gulshanda gullarning saf tortib ochilib turishi bu – nazm. Ularning yerga sochilib to'kilib yotishi nasrdir. Nazm bu qadar yuksak e'zozlanmasa, Tangri so'zida she'r bo'lmas edi. Nazmda ham asosi ma'nodir. Uning shakli esa, har xil bo'lishi mumkin. Yaxshi mazmunga ega bo'lmagan she'r tushungan odamlar tomonidan yaxshi baholanmaydi. Ham yaxshi shaklga ega bo'lgan, ham go'zal ma'no asosiga qurilgan she'r – haqiqiy she'r".

Navoiy ta'kidlagan shu falsafiy tushuncha san'at, madaniyat, ilm-fan va boshqa sohalaridagi inson ijodi va hayoti bilan bog'liq jarayonlar, uni o'rab turgan predmetlar olamiga ham taalluqlidir. Shakl esa, har xil bo'lishi mumkin. Narsa va buyumlarning mohiyati esa ularning funksiyasida, ya'ni vazifasida aks etadi.

Mavzuga chuqurroq kirish niyatida "Hayrat ul-abror"dagi yana bir kichik lavhani tahlil qilamiz hamda birgalikda mushohada etishga urinamiz. Siz yuqorida nazm, so'z she'riyat shakli ekanligi, nasr esa tabiiy sochilib yotgan manbal ma'lum bo'ladi. Mana endi shu doston misralari asosida kollaj, surat solish, kuy bastalash ma'nolarini anglashimiz mumkin. "Xurosonning misli yo'q viloyati bayonida", deb nomlangan maqolatdan ba'zi misralar mag'zini chaqamiz. Unda shoir Navoiyning emas, balki rassom, dizayner, me'mor, so'z ustasining hayratlari aks etib, ko'z o'ngimizda XV asr Hirot manzaralari gavdalanadi. Siz ham xayolan ana shu manzaralarni tasavvur etasiz, ulardan hatto qalamtasvir surat yoki loyiha chizish, kinofilm suratga olish, animatsiya asarlarni tayyorlash uchun manba sifatida foydalanish mumkin. Albatta, buyuk ijodkor so'z sehri bilan bizning ruhimizga hayrat olib kiradi.

*Qal'asida husn falakdek ulug',
Shahrida anjim sipohidek g'ulg'u.*

*To'rt taraf jadvali bozor anga,
Kirgan ulus barcha xaridor anga.*

*Har ne xaridor gumon aylabon,
Sotuvchi yuz oncha ayon aylabon.*

*Shahr – jahon anda bu ham bir jahon.
Ikki jihon bir-biri ichra nihon.*

*Shahri aro bo'yla bino behisob,
Qal'asining toshida hud, nehsob.*

*Shahrlar otini malolat etib,
Bo'ldi chu yuz shahr Hiri ot etib.*

*Madrasalar har birisi arjumand,
Poyada ko'k madrasasidek baland.*

*Tarxda sun' ilgi muhandislari.
Ruhi qudus fayzi mudarrislari.*

*Barcha chamanlar guli gulzorliq,
Har chamani yo'li girih korlik.*

*Gullari nav'ini ne dey oncha gul,
Onga ne gulkim sanay olg'oncha gul.*

*Nahlini dehqonki borumand etib,
Shohiga yuz mevani payvand etib.*

*Har shajaru yuz gul ila shevasi,
Turfaki yuz nav bo'lib mevasi.*

*Sahnida yuz gul chiqarib bir yig'och,
Har gulining atri borib bir yig'och.*

Shu o'rinda Hirot shahri ta'rifi murojaat etamiz: “Shaharda yulduzlarcha askarlarning g'avg'osi. To'rt tomon ketgan yo'l, uning bozorlari, u yerda kim bo'lsa, biron-bir narsaga xaridor. Xaridor qanday narsani olishni o'ylamasin, sotuvchilar undan yuz chandon ortig'ini muhayyo qiladilar. Shahar o'zi bir jahon bo'lsa, undagi Masjidi Jome' ham bir jahon. Ikki jahon bir-birining ichida nihon. Shaharda bu xil binolar behisob. Shahar devoridan chetdagilar bu hisobga kelmaydi. Hay, hay! Bu Hirot qanday shahar bo'ldi?! Uning bir qismi ikkinchi qismidan ajoyib, madarasalarning har bittasi alohida o'z qadriga ega. Ulug'vorlikda ko'k madrasasidan ham baland. Ularning nusxasini, loyihasini binokor-quruvchilar yaratuvchi qo'llari chizgan. U yerdagi mudarrislarning dili ravshan, ruhi pok, hamma chamanlar gulu gulzorliq. Har chamannig yo'li bo'g'in-bo'g'in. Gullarning navlarini nima deyin?! Shuncha gulki, shuncha gul bo'lganda ham sanaganingcha bor. Dehqon ko'chatlarni parvarish qilar ekan, shohiga yuz xil mevani payvand etadi. Har daraxtning yuz xil xususiyati bor. Saxndagi bir daraxt yuz xil gul chiqarish bilan birga uning hidi, o'n sakkiz chaqirimga boradi. Biz bu she'riy lavhadan hamda maqolatdan Hirot shahrida Husayn Boyqaro tomonidan qurilgan shahar haqida tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Temuriylar davri me'morchiligi haqida o'sha davrning o'zida yozilgan ma'lumotlardan foydalandik. Biz dostonning bu maqolatini to'la ko'chirmasak ham undagi mavzuyimiz – dizayn ta'limi bilan bog'liq quyidagi atamalaraga e'tiborimizni qaratdik.

Barchamizga ma'lumki, Alisher Navoiy shaharlar tarixini yaratishga me'morlar bilan birgalikda bosh-qosh bo'lganligidan, aytish joiz bo'lsa, loyihachi-me'mor bo'lganligidan dalolat berib turibdi. E'tibor bergan bo'lsangiz, Alisher Navoiy ushbu kichik maqolatda o'nlab ilmiy atamalardan foydalanganligini ko'ramiz. Biz yuqorida aytganimizdek, me'morchilik va dehqonchilik borasidagi fikrlar bizni o'quvchilarga taqdim qilayotgan mavzuga olib chiqadi. Ular orasida “muhandis”, ya'ni quruvchi-injener “bunyodkor” atamasi bilan, “bino tarxi”, ya'ni bino loyihasi, “Chin naqqoshlari qamlari” kabi me'morchilik atamalari bugungi kunda ko'p qo'llaniladigan arxitektura, amaliy san'at, madaniyat, hunarmandchilik kabi sohalar, “tarix” atamasi esa, badiiy loyihalash sohasi

bo'lgan "dizayn" tushunchasi bilan bog'laydi. Demak, dizayn XV asrda O'rta Osiyoda keng qo'llanilgan. U me'morchilik, hunarmandchilik, amaliy san'at, libos va kostyumlar yaratishda ustazodalarning ijodiy fantaziyasi, bilimi va tajribasi mahsuli ekanligini yaqqol sezamiz.

Hunarmandlik nafaqat kasb-kor, balki yuksak mahoratli san'at, oliy darajadagi bilim, yuqori malakali tajriba, donishmandlik, falsafiy va ahloqiy yetuklik, aytish joiz bo'lsa avliyolik maqomlari bilan uyg'unlashib ketganligini tasavvur qilish qiyin emas. Avliyolik, ya'ni hunarmand tomonidan yaratilajak buyumning oldindan tarxini, loyihasini tasavvur qilish, uni o'rab turgan narsalar olamiga ko'chib chiqishi demakdir. Shu bilan birgalikda, hunarmand tomonidan aniq hisob-kitoblar, zavqu shavq, nozik did, go'zallikni his etish kabi noyob qobiliyat namunasi hamdir. Demak, hunarmandlar o'zidan oldin yashagan ustalar, ustozlar tajribasini yanada mukammallashtirgan holda, materiallarga ishlov berish, texnologiyalarni takomillashtirib borish, estetik mohiyatini yanada yuksaltirish sari intilganlar. Buning uchun, albatta, oldindan rejalar tuzganlar, loyiha va tarhlarini yaratganlar. Kasb-kor sirlari va tajribalarini yosh avlodlarga o'rgatganlar, ustoz-shogird an'analari zanjirlari mahkam bog'langan. Bu xalq qadriyati va ta'lim-tarbiya asoslaridan hisoblangan. Biz yuqorida tilga olgan barcha texnologik va falsafiy estetik aytish zarur bo'lsa, ahloqiy masalalar aynan dizayn va dizayn ta'limi dunyoga kelishining nazariy va amaliy asoslari ekanligini sezgan bo'lsangiz kerak.

Bugungi kunda mamlakat uzuluksiz ta'limi oldida ham, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarda ham eng dolzarb masalalardan biri dizayn ta'limi, ya'ni yosh avlodga loyihalash madaniyatini singdirish, o'rgatish vazifasi sanaladi.

Shuningdek, "*Axborot texnologiyalari*" atamasi bilan talqin va taklif qilinayotgan soha biz fikr yuritayotgan "*Dizayn ta'limi*"ning bir bo'lagi, texnologik vositasi xolos. Loyihalash madaniyatiga ega bo'lgan insongina qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar dunyo innovatsion texnologiyalari bilan teng odimlay oladi. Har qanday raqobatga bardosh beradi. Mamlakatimiz salohiyatini ko'taradi va dunyo tamadduniga hissa qo'shishdek ma'suliyatga munosib bo'ladi.

Mustaqillik yillari dizaynini o'rganish, ularni yanada chuqurroq idrok qilish uchun, umuman olganda, olamni yaxshiroq anglashi uchun inson loyihalash madaniyati hisoblanmish – dizayn ta'limiga ega bo'lishi lozim. Dizayn unsurlari hisoblanmish grafika, rangshunoslik, geometriya, umuman, barcha san'at va fan sohalarini faqat bolalikdan boshlab o'rganish mumkin. Shu bois, maktabgacha ta'limdan to uzuluksiz ta'limning barcha pog'onalarida dizayn ta'limi-loyihalash ilmini o'rganish eng muhim masala sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dizayn va dizayn ta'limi yo'nalishining fan sifatida o'rgatish bugungi kunda ta'lim tizimida keng yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, yoshlarga milliy an'ana va urf odatlarimiz, madaniy, ma'naviy merosimiz, obodonchilik ishlarimizni keng targ'ib qilish, tarixiy namoyondalarimizni tanishtirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: "*Ma'naviyat*", 2008.
2. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. – T., 1998.
3. Alisher Navoiy. *Hayratul-abror*. – T.: "*Adabiyot va san'at*". 1989.
4. Xerman Vamberi. *Buxoro yohud Movarounnahr tarixi*. – T.: "*Adabiyot va san'at*". 1990.
5. Mo'minov I. *Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli*. – T.: "*Fan*", 1993.

Гулбахар АБЫЛОВА,
старший преподаватель Каракалпакского
РИППКПК имени К.Убайдуллаева

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ

Аннотация

Maqolada pedagogik kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan pedagogik va psixologik talablar hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning yangi usullarini ta'lim tizimiga joriy etish haqida so'z boradi. Muallif fikricha, o'qituvchi har bir o'quvchi ma'naviyati, intellektual salohiyatiga mos metodlar qo'llashi lozim.

Kalit so'zlar. Modernizatsiya, pedagogik kadrlarni tayyorlash, pedagogik omillar, salbiy ta'sir, tarbiyaviy jarayon, ma'naviy tarbiya.

В данной статье рассматриваются вопросы модернизации подготовки педагогических кадров, соответствующих современным требованиям. Автор отмечает, что высокая нравственность, духовная цельность и убежденность, эрудиция и интеллектуальная развитость, человеческая притягательность являются важными условиями формирования личности педагога.

Ключевые слова. Модернизация, подготовка педагогических кадров, педагогический фактор, негативное влияние, воспитательный процесс, духовное воспитание.

This article discusses issues of modernization and training of teaching staff, meet the requirements of modern life, as essential to the successful modernization of the education system as a whole. The author notes that an important prerequisite of a teacher is the teacher, his deep spirituality civil conviction, the ability to openly discuss with children the most acute problems of public life, convince them, bravely admit mistakes and blunders.

Key words. Modernization, training of teachers, pedagogical factors, the negative impact of, the educational process.

В организации учебно-воспитательного процесса нельзя пройти мимо такого мощного педагогического фактора, как характер воспитателя, свойства и качества его личности. У одного педагога слишком твердый характер и крепкая воля, большая общественная активность. Он стремится все сделать сам, подавляет спонтанность детей, оставляет их непричастными и равнодушными зрителями. У другого – мягкий, он не способен потребовать от учащихся элементарного порядка. Плохое знание педагогики и психологии, нежелание преодолеть себя, формировать свой характер в соответствии с педагогическими требованиями дают простор непосредственному проявлению на-

туры: вспыльчивости, жестокости или бесхарактерности, нетребовательности. Педагогика определяет оптимальную форму проявления и развития дисциплины и демократии в воспитании, которые реализуются специально подготовленной и обладающей педагогическим авторитетом личностью. Дети добровольно идут за тем воспитателем, которого они уважают. В любом другом случае педагогические отношения держаться на сугубо формальных основаниях, внешних требованиях, утрачивают свой позитивный воспитательный смысл и оказывают негативное влияние. Понятие «авторитет» буквально означает общепризнанное значение человека, его влияние на людей, поддержку его идей и деятельности общественным мнением, проявление уважения, доверия к нему, даже веры в него – в его ум, волю, направленность, способность сотворить благо, отдать все силы общему делу. Сущность, специфические особенности и функции собственно педагогического авторитета обусловлены тем, что десятки и сотни ребячьих глаз, как ренгеном, насквозь просвечивают и выявляют нравственное состояние личности педагога. У настоящего воспитателя нет другого морального выбора кроме чистоты, искренности, открытости и прямоты. В противном случае учитель неизбежно утрачивает свое влияние на детей и право быть их воспитателем. Суть педагогического авторитета в постоянном развитии в себе гражданской, творческой, человеческой личности, подлинной духовности и интеллигентности. Ребенок авансирует воспитателю свое уважение, доверие, расположение, исходя из естественного предложения о высоком качестве его личности, и это доверие необходимо оправдать. Аванс доверия возмещается, прежде всего высокой нравственностью. В современных условиях, видя вокруг себя безнравственность в различных слоях общества, даже в собственной семье и школе, впитывая летающую в воздухе мещанскую мораль, одни ребята научились презирать простые нормы общечеловеческой нравственности, другие овладели искусством общественного лицемерия и обмана. Образовался острый дефицит нравственности в детской и молодежной среде. В этой экстремальной ситуации нравственное самосовершенствование, высокая требовательность педагога к самому себе – главный путь укрепления самоуважения. Рано или поздно нравственная принципиальность, определенность и настойчивость педагога возобладают в сознании детей и дадут ему безусловное педагогическое преимущество, право предъявления нравственных требований к своим воспитанникам.

Другим важным условием личности педагога является духовность воспитателя, его глубокая гражданская убежденность, способность открыто обсуждать с детьми самые острые проблемы общественной жизни, убеждать их, мужественно признавать свои ошибки и промахи. В современных условиях в целях завоевания педагогического авторитета у детей воспитателю необходимо сделать выбор, занять общественную позицию: в отношении истории нашего общества; политики процессов, происходящих в нем; процессов межнациональных взаимодействий; прав человека; возрождения церкви и других. На убеждения детей можно повлиять только убежденностью, принципиальностью. И пусть не-

которые ребята будут не согласны с классным руководителем. Но уважаемый детьми воспитатель, смело и честно, без давления и запугивания, открыто вступающий с воспитанниками в диалог, дискуссию, спор, всегда заставит их задумываться над обсуждаемой проблемой, будет иметь возможность оказать идейное влияние. Авторитет нравственности и духовно – ценностной культуры педагога необходимо дополняется авторитетом интеллектуальной развитости, независимости суждений и образованности. Сегодня неизмеримо возрос поток разнообразной информации в различных областях жизни. Значительная ее часть приходит в острое противоречие со сложившимися стереотипами и штампами в сознании и мышлении. Это ставит воспитателя, духовного наставника детей и юношества в очень сложное положение. Чтобы глубоко понять духовный мир молодого поколения, быть властителем дум, нужно преодолеть в самом себе противоречия между сложившимися канонизированным взглядами на культуру, способами ее освоения ребенком и реальной, порой не укладывающейся ни в какие рамки, социокультурной ситуацией. Лучшим средством налаживания воспитательного взаимодействия, укрепления авторитета педагога, будет в этом случае его терпимость, отсутствие категоричности в оценках и давления на психику. Вовлеченность ребенка в диалог заставить размышлять, сомневаться, обратиться к источникам информации, произведениям литературы и искусства, духовно развиваться в направлении самостоятельного и критического отношения к культуре. По мере созревания детей, их духовного богатства во взглядах и убеждениях воспитателя и воспитанника будет образовываться все больше общих оценок и суждений. Оставшиеся разногласия также сыграют свою воспитательную позитивную укрепляющую авторитет педагога. Ведь суть воспитания не в том, чтобы непременно добиться единомыслия, вбить в сознание детей официальные догмы и стереотипные представления. А в том, чтобы ребенок проявил самостоятельность мысли, стремление докопаться до истины, выработать в себе независимость суждений, самостоятельность собственной личности. Диалог воспитателя с детьми по вопросам культуры, в котором господствует только одна сила – сила мысли, знания, аргументации, делает авторитет воспитателя естественным и прочным.

Эффективна организация педагогического процесса воспитателем, невозможна без авторитета человеческой притягательности, без доброжелательности и взаимности, педагога и детей. Нравственно – эстетическое взаимодействие есть самая благоприятная и эффективная атмосфера педагогического воздействия. Эффект человеческой притягательности возникает в учителе не только благодаря его эрудиции и интеллектуальной развитости. Он образуется как следствие таланта человеческого интереса, любви учителя к другому человеку. Это талант уважения личности ребенка, сочувствия к его проблемам и переживаниям, требовательной помощи ему в развитии духовности, интеллигентности, достоинства и самоуважения. Истинная педагогическая любовь есть глубоко предчувственная ответственность за жизнь и будущее детей, твердая решимость вести их к добру, гражданскому и личному счастью через преодо-

ление самих себя и внешних препятствий. Только любящий педагог, истинный воспитатель отдает все силы тому, чтобы организовать творческую трудовую жизнь детей, научить их целеустремленности, дисциплинированности, требовательности к себе. Он учит их дружбе, доброте, пониманию красоты мужественного труда души и тела. Он испытывает радость и нравственно – эстетическое удовлетворение от общения с детьми, переживает мгновения счастья, видя трудовые успехи своих воспитанников. Таким образом, высокая нравственность, духовная цельность и убежденность, эрудиция и интеллектуальная развитость, человеческая притягательность являются важнейшими условиями формирования педагогического авторитета воспитателя, классного руководителя.

Испльзованная литература:

1. Aripov M., B. Begalov va boshqalar. *Axborot texnologiyalari*. – T.: “Noshir” 2009.
2. G’ulomov S.S., Alimov R.X va boshqalar. *Axborot tizimlari va texnologiyalari*. – T.: “Sharq”, 2000.
3. Aripov M. va boshqalar. *Informatika, informatsion texnologiyalar*. – T., 2004.
4. Xolmatov T. X. *Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy ta’minoti*. – T., 2000.
5. *Информатика и компьютерный интеллект* / А.В. Тимофеев. – М.: “Педагогика”, 1991.
6. *Информационные технологии*. Ю.А. Шафрин. – М. Лаб. базовых знаний, 1998.
7. *Информатика: учеб. для студентов техн. направлений и специальностей вузов* / В.А. Острейковский. - Изд. 2-е, стер. – М.: Высш. шк., 2004.

Гулнора ИБРОХИМОВА,
д.п.н, профессор

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПОДГОТОВКЕ И ОФОРМЛЕНИЮ КУРСОВЫХ И ДИПЛОМНЫХ РАБОТ ПО ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация

Maqolada pedagogik ta'lim yo'nalishida diplom va kurs ishlari yozilishi talablari yoritilgan. Muallif fikricha, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi ijodiy munosabatlarda bo'lajak o'qituvchi shaxsi shakllanib borishi hamda muhim pedagogik-uslubiy muammolar yechimini topishda ilmiy pedagogik-psixologik metodlarni mustaqil qo'llash ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar. Intellectual, ilg'or, tadqiqot faoliyati, malaka, dolzarb, kurs ishi, pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma.

В статье рассматривается требование к курсовым и дипломным работам. Автор отмечает, что в творческом взаимодействии студента и преподавателя формируется личность будущего педагога, развивается умение решать актуальные педагогические и методические проблемы, самостоятельно ориентироваться в научной педагогической и психологической литературе, успешно применять на практике теоретические знания.

Ключевые слова. Интеллектуальный, лидер, исследовательский, деятельность, развитие, актуальность, курсовая работа, педагогический опыт, знание, умение.

The article considers the requirement for course and diploma works. The author notes that in the creative interaction between student and teacher is formed personality of a future teacher, develops the ability to solve topical pedagogical and methodological problems, self-oriented in scientific pedagogical and psychological literature, successfully put into practice the theoretical knowledge.

Key words. Intelligent, leader, research, operation, development, relevance, coursework, teaching experience, knowledge, skills.

В ходе осуществления Национальной программы по подготовке кадров реализуется процесс развития новой системы непрерывного образования, ориентированной на удовлетворение потребностей личности, государства и общества, вхождение в мировое образовательное пространство. Этот процесс сопровождается существенными изменениями в педагогической теории и практике. Происходит смена образовательной парадигмы: разрабатываются и внедряются иное содержание, иные подходы, иные технологии, иные отношения и т.д. Параллельно идет и интенсивный поиск новых форм научного и учебно-методического обеспечения образовательного процесса при подготовке кадров педагогического профиля.

Предлагаемые читателю структурно-логические схемы по методологии педагогического исследования можно отнести к учебнометодическим материалам

нового поколения. В пособии вопросы методологии психолого-педагогического исследования изложены в наглядно-иллюстративной форме.

Пособие может быть использовано:

1) преподавателями педагогических дисциплин при построении соответствующих курсов или в виде опорных схем по отдельным темам;

2) студентами бакалавриата и магистратуры, аспирантам, изучающими психологию и педагогику или другие дисциплины педагогического цикла в качестве мини-конспекта по отдельным темам, который даст первичную ориентировку в сжатом виде;

3) практическими работниками системы образования, у которых недостаточно времени для изучения большого объема соответствующей литературы;

4) всеми теми, кто постоянно занимается повышением собственной квалификации и педагогического мастерства, научного и профессионального уровня.

Структурно-логические схемы и тестовые задания:

– позволяют студентам определить структуру изучаемого материала, выделить связи между его компонентами;

– способствуют формированию более рациональной работы с учебным материалом;

– помогают активизировать самостоятельную работу;

– развивают самостоятельное творческое мышление.

Кроме того, в пособие включены контрольные задания по основным темам курса, которые могут быть использованы как для итоговой, так и экспресс-диагностики компетентности изучения курса. В пособие также вошли рекомендуемая литература: словарь терминов; приложения (методические рекомендации по подготовке и оформлению курсовых и дипломных работ по педагогике).

Выполнение и оформление курсовых работ — один из важных и перспективных видов исследовательской деятельности в системе средних и высших педагогических учебных заведений. В творческом взаимодействии студента и преподавателя формируется личность будущего педагога, развивается умение решать актуальные педагогические и методические проблемы, самостоятельно ориентироваться в научной педагогической и психологической литературе, успешно применять на практике теоретические знания.

Выполнение курсовой работы предусмотрено учебным планом и обязательно для каждого студента. Студент, выполняя курсовую работу, должен показать степень овладения основными умениями вести исследовательскую деятельность. С этой целью будущим педагогам необходимо:

– научиться пользоваться библиографическими указателями по педагогике, психологии, философии, социологии и т. д.;

– изучить определенный минимум литературы по теме и зафиксировать нужную информацию;

– грамотно изложить состояние изучаемого вопроса в современной литературе на основе ее анализа;

– собрать, проанализировать и обобщить передовой педагогический опыт в различных типах образовательных учреждений (если это определено темой);

– выполнить фрагмент опытно-экспериментальной работы, обработать полученный эмпирический материал, проанализировать, систематизировать, интерпретировать его и сделать выводы.

Выбор темы исследования. Темы курсовых работ, как правило, определяются и утверждаются на заседании кафедры и доводятся до сведения студентов.

Конкретная тематика курсовых работ должна:

- соответствовать задачам подготовки специалистов;
- учитывать направления и проблематику современных научнопедагогических исследований;
- приобщать студентов к работе над проблемами, которые исследуют отдельные преподаватели и коллектив кафедры в целом;
- учитывать разнообразие интересов студентов в области психолого-педагогической теории и практики;
- затрагивать актуальные проблемы воспитания и обучения детей. Темы курсовых работ могут определяться разными способами.

Если педагог ведет исследовательскую работу по определенной проблеме, он может привлечь к ее разработке и студентов, предложив им для творческого поиска перечень конкретных тем.

5) Студент работает по теме, способствующей преодолению затруднений, возникавших в его практической деятельности. Как правило, такие темы выбирают студенты, которые до обучения в вузе имели опыт педагогической деятельности или те, кто совмещает учебу и работу.

6) Студент работает по теме, соответствующей его интересам.

Самостоятельному выбору темы исследования способствуют:

- > просмотр аналитических обзоров достижений науки, сделанных ведущими специалистами (в конце таких обзоров часто указываются нерешенные проблемы);
- > выбор темы, близкой к проблематике ранее выполненных исследований, с использованием новых, более совершенных методов;
- > проверка одной из гипотез, выдвинутых, но не проверенных ранее исследователями;
- > ознакомление со специальной литературой и периодическими психолого-педагогическими изданиями;
- > консультации с ведущими учеными для выявления проблем и вопросов, имеющих актуальное значение.

После того как тема курсовой работы выбрана и согласована с научным руководителем, составляется календарный план, в котором определяются сроки выполнения основных этапов курсовой работы. План обладает контролем над ходом выполнения исследования и помогает студенту самостоятельно и осознанно выполнять курсовую работу.

Курсовая работа имеет следующую структуру:

Титульный лист. Он оформляется с учетом следующих требований. Сверху – название учебного заведения и кафедры. В середине листа пишутся фамилия, имя, отчество студента, а также курс и факультет, ниже – тема курсовой работы, еще ниже, справа, – фамилия, имя, отчество научного руководителя. Внизу – год написания курсовой работы.

В **оглавлении** последовательно излагаются названия пунктов и подпунктов курсовой работы. При этом их формулировки должны точно соответствовать содержанию работы, быть краткими, четкими и точно отражать ее внутреннюю ло-

гику. Обязательно указываются страницы, с которых начинается каждая глава или параграф работы.

Во **введении** обосновывается актуальность темы исследования, характеризуются проблема, объект, предмет, цель, задачи, гипотеза исследования.

Во введении также отражается краткая информация о замысле исследования. Здесь не следует увлекаться ссылками на литературу и особенно цитатами. Оно должно занимать не более 2-3 страниц компьютерного текста.

Для того чтобы проверить, правильно ли сформулированы основные характеристики исследования, постарайтесь ответить на следующие вопросы:

> при выявлении *проблемы* исследования: что надо изучить из того, что ранее не было изучено?

> при выборе *темы* исследования: отражена ли проблема исследования в его названии?

7) при обосновании *актуальности*: почему эту проблему необходимо изучать именно сегодня?

8) при определении *объекта* исследования: что будет исследоваться?

9) при определении *предмета* исследования: какие новые отношения, свойства, аспекты, стороны, функции и т. д. объекта подлежат исследованию или углубленному изучению?

10) при формулировке *цели* исследования: какой результат исследования вы намерены получить?

11) при определении *задач* исследования: что нужно сделать, чтобы цель была достигнута? Позволяет ли последовательное решение этих задач достичь поставленную цель?

12) при выдвижении *гипотезы* исследования: каким из возможных путей следует идти, чтобы достичь цели исследования?

13) при выдвижении *положений*, подлежащих публичной защите: что неочевидно в объекте и предмете исследования, что в нем есть то, чего не замечают другие?

Поскольку цель курсовой работы – лишь первоначальное приобщение студентов к педагогическому исследованию, то, видимо, нет необходимости формулировать абсолютно все характеристики. Некоторые из них могут быть определены по желанию (например, гипотеза). Формулировка этих характеристик будет зависеть от квалификации научного руководителя, подготовленности студентов, специфики темы исследования и других обстоятельств.

Студентам, ориентированным на продолжение исследования и выполнения на его основе дипломной работы, следует более подробно проработать все компоненты научного аппарата исследования.

Основная часть курсовой работы раскрывает содержание нескольких пунктов плана, здесь рассматриваются история и теория исследуемого вопроса, дается критический анализ литературы, определяется позиция автора. Далее излагаются методы, организация и результаты самостоятельно проведенного фрагмента исследования.

Работу следует начинать с подбора литературы по теме исследования. Выделяют три источника библиографической информации:

– первичные (статьи, диссертации, монографии и т. д.);

– вторичные (библиография, реферативные журналы, сигнальная информация и т. д.);

– третичные (обзоры, компилятивные работы, справочные книги и т. д.).

При написании курсовой работы следует просмотреть:

– специализированные профессиональные журналы, а также методические журналы, имеющие отношение к конкретной специальности и др.

– тематические указатели статей, опубликованных в течение года, печатаются в последних номерах журналов. Полезно также ознакомиться с обзорами литературы по определенным темам.

В результате сбора информации по теме исследования должны быть получены следующие сведения:

Кто и где (какие исследователи, в каких научных учреждениях, центрах) уже работали и работают по теме исследования?

Где опубликованы результаты этой работы (в каких источниках)?

В чем конкретно они состоят?

Вся добытая студентом информация фиксируется в виде записей разного рода. К первичным материалам относятся записи на библиографических карточках, выписки, прямые цитаты, ксерокопии, микрофильмы, алфавитный каталог по проблеме исследования и т. д. Вторичные материалы – записи, являющиеся продуктом аналитико-синтетической переработки информации, содержащейся в научном или методическом источнике: планы (простые и сложные), графы-схемы, самостоятельно составленные предметные указатели, аннотации, тезисы, конспекты и т. д. Третичными материалами считаются записи, обобщающие первичные и вторичные. Они могут быть представлены в виде содержательного обзора, в котором фиксируется полученное студентом знание об уже известных в науке фактах, закономерностях, теориях, объяснениях по теме исследования.

Перед составлением обзора необходимо определить основные понятия по теме исследования, чтобы использование их было однозначным. Это означает, что то или иное понятие в педагогике, которое разными авторами может трактоваться по-разному (например, воспитание в широком и узком смыслах), должно во всем тексте данной работы, от начала до конца, иметь лишь одно, четко определенное автором значение. Чтобы определить понятие, необходимо найти его толкование в разных источниках:

1. Энциклопедиях: общих и специальных (например, педагогическом, психологическом, философском и др.);

2. Толковых словарях: общих и специальных (например, педагогическом, психологическом, социологическом);

В оглавлениях и предметных указателях основных учебников и монографий по теме исследования.

Найденные определения понятий фиксируются на отдельных карточках и осмысливаются с помощью операций анализа, сравнения, классификации, обобщения и др.

Далее следует описание опытно-экспериментальной работы. Дается подробная характеристика испытуемых, указывается их возраст и количество; описывается материал, использованный в опытной работе, образцы, которого даются в тексте или приложении. Здесь указывается, какое оборудование (приборы, аппаратура) использовалось; необходимо описать и весь ход работы, включая

инструкцию, которая давалась испытуемым. Следует упомянуть, каким способом обрабатывались полученные данные.

Результаты опытно-экспериментальной работы могут быть представлены в таблицах, графиках, диаграммах и т. д. К таблицам, рисункам следует сделать подписи – краткие, понятные, под рисунками поместить пояснения, расшифровку сокращений и т. д. Все иллюстрации нужно выполнять аккуратно. Здесь же можно привести выдержки из словесных отчетов.

Следующим важным моментом в работе является обсуждение результатов, в ходе которого необходимо ответить на такие вопросы:

Почему так получилось?

В чем причины?

Как можно объяснить тот или иной факт?

На этом этапе работы необходимо привлечь теоретические и практические данные, полученные другими авторами, проанализировать соответствие или несоответствие собственных данных результатам других исследователей, дать интерпретацию, объяснить полученные данные. Делать это целесообразно в той же последовательности, в какой результаты представлены в тексте. Это обеспечивает стройность и логику изложения. Необходимо выяснить, подтвердилась ли гипотеза исследования (если она была ранее сформулирована).

Объем текста курсовой работы должен быть не менее 30-35 компьютерных страниц. ГОСТ определяет следующие требования к рукописи: количество строк на каждом листе не должно превышать 30, и строке – 60 знаков (включая пробелы между словами и знаки препинания). Следует соблюдать поля: слева – 3 см, справа – 1,5 см, сверху – 2,5 см, снизу – 2,5 см. Заголовки и подзаголовки отделяются от основного текста сверху и снизу пробелом в три интервала и печатаются строчными буквами.

Работа должна быть написана логически последовательно, литературным языком. Не следует использовать как излишне построенных и сложно построенных предложений, так и чрезмерно кратких, лаконичных фраз, слабо между собой связанных, допускающих двойное толкование и т. п.

Не рекомендуется вести изложение от первого лица единственного числа: «я наблюдал», «я считаю», «по моему мнению» и т. п. Корректнее использовать местоимение «мы», но желательно обойтись и без него. Допускаются обороты с сохранением первого лица множественного числа, в которых исключается местоимение «мы», но при этом употребляются слова «наблюдаем», «устанавливаем», «имеем». Можно использовать такие выражения, как «на наш взгляд», «по нашему мнению», однако предпочтительнее писать: «по мнению автора» (курсовой работы) или выражать ту же мысль в безличной форме: «изучение педагогического опыта свидетельствует о том, что...», «на основе выполненного анализа можно утверждать, что...», «проведенные исследования подтвердили, что ...» и т. п.

В курсовой работе должно быть соблюдено единство стиля изложения, обеспечена орфографическая, синтаксическая и стилистическая грамотность в соответствии с нормами современного русского языка.

5. В заключении подводятся итоги работы, формулируются основные выводы, к которым пришел автор; указываются их практическая значимость, возможность внедрения результатов работы и дальнейшие перспективы исследования

темы. Важнейшее требование к заключению – его краткость и обстоятельность; в нем не следует повторять содержание введения работы. В целом заключение должно давать ответ на следующие вопросы.

- > Зачем было предпринято исследование?
- > Что сделано?
- > К каким выводам пришел автор?

6. Список использованной литературы составляется в алфавитном порядке по фамилиям авторов или названиям произведений.

В список включаются все использованные автором работы и литературные источники независимо от того, где они опубликованы (в отдельном издании, в сборнике, журнале, газете и т. д.). Если в тексте давалась ссылка на источник или цитаты не приводились, то автор пользовался какой-либо литературой, все это следует включить в список.

В списке применяется общая нумерация литературных источников.

При оформлении исходных данных источника указываются фамилия и инициалы автора, название работы, место и год издания, общее количество страниц.

7. Приложения. Обычно оформляются на отдельных листах, причем каждое из них должно иметь свой тематический заголовок и надпись в правом верхнем углу: «Приложение». Если приложений несколько, то указывается его порядковый номер: «Приложение 1», «Приложение 2» и т. д.

В приложении помещаются анкеты (составленные самостоятельно), с помощью которых осуществляется сбор эмпирического материала, конспекты уроков или воспитательных мероприятий, протоколы наблюдений, сценарии праздников, детские рисунки, фотографии и т. д.

Руководство курсовыми работами осуществляют преподаватели кафедр, работники школ, внешкольных учреждений и различного рода центров, имеющие педагогический стаж, опыт работы или занимающиеся научным исследованием.

Студент выполняет курсовую работу самостоятельно, пользуясь консультациями руководителя и отчитываясь перед ним по мере выполнения ее отдельных частей или работы в целом.

Руководитель курсовой работы:

- > помогает студенту определить круг вопросов по изучению из бранной темы и методы исследования, наметить план подготовки и план оформления курсовой работы;
- > консультирует студента в ходе курсовой работы, осуществляет систематический контроль, проводит поэтапную аттестацию (**не** менее двух раз в семестр) и информирует об этом руководство кафедры;
- > проверяет и рецензирует курсовую работу.

Курсовая работа подлежит публичной защите. Автор работы выступает с коротким сообщением (до 10 мин) и отвечает на вопросы преподавателей и студентов. Сообщение включает: состояние проблемы, результаты опытно-экспериментальной работы (если она проводилась), выводы и предложения, перспективы исследования.

В итоговой оценке руководитель курсовой работы учитывает не только окончательный результат, но и степень самостоятельности студента, что отмечается в рецензии.

Рецензия на курсовую работу отражает: актуальность темы; глубину изучения специальной литературы; объективность методов исследования и достоверность результатов; обоснованность выводов; стиль и оформление работы; предложения и выводы.

По итогам защиты за курсовую работу выставляется дифференцированная оценка.

Курсовая работа возвращается студенту для продолжения исследования, которое может стать основой для будущей дипломной работы. Лучшие работы могут быть оставлены в методическом кабинете в качестве образцов для студентов.

II. Требования к выпускной квалификационной (дипломной) работе по педагогике

Темы выпускных квалификационных работ определяются высшим учебным заведением. Студент имеет право либо выбрать тему работы, либо предложить свою с обоснованием целесообразности ее разработки. При подготовке выпускной квалификационной работы студенту назначаются научный руководитель и консультанты.

Приходится констатировать, что учебные планы отдельных вузов не выделяют специального времени на подготовку и оформление дипломных работ, поэтому значительная часть работы выполняется за счет личного времени студентов. Приходится изыскивать необходимое для выполнения дипломных работ время разными способами. В этом помогают:

- > преемственность реферативных, курсовых и дипломных работ в рамках одного курса;
- > координация действий и заданий по выполнению студентами курсовых работ по смежным дисциплинам: педагогика, психология, методика частных дисциплин;
- > использование всех видов педагогической практики и т. д.

Работа студента над темой дипломной работы связана с углубленным изучением теории, приведением в систему ранее приобретенных знаний и пополнением их в процессе практического решения поставленной проблемы, с формированием и развитием навыков самостоятельной исследовательской деятельности, повышением эрудиции.

Как правило, тема дипломной работы утверждается и закрепляется за студентом перед направлением его на последнюю педагогическую практику. Одновременно ему выдается задание на дипломную работу, составленное научным руководителем и утвержденное заведующим кафедрой, с указанием срока окончания работы. В задании указываются фамилия, имя и отчество студента, факультет, тема. Если тема дипломной работы продолжает курсовую, то следует показать, что уже сделано, каковы исходные данные.

Затем следует отметить, какие вопросы необходимо проработать, какая опытно-экспериментальная работа планируется, где она будет осуществляться, а также кто будет консультировать дипломника.

Выполнение задания конкретизируется календарным планом работы студента. Это дает возможность организовывать работу студента, осуществлять систематический контроль и по мере необходимости оказывать помощь.

Календарный план способствует рациональному распределению времени, отводимого на подбор литературы и ее изучение, ознакомление с другими источниками, опытом работы, на организацию и проведение опытно-экспериментальной работы, анализ и обработку полученных данных, составление выводов, заключений, приложений, литературное и техническое оформление дипломной работы, подготовку ее к защите.

По содержанию между курсовой и дипломными работами, как правило, должна существовать органическая связь: дипломная работа становится творческим продолжением курсовой, поскольку проблема исследования углубляется и детализируется. Однако нельзя чисто механически, без изменений, включать текст курсовой работы в дипломную, основные выводы курсовой работы могут служить исходным материалом для творческой разработки проблематики дипломной работы.

План действий по выполнению дипломной работы можно представить следующим образом.

1. Выбор одного из аспектов курсовой работы для углубленного анализа. Уточнение темы дипломной работы.

2. Составление списка литературы по теме исследования.

3. Выделение проблемы и анализ ее состояния в науке и практике.

4. Выделение и анализ базовых понятий.

5. Составление плана дипломной работы.

6. Обоснование актуальности темы.

7. Подготовка раздела «Актуальность темы» с указанием основных характеристик работы (объект, предмет, цель, задачи и т. д.).

8. Составление содержательного обзора теоретических источников по теме исследования.

9. Подготовка раздела «Анализ литературы по теме исследования», в котором могут быть представлены: а) история исследуемой проблемы (идеи, вопроса); б) общепедагогические и другие научные положения, характеризующие объект исследования; в) дидактические положения; г) методические положения; д) психологические положения.

10. Подготовка раздела: «Выводы по результатам анализа литературы по теме исследования».

11. Разработка различных способов решения выделенной проблемы.

12. Определение оптимального пути разрешения проблемы.

13. Подготовка констатирующего эксперимента (планирование, разработка методики, подготовка оборудования, планов-конспектов учебных занятий, воспитательных мероприятий, дидактических тестов и т. д.).

14. Проведение констатирующего эксперимента с целью получения представления об уровне исследуемого предмета.

15. Анализ результатов эксперимента; их интерпретация; составление таблиц, схем, иллюстраций, формулирование выводов.

16. Подготовка раздела. «Результаты констатирующего эксперимента».

17. Подготовка формирующего эксперимента (планирование, разработка методов и средств проведения и наблюдения за ходом эксперимента, разработка способов фиксации его результатов и т. д.).

18. Проведение и анализ формирующего эксперимента (протоколы наблюдений, письменные работы, рисунки, записи бесед и т. д.).

19. Оформление результатов анализа в таблицах, схемах, диаграммах, рисунках и т. д., формулирование выводов и рекомендаций (если позволяет материал) по данным формирующего эксперимента,

20. Подготовка раздела «Опытно-экспериментальная работа», в котором отражаются подготовка к формирующему эксперименту, условия, в которых он проводился, характеристика участников и их позиция в начале и в конце эксперимента, название и последовательность проведения разработанных занятий (учебных или воспитательных), анализ результатов, выводы и рекомендации.

21. Повторное проведение формирующего эксперимента (если возникает необходимость).

22. Компоновка подготовленных разделов в главы.

23. Подготовка и написание выводов к главам.

24. Написание заключения.

25. Составление списка литературы.

Использованная литература:

1. Сейтхалилов Э., Ибрагимова Г. *Методология педагогического исследования в схемах и рисунках*. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2010 г. – С.88.

2. Azizxodjayeva N.N. *o'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi*. – T.: TDPU. 2000. 52-b.

3. Davletshin M.G. va boshqalar. *Qobiliyat va uning diagnostikasi*. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134-b.

4. Курбанов Ш.Э. *социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров*: – Автореф.дисс.докт.пед.наук. – Т.: 2000. – С.51.

5. Mahkamov M.Q. *Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari*: – Ped.fan. dok...yozilgan diss. Buxoro, 2004. – 332-b.

6. Щуркова Н.Е. *Педагогическая технология*. – Москва: Педагогическое общество России. 2002 г. – С.34-39.

7. Монахов В.М. *Методология педагогической технологии академика В.А.Монахова*. – Москва: Михайловка. МЦОП. 1997. – С.98.

Елена НАУМОВА,
преподаватель Самаркандского
Государственного Университета

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ МОТИВАЦИИ У РЕБЕНКА КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ГОТОВНОСТИ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ

Аннотация

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash masalalari haqida so'z boradi. Muallif fikricha, bolada ma'naviy-axloqiy motivatsiyani shakllantirish maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy omillardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuviga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, xarakter komponent, ma'naviy-axloqiy motivatsiya samaradorlik.

В статье анализируется практика подготовки детей к школьному обучению в дошкольных учреждениях, рассматриваются наиболее важные компоненты готовности ребенка к школе, подчеркивается необходимость формирования в раннем возрасте духовно-нравственной мотивации как важнейшего фактора социализации.

Ключевые слова. Дошкольное образование, компоненты готовности ребенка к школе, национальная система подготовки ребенка к школе, духовно-нравственная мотивация.

The article analyses current in preschool institutions of the Republic of Uzbekistan the practice of preparation of children for school, discusses the most important components of the child's readiness for school, emphasizes the necessity of the formation in the early age of spiritual and moral motivation as key factor of socialization.

Key words. Preschool education, the components of a child's readiness for school, the national system of preparation of children for school, spiritual and moral motivation.

Годы реформирования в Узбекистане системы национального образования поставили принципиально новые задачи во всех ее сферах – в первую очередь, изменились цели воспитания подрастающего поколения, исходя из которых, были сформированы и введены новые образовательные концепции. Сегодня мы можем в полной мере утверждать, что созданная в Республике Узбекистан система непрерывного образования отвечает мировым требованиям и учитывает потребности современного общества, однако не следует забывать о нерешенных еще проблемах – одной из которых, например, является оптимизация процесса обучения и воспитания.

Образование в нашей стране начинается в сети дошкольных образовательных учреждений(ДОУ), как государственных, так и частных. Современные ДОУ в

Узбекистане решают сегодня множество задач, но одной из самых главных является подготовка ребенка к школьному обучению. На первый взгляд проблема формирования необходимых компетенций у будущих школьников не нова и, по сути, решена как педагогами, так психологами – вопросы готовности к обучению в школе в течение многих лет изучались такими отечественными и зарубежными исследователями, как О. Мусурмонова, Ф. Вахобова [1, 2], Р. Суннатова, Л.И. Божович, Л.А. Венгер, А.Л. Венгер, Л.С. Выготский, А.В. Запорожец, В.С. Мухина, Е.О. Смирнова и многими другими. Названными авторами дается не только анализ необходимых знаний, навыков и умений ребенка при переходе из ДОО в школу, но и рассматриваются вопросы дифференцированного подхода при подготовке детей к школе, методики определения готовности, а также, что немало важно, пути коррекции негативных результатов и в связи с этим рекомендации по работе с детьми и их родителями. Проведенные ими исследования позволили также четко выделить следующие компоненты готовности к школе: физическая готовность, умственная (интеллектуальная готовность), мотивационная готовность, эмоционально-волевая готовность, готовность к общению (классификация Гуткиной Н. И.) [4, 25].

Согласно другим подходам (например, по Кулагиной И. Ю.) выделяется два аспекта психолого – педагогической готовности – личностная (мотивационную) и интеллектуальная готовность к школе, проявляющиеся в развитии мотивационной, произвольной, интеллектуальной и речевой сферы [3].

Зададимся вопросам: отвечают ли приведенные классификации потребностям современного общества, способствуют ли повышению эффективности работы ДОО по подготовке к школьному обучению?

Проведенный анализ практической деятельности дошкольных образовательных учреждений г. Самарканда приводит нас к отрицательному ответу. Исходя из указанного выше подхода, в ДОО идет усиленное формирование интеллектуального компонента школьной готовности, остальные компоненты остаются на т.н. «периферии». По мнению большинства опрошенных воспитателей (из 60 человек 49, анкетирование проводилось в 2012-2013 учебном году) ребенку для успешного обучения в школе необходимо научиться читать и считать, а также иметь знания в рамках, указанных в Государственных требованиях к развитию детей дошкольного возраста. Более того, разработанная в республике методика диагностики готовности ребенка в школе также ориентирована в первую очередь на обследование когнитивной сферы, и только один вопрос в вопроснике направлен на выявление уровня социально- эмоционального развития: «Что ты будешь делать, если сломаешь чужую машинку (игрушку)?». Является ли такой подход к пониманию готовности ребенка к школе в корне неверным или это только незначительная недоработка?

Для ответа на этот вопрос обратимся к исконному назначению образования с точки зрения национальной культуры и традиций воспитания. На Востоке в основе образованности лежал высокий уровень духовности, и поэтому человек, обладавший прекраснейшими знаниями в различных сферах наук, но бедный по своему внутреннему миру, уважался менее, чем тот, кто обладал необходимыми

нравственными качествами, кто стремился к самосовершенству, хотя мог быть и безграмотным.

Таким образом, в образовании должен быть отдан приоритет воспитанию духовно-нравственной культуры личности. Сущностью духовности человека является его «внутренняя мотивация, жизненные цели, смыслы и отношения к миру и самому себе, а понятие «нравственность» трактуется как набор правил поведения, в которых может проявиться, а может и не проявиться духовность. Духовность всегда неразрывно связана с ценностными ориентациями личности, представляет собой интенцию (осознанное устремление) человека к ценностям Добра, Красоты, Истины, устремление, неутоленность, беспокойство, напряженность, энергию, направленную на поиск истины. Духовно-нравственная культура современного человека является как целостный, взаимосвязанный образ, ценностно-смысловая картина мира, выступающая основой определения собственных правил созидательного, безопасного, социально активного поведения в информационном обществе» [5].

Основы духовно-нравственной культуры личности формируются в дошкольном детстве, когда ребенок взаимодействует с окружающим миром на основе естественной потребности в прочувствовании, познании, оценивании, осмыслении. В его представлениях преобладают эмпирические, эмоционально-чувственные, даже интуитивные данные. Особо отметим, что в период дошкольного возраста закладывается духовно-нравственная мотивация, которая является своеобразным фундаментом для создания системы ценностей.

Что мы наблюдаем в данном направлении на практике в дошкольных образовательных учреждениях сегодня? Формально все обстоит благополучно – согласно существующим методическим рекомендациям и нормативным документам в ДОО проводятся разнообразные утренники, занятия, посвященные истории и обычаям нашей страны, организуются соответствующие тематические зоны в групповых комнатах и т.д. В результате этих мероприятий дети получают широкий круг знаний, но, учитывая репродуктивный характер подачи материала, трудно утверждать, что у детей формируется адекватная система социально опосредованных мотивов. Кроме того, у ребенка должна сформироваться ценностно-смысловая картина мира. Большое значение в этом процессе имеют эмоции, чувства и формирующаяся оценка себя. На основе осмысления ценностей ребенок создает правила собственной жизни. Насколько организованная ныне работа по духовно-нравственному воспитанию в ДОО способствует раскрытию индивидуальности ребенка, соответствует его потребностям и решает проблемы его личностного развития.

В качестве основного метода изучения указанных параметров мы использовали проективный тест О. А. Ореховой. Данная методика доступна для проведения даже начинающему педагогу, позволяет достаточно быстро и эффективно определить ряд особенно важных для прогнозирования развития социально-эмоциональной сферы ребенка показателей: выявить деформации в тех или иных блоках личностных отношений, определить уровень психологического благополучия. Отметим также, что тест О. А. Ореховой дает психотерапевтический эффект, который достигается использования цвета, возмож-

ностью отреагирования негативных и позитивных эмоций, кроме того, эмоциональный ряд заканчивается в мажорном тоне. Данные проведенного исследования отражены в диаграмме № 1: по полученным данным были определены 45 детей (как школьников, так и выпускников ДОО), которые слабо, неуверенно или только интуитивно дифференцировали социальные эмоции. Кроме того, для них было характерно наличие внешней мотивации к обучению в школе, размыто выраженные предпочтения в выборе деятельности, конфликтность в общении со сверстниками. В цифровом соотношении были получены следующие результаты: 18 детей имели проблемы с обучением (слабая успеваемость, низкая активность на уроках, нежелание учиться и т.д.); 15 детей затруднялись в общении и совместной деятельности со сверстниками; у 12 детей проблема личностного развития носила смешанный характер. При этом стоит отметить, что больше половины детей из данной группы (32 человека) обладали не ниже среднего уровнем владения навыками чтения и счета, отвечали верно на большинство вопросов, характеризующих их познавательную сферу.




Диаграмма 1. Данные исследований социально-эмоциональной сферы и ценностных ориентаций у детей 6-7 лет, г. Самарканд (2009-2013 гг.)

Исходя из полученных данных, а также опираясь на результаты проведенных наблюдений образовательного процесса в ДОО (2009 – 2013 гг.), мы предлагаем новую классификацию компонентов готовности ребенка к школьному обучению, являющуюся модификацией подхода Кулагиной И. Ю.: сохраняя двухкомпонентность школьной готовности, мы выделяем в мотивационной готовности два аспекта – формирование духовно-нравственной мотивации и формирование школьной мотивации. Именно такое видение проблемы, на наш взгляд, позволит правильно расставить акценты в сложном процессе подготовки детей к школьному обучению, реализовать личностно-ориентированный подход с целью гармонизации развития ребенка.

Завершая обзор проблемы, кратко рассмотрим практические пути формирования духовно-нравственной мотивации у детей дошкольного возраста. Сегодня, учитывая развитие педагогической науки, воспитание может быть организовано как в рамках традиционной методики, так и в рамках воспитательной технологии. Следует учесть, что последний путь предпочтительнее в силу наличия диагностических целей и учета того, что воспитательная технология проектируется под конкретный педагогический замысел, исходя из конкретных условий и ориентируясь на заданный, а не предполагаемый результат. Средства формирования духовно-нравственной мотивации универсальны: игра, сказка, диалог, их следует рассматривать как культурную традицию, объединяющую ценности прошлого, настоящего и будущего.

Введение в практику ДООУ работы по формированию духовно-нравственной мотивации у дошкольников позволит создать ценностно-смысловую картину мира ребенка, в которой главными категориями будут достоинство, ответственность и устойчивость. Данные категории создадут благоприятные предпосылки для начала обучения в школе и дальнейшей социализации выпускника дошкольного образовательного учреждения.

Использованная литература:

1. Вахобова Ф., Рахимова З. Роль дошкольного образования и воспитания в системе непрерывного образования// *Образование через всю жизнь: Непрерывное образование в интересах устойчивого развития: тр. междунар. сотрудничества / сост. Н. А. Лобанов; под науч. ред. Н. А. Лобанова и В. Н. Скворцова; ЛГУ им. А. С. Пушкина, НИИ соц.-экон. и пед. пробл. непрерыв. образования. – СПб.: ЛГУ им. А. С. Пушкина, 2011. – Вып. 9. – С.750.*
2. Vaxabova F. N. *Men maktabga boraman: diqqatni rivojlantiramiz, o'ylaymiz, tushuntiramiz, mustaqil fikrlaymiz.* – T.: Bekmachoq Plyus, 2011.
3. Кулагина И.Ю. *Возрастная психология.* – Москва, 1991.
4. Гуткина Н.И. *Психологическая готовность к школе.* – 4-е изд., перераб.
5. Куликовская И. Э. *Современные подходы к духовно-нравственному воспитанию ребенка-дошкольника.* – *Современные научные исследования.* – Электронный научный журнал. – 2011. – <http://www.uecs.ru>
6. *Психологическая диагностика детского развития// серия «Сундучок психолога.* – под ред. Р. Суннатовой. – Т.: ИТД «СМИ-АЗИЯ», «San'at», 2008.